

84(2 Ross)  
6 85

Aleksandr GRIN

# ALVON YELKANLAR

Yoshligimiz xotiralarizi parchasiga aylangan qissa



14+

- Siz nima deysiz, alvon yelkanli  
kemaning kelishi haqiqatmi?

- Keladi, albatta! - ohista javob  
qildi keksa dengizchi qizalog'iga.

- Sehzgar aytgan bo'lsa, bunga  
shubha yo'g! Fagat sen bunga  
ishonsang bo'lgani.

84 (2 Rog)

G 85

Aleksandr GRIN

# ALVON YELKANLAR



4

Nizomiy nomli  
T D P U  
kutubxonasi

YANGI ASR AVLODI

Y-8915/  
1

**UO'K: 821.161.1-31**

**KBK: 84(2Ros=Rus)**

**G – 85**

**Grin A.**

Alvon yelkanlar: adabiy-badiiy / A.Grin. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021. — 128 b.

ISBN 978-9943-20-830-8

Aleksandr Grinning «Alvon yelkanlar» povesti Assol ismli qizchaning og‘ir va ixtirobli hayoti haqida so‘zlaydi. Assol go‘daklik chog‘ida onasidan ajrab qoladi. Otasi esa o‘zini qizalog‘ining tarbiyasiga bag‘ishlaydi. Uni mo‘jizalarga ishonch ruhida o‘stiradi.

Bir kuni qizaloq Egil ismli keksa ertakchini uchratib qoladi. Ertakchi qizaloqqa qachonlardir uni so‘roqlab alvon yelkanli kemada shahzoda kelishini aytadi. Qizcha ana shu gapga ishonadi va sadoqat bilan o‘sha saodatlari damlarni kutib yashaydi. Bu yo‘lda qanchadan-qancha aziyatlar chekadi. Boshiga malomat toshlari yog‘iladi. Yo‘qchilik, dasti qisqalik hamisha ortidan ergashib yuradi. Ammo u hech qachon taslim bo‘lmaydi. O‘z saodati uchun mehnat qilishdan chekinmaydi.

U mo‘jiza o‘z-o‘zidan kelmasligini, uni inson o‘z qo‘li bilan yaratishi lozimligini anglagan daqiqalardan, boshqalarni ham ana shu haqiqatga ishontiradi. Oradan yillar o‘tib, ertakchi cholning bashorati ro‘yobga chiqadi: ufq tomondan suzib kelayotgan alvon yelkanlar ko‘zga tashlanadi...

Bir so‘z bilan aytganda, mazkur asar o‘quvchiga ishonch va sadoqat, sabrning tagi oltin ekanini Assol hayoti misolida isbotlaydi.

**UO'K: 821.161.1-31**

**KBK: 84(2Ros=Rus)**

Rus tilidan  
Fozil TILOVAT  
tarjimasi

ISBN 978-9943-20-830-8

© A.Grin, «Alvon yelkanlar». «Yangi asr avlodi», 2021-yil.

## BASHORAT

Zalvorli «Orion» kemasining matrosi Longren o‘n yillik xizmatdan so‘ng, nihoyat, ishdan bo‘sadi. Aslida, u kemadagi ishiga qattiq bog‘lanib qolgan, chaqalojni onasidan ayirib bo‘lmagani kabi ishini tashlab ketishga ko‘zi qiymasdi. Ammo bir sabab bo‘ldi-yu hayoti ostin-ustin bo‘lib ketdi. U qanday sabab deysizmi?

Voqeа tafsiloti quyidagicha: Longren navbatdagi uzoq muddatli safardan qaytganida, o‘zi uchun tanish, odatiy manazaraning ustidan chiqmadi. Avvallari uzoq masofadan ham qora nuqtadekkina bo‘lib uyi ko‘zga tashlanardi. Yuragi hapriqib ketardi. Yaqinlashib borgani sari, eshik oldida kaftini ko‘ziga soyabon qilib turgan xotini Merini ilg‘ardi. Atay qadamini sekinlatardi, sababi Meri kelayotgan kishi eri ekaniga amin bo‘lgach, oyog‘ini qo‘liga olib, u tomon oshiqar, ayolning nafasi bo‘g‘ziga tiqilgudek harsillab, halloslab chopib kelishida mehr-muhabbati, sog‘inchi barq urib turardi. Merining jonsarak yugurishini tomosha qilishning zavqi bo‘lakcha edi. Ammo...

**UO'K: 821.161.1-31**

**KBK: 84(2Ros=Rus)**

**G – 85**

**Grin A.**

Alvon yelkanlar: adabiy-badiiy / A.Grin. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021. — 128 b.

ISBN 978-9943-20-830-8

Aleksandr Grinning «Alvon yelkanlar» povesti Assol ismli qizchaning og'ir va iztiroбли hayoti haqida so'zlaydi. Assol go'daklik chog'ida onasidan ajrab qoladi. Otasi esa o'zini qizalog'ining tarbiyasiga bag'ishlaydi. Uni mo'jizalarga ishonch ruhida o'stridi.

Bir kuni qizaloq Egil ismli keksa ertakchini uchratib qoladi. Ertakchi qizaloqqa qachonlardir uni so'roqlab alvon yelkanli kemada shahzoda kelishini aytadi. Qizcha ana shu gapga ishonadi va sadoqat bilan o'sha saodatli damlarni kutib yashaydi. Bu yo'lida qanchadan-qancha aziyatlar chekadi. Boshiga malomat toshlari yog'iladi. Yo'qchilik, dasti qisqalik hamisha ortidan ergashib yuradi. Ammo u hech qachon taslim bo'lmaydi. O'z saodati uchun mehnat qilishdan chekinmaydi.

U mo'jiza o'z-o'zidan kelmasligini, uni inson o'z qo'li bilan yaratishi lozimligini anglagan daqiqalardan, boshqalarni ham ana shu haqiqatga ishontiradi. Oradan yillar o'tib, ertakchi cholning bashorati ro'yobga chiqadi: ufq tomondan suzib kelayotgan alvon yelkanlar ko'zga tashlanadi...

Bir so'z bilan aytganda, mazkur asar o'quvchiga ishonch va sadoqat, sabrning tagi oltin ekanini Assol hayoti misolida isbotlaydi.

**UO'K: 821.161.1-31**

**KBK: 84(2Ros=Rus)**

*Rus tilidan  
Fozil TILOVAT  
tarjimasi*

ISBN 978-9943-20-830-8

© A.Grin, «Alvon yelkanlar». «Yangi asr avlodi», 2021-yil.

## BASHORAT

Zalvorli «Orion» kemasining matrosi Longren o'n yillik xizmatdan so'ng, nihoyat, ishdan bo'shadi. Aslida, u kemadagi ishiga qattiq bog'lanib qolgan, chaqalojni onasidan ayirib bo'limgani kabi ishini tashlab ketishga ko'zi qiymasdi. Ammo bir sabab bo'ldi-yu hayoti ostin-ustin bo'lib ketdi. U qanday sabab deysizmi?

Voqeа tafsiloti quyidagicha: Longren navbatdagi uzoq muddatli safardan qaytganida, o'zi uchun tanish, odatiy manazaraning ustidan chiqmadi. Avvallari uzoq masofadan ham qora nuqtadekkina bo'lib uyi ko'zga tashlanardi. Yuragi hapriqib ketardi. Yaqinlashib borgani sari, eshik oldida kaftini ko'ziga soyabon qilib turgan xotini Merini ilg'ardi. Atay qadamini sekinlatardi, sababi Meri kelayotgan kishi eri ekaniga amin bo'lgach, oyog'ini qo'liga olib, u tomon oshiqar, ayolning nafasi bo'g'ziga tiqilgudek harsillab, halloslab chopib kelishida mehr-muhabbati, sog'inchi barq urib turardi. Merining jonsarak yugurishini tomosha qilishning zavqi bo'lakcha edi. Ammo...



4

Bu safar bunday bo'lmadi: ko'rimsizgina uyining yonida bolalar karavoti, uning yonida esa hayajon ichra sarosimalanib turgan qo'shni xotinga ko'zi tushdi.

— Qariya, uch oydirki bolangga enagalik qilyapman, — dedi u karavotda beozorgina yotgan go'dakka ishora qilib. — Endi qizingga o'zing g'amxo'rlik qil.

Longren ruhsiz alfozda sakkiz oylik chaqaloqqa qayrilib qaradi, so'ng uning boshi uzra egildi. Mittigina qizaloq uning uzun soqoliga hayrat to'la nigohini qadab yotardi. U karavotga suyanib o'tirib qoldi. Kalovlanib tili kalimaga kelmadı, so'ng mo'ylovini burab qo'ydi: tuklari xuddi yomg'ir ostida qolgandek namiqqandi.

— Meri qachon olamdan o'tdi? — deb so'radi u nihoyat, haliyam sarosimalanib turgan qo'shni xotinga yuzlanib.

U bir so'z bilan javob qilmadi, balki ayanchli voqeani so'zlab berdi. Ora-orada u belanchakdagı shiringina qizaloqni erkalab qo'yar, uning onasi Meri hozir jannatda ekanini ta'kidlardi. Bo'lib o'tgan voqeadan to'la voqif bo'lgan Longren xotinining jannatdagı holatini tasavvur qildi. U joy qariyaga o'zining o'tin g'amlangan omboridan bir muncha yorug'roq bo'lib tuyuldi. Biroq endi ortiga qaytmas bo'lib ketgan Meri uchun mana shu oddiy chiroqning xira shu'lesi, uchovlon turgan mana shu ostona hech narsaga almashilmas quvonch bo'lganini angladi.

Bundan uch oy muqaddam yosh bolali ayolning xo'jaligida tanqislik ro'y berdi. Avvaliga tug'uruq og'ir



kechdi. Eri qoldirgan pulning katta qismini tug‘uruq-dan keyingi muolajalariga sarfladi: pulsiz qoldi. Ammo erining safardan qaytishiga hali bir muddat vaqt bor. Bu orada tirikchiligini ta‘minlab turishi lozim. Shu sabab u qo‘shnisi Mennersdan qarz so‘rashga ahd qildi. Uning sohilda chog‘roqqina yemakxonasi bo‘lib, o‘ziga to‘q kishi edi.

Meri shom payti uning uyiga boradi. Bu voqeani so‘zlab bergen qo‘shnining aytishicha, bir soatlar o‘tib, u Merini Lissa yo‘lida uchratgan. Yig‘idan ko‘zlar qizarib ketgan, choraszlik iskanjasida mung‘ayib qolgan Meri ayloga nikoh uzugini pullash uchun shaharga ketayotganini aytgan. Shu orada Mennersdan qarz olmoqchi bo‘lgani, u esa buning evaziga nomussizlik qilishga undaganini o‘kinch bilan so‘zlarkan:

— Uyimda bir tishlam ham non qolmadidi. G‘oyibdan ro‘shnolik keladi deb kutib tursam, bolamni boy beraman. Erim kelguniga qadar jon saqlash uchun shaharga tushib, ul-bul narsalarimni pullamoqchiman, — debdi.

O‘sha kuni havo salqin, etni junjiktiradigan sovuq shamol esib turardi. Qo‘shni xotin uni yo‘ldan qaytarishga urinib, yomg‘ir tomchilayotgani, shamolning shashtiga qaraganda hademay jalaga aylanishi haqida ogohlantirgan.

Dengiz bo‘yidagi bu qishloqdan shaharga boradigan ikkita yo‘l bo‘lib, har ikkisidan tinimsiz shahdam qadamlar bilan yurilsa kamida uch soatlik masofani bosib o‘tishga to‘g‘ri kelardi. Meri qo‘shni xotinning



undovi va ogohlantirishiga qaramay, «Ortiq ko‘zingizga tirsak bo‘lib, og‘irimni yelkangizga yuklayolmayman. Hozir hech kimga oson emas. Qarzga bir chaksa un yoki choy berishi mumkin bo‘lgan birorta ham xonadon yo‘q. Hammaning ham turmushi o‘ziga yarasha. Mening so‘nggi ilinjim esa mana shu uzukdan!» degancha yo‘lida ravona bo‘lgan. Ertasi kuni shahardan qaytib kelgan-u to‘shagidan turmagan. Harorati oshib, alahlab chiqqan. Qo‘shni xotin chaqirgan shaharlik shifokor ayolni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazar ekan, uning jalada qolgani tufayli zotiljam kasaliga yo‘liqqanini aytgan. Oradan bir hafta o‘tib, Meri hayot bilan vidolashgan. Qo‘shni xotin esa uning uyiga ko‘chib o‘tib, chaqaloqqa enagalik qilib turgan. Yolg‘iz yashab kelayotgan beva ayol uchun bu yumush, albatta, unga og‘irlik qilmagan. Boz ustiga chaqaloqni qarovsiz qoldira olmasdi.

Longren shundan so‘ng shaharga tushib, ishidan bo‘shadi, o‘rtoqlari bilan xayr-xo‘shlashdi, o‘zini butkul kichkintoy Assolning parvarishiga bag‘ishladi. Assol atak-chechak qilib yura boshlaguncha beva ayol bir muddat ularnikida yashab turdi. Qizaloq o‘zi mustaqil ostonadan qoqilmay hatlagan kuni Longren qat’iy qarorga keldi: qo‘shni ayolga minnatdorlik bildirib, bundan buyon qiziga o‘zi g‘amxo‘rlik qilishini aytди. Orzu va umidi, muhabbatи va shirin xotiralarini mana shu murg‘akkina vujudga jamlab, nuridiydasining kemtik qalbini mehr-muhabbatи bilan butlashga bel bog‘ladi.



Longren o'n yil mobaynida sarson-sargardonlikda to'plagan, yig'ib-tergan bor-budini sarfladi. Bisotida hech vaqosi qolmadi. Biroq ruhan sinmadi. Bir kuni u o'zi sevgan kasb-u koridan orttirgan tajribasiga taya-nib, yangi ishga qo'l urdi. Hademay shahar do'kon-larida bir-biridan bejirim o'yinchoqlar paydo bo'ldi. Ular: qayiq, yelkan, bir va ikki qavatli paruslar, jan-govar kemalar — qo'yingki, o'zi yaxshi bilgan dengiz transportlarining mitti modellari edi. Dengizda kechgan hayoti davomida u mana shu moslamalar qurilishi va tuzilishini yaxshi o'rgangan, shu bois ham yangi ishida bilganlari qo'l kelayotgandi. Qolaversa, bu mashg'ulot unga jo'shqin bandargoh va dengiz safarlarini eslatib turardi. Shuning evaziga u tirikchiligini tikladi. Tabiatan kamgap bu odam xotinining vafotidan so'ng, batamom yolg'izlikni tanladi, odamovi bo'lib qoldi. Faqat bayram kunlari uni qahvaxonada ko'rib qolishardi. O'shanda ham u izdihomdan nariroqda bir o'zi o'tirar, qadahini apil-tapil bo'shatgancha ko'zdan g'oyib bo'lardi. Keta turib tevarak-atrofga tez-tez bosh irg'ab, o'ziga muro-jaat qilganlarga «ha», «yo'q», «salom», «xayr», «bir navi» singari qisqa satrlarda javob qaytarardi. Uyida mehmon kutishga, birov bilan otamlashib o'tirishga sira xushi kelmasdi. Biror-bir eski ulfati chaqchaqlashish uchun eshigini qoqsa ko'ksidan itarmasa-da, gap bilan uning kovushini to'g'rilib qo'yardi.

Longrenning o'zi ham birovni yo'qlab bormas-di; shuning uchun sekin-asta u bilan qishloqdoshlari



o'rtasida sovuq munosabat vujudga keldi. Ammo u bularga parvo qilmasdi. Yangi mashg'uloti yuzasidan ham uning birovga mutelik joyi yo'q: o'yinchoqlar uchun zarur bo'lgan narsalarni shahardan xarid qilib kelardi. Do'konchi Menners unga hatto bir quti gurgurt sotganini ham maqtana olmasdi, negaki, sobiq dengizchi bunga imkon qoldirmasdi. U uy-ro'zg'or ishlari, qizalog'ining parvarishi bilan bog'liq barcha yumushlarni faqat o'zi bajarardi. Shu bilan yolg'izligini yengar, g'amlarini unutardi.

Assol bu paytga kelib besh yoshga to'ldi. U otasining tizzasiga o'tirib, kamzulining bog'ichlarini o'ynar, ba'zan ermakka dengizchi-matroslarning qo'shiqlarini xirgoyi qilardi. «R» harfini to'g'ri talaffuz qila olmaganidan, bola tilidan taralayotgan bu ohanglar va ohingga mos raqs, xuddi boshida bog'ichi bor ayiqchaning raqsini eslatardi. Shu kunga qadar tishining oqini ham ko'rsatmagan ota unga boqib, tez-tez jilmayadigan bo'ldi. Shunday kunlarning birida g'alati voqeа sodir bo'ldi. Bu voqeа Longrenning boshiga malomat bo'lib yog'ildi, odamlarning nafratiga duchor bo'ldi. Turgan gapki, Assol ham bundan benasib qolmadи.

Bahorning ilk kunlari. Qishning so'nggi kunlari, izg'irinning hali zahri yumshamagan. Uch hafta mobaynida qirg'oqdan esgan etni junjiktiruvchi Shimol shamoli qishloqni o'z iskanjasiga oldi.

Qirg'oqqa chiqarib, qantarib qo'yilgan baliq-chilarining qayiqlari dengiz jonivorining taram-taram



suyaklariga o‘xshar, oq qum uzra ular go‘yoki ulkan nahang skeleti kabi tasavvur uyg‘otardi. Bunday ob-havoda ochiq dengizga chiqishga har kim ham jur’at etolmas, to‘g‘rirog‘i, bittagina ko‘chadan iborat bu qishloqning odamlari hatto nomigagina bo‘lsin ko‘chaga chiqishmasdi. Sohil bo‘yidan esayotgan izg‘irin ufqqa tomon yastangan bo‘shliqlarda vahshatli quyundek charx urarkan, qishloqliklar issiqqina uylarida bexavotir choy ichishardi. Ular bunday kunlarni «nord kunlari» deb atashardi.

Qizig‘i, xuddi mana shu kunlarda Longren tor va biqiq bospanasini tark etar, uning uchun ayni kunlar Quyosh charaqlab, zarrin nurlari bilan dengiz va qishloqni charog‘on etgan damlardan-da farahliroq edi. U qator qilib qoqilgan qoziqlar ustiga yotqizilgan taxta ko‘prikka chiqar, uning bosh qismiga borib, o‘rnashib o‘tirar, so‘ng shamol puflab yonishini tezlatgan mushtugini chuqur-chuqur tortib, tevarak-atrofni tomosha qilishga kirishardi. Bunday paytda dengizing junbushga kelishini kuzatishning zavqi o‘zgacha. Ayniqsa, buni o‘n yillik umri ochiq dengizda o‘tgan keksa dengizchi teran his qilardi. Suv shovqin solib qirg‘oqqa bosh urar, ortga qaytganida xuddi ustidan choyshabi ochilib, yalang‘och bo‘lib qolgan sohillardan oppoq ko‘piklar bug‘ bo‘lib yuqoriga ko‘tarilardi.

Mana shunday kunlarning birida Mennersning o‘n ikki yoshli o‘g‘li, Xin, otasining qayig‘i to‘lqinlar ta’sirida taxta ko‘prikning yog‘och to‘sinlariga zarb bilan



urilib, zada bo‘layotganini ilg‘ab qoldi. Borib otasiga bu haqda xabar berdi. Dengizda bezovtalik endigina boshlangan, Menners esa qayig‘ini sohilga chiqarib, qum ustiga to‘nkarishni unutgandi. U darhol qirg‘oq tomon yo‘l oldi. Taxta ko‘prikka yetib kelganida, uning bosh tomonida orqasini o‘girgancha, tamaki tutatib o‘tirgan kishiga ko‘zi tushdi. U Longren edi. Bu yaqin atrofda ikkisidan boshqa zog‘ yo‘q hisob. Menners ko‘prikning o‘rtasigacha borib, mastona chayqalayotgan suvga tushdi. Qayig‘iga tushib, bog‘llangan arqonni yechdi va to‘sirlarga tayanib, uni sohil tomon siljita boshladи. Eshkak olmagandi. Shusiz ham ishni eplashiga ishongandi. Biroq falokat oyoq ostida, deyishadi. U navbatdagi qoziqni ushslash uchun qo‘lini bo‘shatgan palla kuchli shamol qayiqni ummonning ichkarisiga tomon uloqtirib yubordi. Menners bor-bo‘yi bilan talpinsa-da, eng yaqin qoziqqa qo‘li yetmaydigan darajada uzoqlashgandi. Shamol va to‘lqinlar qayiqni halokatli hududga surib borardi. Vaziyat naqadar tahlikali ekanini anglagan Menners o‘zini suvga otib, qirg‘oqqa qarab suzish fikriga tushdi. Ammo keyin bu borada ham kechikkanini angladi. Negaki, qayiqni chirpirak qilib aylantirayotgan to‘lqinlar va Menners turgan joydagi chuqurlik muqarrar halokatdan darak berardi — tirik qolishi dargumon. Longren va Menners o‘rtasida bir necha qadam masofa bo‘lib, u faqat shu imkoniyatga umid bog‘lashi mumkin edi. Qolaversa, Longrenning yonida bir uchiga yuk bog‘langan



qutqaruv arqoni solingan tugun osig‘liq turar, u xuddi shunday vaziyatlarda foydalanish uchun ko‘priknинг qozig‘iga bog‘lab qo‘yilgandi.

— Longren! — qo‘rquvdan dahshatga tushgan Mennersning jon holatda qichqirgani eshitildi. — To‘nkaga o‘xshab turaverasanmi, axir meni suv girdobiga tortayapti, yordam ber! Arqonni tashla!

Longren «miq» etmadi. Hissiz nigohini Mennersning pista po‘chog‘idek chayqalayotgan qayig‘iga tikib turaverdi. Mushtugidan burqsiyotgan tutun kuchaygani bois uni asta og‘zidan oldi: bu unga Mennersning chorasiz ahvolini yanada yaxshiroq ko‘rish imkonini berdi.

— Longren! — ovoz berdi yana Menners. — Sen meni eshityapsan-ku, qulog‘ing tom bitmagandir har-tugul. Meni qutqar, men cho‘kyapman!

Biroq Longren unga javob qaytarmadi, o‘zini uning tashvishli baqir-chaqirig‘ini eshitmagandek tutdi. Halokatga uchragan qayiq okeanning ichiga uzoq uloqib ketmagunicha, Mennersning uzuq-yuluq iltijoli nolalari elas-elas eshitilmagunicha kiprik ham qoqmadi. Menners keksa matrosdan baliqchilarni chaqirib kelishi ni, buning evaziga xohlaganicha pul berishini va’da qilardi. Longren joyidan jilmagach, Menners axiyri tutaqib, do‘q-po‘pisa qilib, haqoratli so‘zlar yog‘dira boshladi. Shu asno Longren fursat yetganini angladi, chuqur nafas oldi. Har bitta so‘zi Mennersga bexto yetib borishi uchun dona-dona qilib dedi: «Xoti-



nim Meri ham sendan ko'mak so'ragandi, esingdami? Agar unga yordam berganingga edi, o'shanda uni, bugun esa o'zingni o'limdan saqlab qolgan bo'larding!

Shundan keyin Mennersning tovushi o'chdi... Longren o'rnidan turib, uyiga qaytdi.

Nimadandir cho'chib uyg'ongan Assol xira miltirab turgan chiroq yog'dusida og'ir o'yga cho'mib o'tirgan otasini ko'rib, unga ovoz berdi. Ota sekin qizalog'i-ning yoniga borib, mehr bilan peshonasidan o'pdi. Sirg'alib ketgan ko'rpasini to'g'irlab, ustini yopdi.

- Uxla, go'zalim! Tong otishiga hali ancha bor.
- Siz nega yotmadingiz? Nima qilyapsiz?
- Men o'yinchoqlar yasayapman, sen esa uxla, qizalog'im!

Ertasi kuni Kaperna aholisi o'rtasida vahima tarqal-di: Menners to'satdan g'oyib bo'libdi. Oradan bir haftacha vaqt o'tib, uni xarob alfovda topib kelishdi. Garchi tirik deyishga til bormasa-da, joni hali uzilma-gandi. Shu bois o'limi oldidan o'zining halokati haqi-da nimalardir deyishga ulgurdi. Uning so'zlarizi zum o'tmay butun qishloqqa tarqaldi. Ma'lum bo'lishicha, okeanda beshafqat to'lqinlar bilan jon talashayotgan Mennersni Kassatga ketayotgan «Lukretsiya» paraxodi qutqarib qolgan. Biroqsovun uning suyak-suya-gidan o'tib, dahshatli qo'rquv va chekkan azob-uqu-bati quvvatini batamom so'ndirgandi. Hayoti qil us-tida turganiga qaramay bisotida qolgan qirq sakkiz soatlilik umrini Longrenni yomonotliq qilishga sarfladi.



Boshiga tushgan ko'rgilikda uni aybladi. Hol so'rab kelgan har bir qishloqdoshiga keksa dengizchi uning fojiasiga tomoshabin bo'lib turgani, ko'mak berishga oshiqmaganini so'zlab berdi. So'nggi nafasini olayotgan kishining yozg'irishi turgan gapki ta'sir qilmasdan qo'ymasdi. O'z navbatida hodisalar ustidan hukm chiqarishda qalbi bilan emas, balki qulog'i bilan qaror qabul qiladigan kapernaliklar «dod deganning dardi bor» deb hisoblashishardi. Ular Lengrenning qalbida tog'dek yuk borligini, Meridan ajralishdek og'ir jafoni boshidan kechirganini bilishardi, ammo shundan nariga o'tishmasdi. Sababi, Longren bu haqda lommim demasdi. Uning jimligi atrofidagilarni lol qoldirar, to'g'rirog'i, tutaqtirardi. U Mennersga to'fon kuni so'ng so'zini aytgunicha og'ziga qanday qulf solib yurgan bo'lsa, keyin ham shunday qildi. Keksa dengizchining ko'zlarida, nigohlarida Mennersga nisbatan kuchli nafrat borligini hamma bilardi. Agar u yuragini qiyanagan hissiyotlarni baralla aytolganida, Menners ustidan qozongan g'alabasi «Alqasos-u minal Haq» ekani haqida g'ururlanib gapirganida, odamlardan dardkashlik da'vo qilganida baliqchilar, shubhasiz, uni tushungan bo'lishardi. Ha, voqealar rivoji boshqacha tus olishi turgan gap edi. Biroq u bunday qilmadi. O'zini hammadan ustun qo'ygandek, yukini o'zgalar bilan bo'lishgisi yo'q; o'z yog'iga o'zi qovurilishni ma'qul ko'rardi. Bo'lmaydigan odam bilan bo'lishma, deyishadi. Bu voqeadan so'ng qishloqliklar keksa den-



gizchi bilan gaplashmay qo‘yishdi. Salomlashish uchun qo‘llar uzatilmas, nigohlarni unga nisbatan achinish hissi tark etdi. Hatto qishloq bolalari uni ko‘rib qolishsa, ortidan «Longren — Mennersning qotili» deb kalaka qiladigan bo‘lishdi. Longren o‘zining ana shunday o‘jar fe’li bilan batamom yakkalanib qoldi. Ammo u bunga parvo qilmasdi. Sohildami yoki qahvaxonada baliqchilar unga ko‘zi tushishi bilan jimib qolishlarini, xuddi o‘latdan qochgan kabi uni chetlab o‘tishlarini sezmaganga olardi. Xullas, Menners bilan kechgan voqeа muqaddam maydonga kelgan atrofdagilar bilan uzoqlashuv jarayonini yanada mustahkamladi. Bu hol Assolga ham soya solmay qolmadи.

Bechora qiz qishloqda dugonalarsiz, do‘srlarsiz ulg‘aydi. Kapernadagi unga tengdosh o‘ttiz-qirq chog‘li o‘g‘il-qiz kattalarning ta’sirida Assolga e’tiborsiz edilar. Negaki, hech bir xonadonda keksa den-gizchi haqida, uning mo‘jaz xonadoni xususida iliq munosabat bildirilmasdi. Longrenga nisbatan zig‘ircha xayrixohlik sezilmasdi. Turgan gapki, ular bolalarini ham bu xonadonni chetlab o‘tishga, Assol bilan o‘ynamaslikka undashardi. Go‘daklarning murg‘ak ongida dengizchi xonadoniga nisbatan qo‘rquinchli bir manzara shakllanib qolgandi.

Longrenning zерикарли хоти у хақидаги ко‘плаб mish-mishlar ildiz otishiga asos bo‘ldi. Emishki, у qachondir kimningdir joniga suiqasd qilgani uchun matroslik xizmatidan bo‘shatilgan-u hanuzgacha birorta



kemadan ish topa olmayapti. Uning odamovi bo‘lib qolgani vijdon azobidan qutula olmayotganidan mish. Bu to‘qimalar dengizchini xavotirga solmasdi, ammo jajji qizalog‘iga nisbatan bunday deb bo‘lmasdi.

Ko‘chada Assolning qorasi ko‘rinsa, o‘yinqaroq bolalar unga balchiq, loy otib asabiga tegishar, otasini odamxo‘r ekani haqida baqirib, hozirda soxta pullar yasashda ayblashardi. Boyaqish bolalar bilan yaqinlashish, do‘stlashishni juda-juda istardi, ammo shu maqsadda qilgan barcha harakatlari zoe ketardi. Bunga javoban ular bilan tortishib, tirmashib, mushtashgani, alamdan achchiq ko‘z yosh to‘kib, yuzi shilinib, qovoqlari ko‘karargani qolardi. Qizcha bora-bora ko‘chadagi bolalarning adabini bera boshladi. Ular avvalgidek uni xo‘rlashga jur’at etisholmaydigan bo‘lishdi. Shunday esa-da, Assol xonasi kelgan chog‘da otasini savolga tutardi:

— Ota, nega bizni bu odamlar yomon ko‘rishadi?

— Yaxshi ko‘rish san’atidan bebahra kishilar uchun yomon ko‘rishdan boshqa yumush qolmaydi, qizim, — qizchaning boshini muloyim silab javob qilardi ota.

Yaxshi ko‘rish san’ati qanaqa bo‘ladi?

— Umi? Mana bunaqa bo‘ladi... — Longren qizaloqning biroz g‘amgin ko‘zlaridan mehr bilan o‘pardi.

Kechki payt yoki bayram kunlari Assolning sevimli mashg‘uloti — otasining tizzasiga o‘tirib olib o‘yinchoqlar bilan o‘ynash, ular qanday qurilma va nima vazifani bajarishini so‘rab-surishtirardi. Otasi bu payt



dastgohlarini yig‘ishtirib, oxiriga yetmagan ishlarini bir chetga surib, peshxalatini yechar, sevimli tebranma kursisiga yastanib mushtugini chuqur-chuqur tortib huzurlanardi. Mana shu palla dunyoyi dunning qadimligi, hayotning tekis va notekis, past-u balandi haqidagi o‘ylarga berilar, o‘zida kechayotgan ayni kechinmalarni qizaloqning qalbiga singdirish usullari haqida bosh qotirardi. O‘ylay-o‘ylay hayotiy ertaklar to‘qishga kirishdi. Kemada ko‘p yillar xizmat qilgani yana unga qo‘l keldi. Dengizchilar hayoti ertaklariga asos bo‘ldi. O‘zining umri ham kutilmagan tasodiflar bilan to‘lib-toshgan, ammo Assolga bularni bor holicha so‘zlab bo‘lmasdi.

Longren asta-sekinlik bilan maqsadiga erishishga qaror qildi. U, avvalo, qiziga katta-kichik kemalar, ularning tuzilishi haqida so‘zlab berdi. Keyinroq paluba, parus, rul g‘ildiragi yoki boshqa yordamchi vositalar xususida gapirarkan, ushbu detallar ishtirokida ro‘y bergen voqealarni misol keltiradigan bo‘ldi. Xuddi mana shu mitti epizodlar o‘z-o‘zidan katta miqyos kasb eta boshladи. Ulkan suv sathida ro‘y berib turadigan to‘fonlar, bezovta, besaranjom dengiz to‘lqinlari, mavjlar uzra uloqqan kemalar, yo‘l axtarib kechilgan sarson-sargardonliklar — bularning barchasi bor narsalar bo‘lib, ular Longren so‘zlayotgan voqealarning haqqoniy ekanini tasdiqlab turardi. Keksa dengizchi haqqoniyat — voqea va hodisalarning mazmuniga xos,



deb hisoblardi. Masalan, yovuzlik va ezgulik o'rtasidagi kurash. Unda kimlar va nimalarning ishtirok etishi aniq. Longrenning hikoyalarida goh arslonsifat mushuklar, gapiradigan uchar baliqlar bo'y ko'rsatardi. Kema halokati; yo'lini yo'qotgan parus; uchar gollandiyalik o'zining dovyurak jamoasi bilan; ruhlar, suv parilari; qaroqchilar — barisi dengizchining o'zi haqida to'qigan dostoni. Imkon topdi deguncha ana shu tafsilotlarni so'zlardi. Longren, shuningdek, halokatga uchragan kemadan omon qolib, yolg'izlikda yashagan, gapirishni unutgan odamlar; sirli xazinalar; surgundagi mahkulmlarning g'alayonlari haqida ham ertaklar to'qirdi.

Qizaloq bularning barini butun vujudi qulooqqa aylanib tinglardi. Ayniqsa, Kolumbning yangi materikka qadam qo'ygani haqidagi hikoyani tinglayotganida otasining ko'ksiga boshini qo'yib, shirin uyquga ketgan qizaloq ajoyib-g'aroyib voqealar tafsilotini tushida ko'rib chiqar, gohi-gohida uyqu aralash: «Keyin-chi, keyin nima bo'lди?» deb so'rab qo'yardi.

Assolga xush yoqadigan holatlardan biri — otasining o'yinchoq mahsulotlarini xarid qilish uchun kelib turadigan shahar savdo rastasi xodimining tashrifi edi. U Longrenga ilhom berish maqsadidami yoki tamomman bashqa bir manfaat yuzasidanmi Assolga atab doim bir juft olma, shirinlik ya bir hovuch yong'oq olib kelardi. Bu tadbir hademay o'z natijasini bera boshladи.

kutubxonasi

15-8915/1



Longren o‘yinchoqlarining bahosi qanchaligini yaxshi bilardi, biroq savdo rastasi xodimi uni arzon-lashtirish payida bo‘lardi.

— Insof sari baraka! — deb uni insofga chaqirgan bo‘lardi Longren. — Axir bu kema besh bo‘g‘inli: u har qanday havo sharoitida o‘n besh kishiga chidab beradi. Pishiq, puxta ishlanganiga e’tibor beryapsan-mi? Savdo xodimining hadya qilgan olma va shirinliklari bilan mashg‘ul qizaloqning quvonchli sasi otaning o‘jarligiga xotima yasardi. Maqsadiga yetgan xaridor esa miyig‘ida kulib, savatini to‘ldirib o‘yinchoqlarni arzon-garovga olib ketardi.

Uy-ro‘zg‘or tashvishi Longrenning zimmasida: o‘tin yorar, suv tashir, pech yoqar, hamma yerni supirib-sidirar, dazmol bosar, kir yuvishdan ortib yana tirikchilik uchun o‘yinchoqlar yasash bilan mashg‘ul bo‘lardi.

Assol sakkiz yoshga to‘lgach otasi unga o‘qish va yozishni o‘rgatdi. U ahyon-ahyon qizaloqni o‘zi bilan shaharga olib tushadigan, keyinroq mahsulotlarining pulini olib kelish yoki qo‘srimcha mahsulot olib borish uchun uning o‘zini yuboradigan bo‘ldi. Ammo u bunga kamdan-kam hollarda ruxsat berardi. Garchi ularning uyi shahardan uncha uzoq bo‘lmasa-da, o‘rmon orqali borilgani tufayli, qizini yakka-yolg‘iz shaharga yuborishdan cho‘chirdi. Quyosh nurini zaminga sochib, yer-u ko‘kni nurafshon aylagan shunday kunlarning birida keksa dengizchi Assolga shaharga



tushishga ruxsat berdi. Qizaloq yo'l bo'yida bir muddat to'xtab, nonushta qilishga qaror qildi. Savatdan yegulik olayotganida, ajabtovur o'yinchoqlarga ko'zi tushdi. Bu o'yinchoqlar avvalgilariga o'xshamasdi. Ulardan ikki-uchtasini olib, obdan ko'zdan kechirdi, bu yangilik edi. Otasi bularni shu kecha yasagandi. Ayniqsa, mittigina tezyurar yaxta unga yoqib qoldi. Alvon yelkanli edi u. Aftidan, Longren ilojsizlikdan bu mato parchasini yelkanlarga ishlatgan, odatda, u bu matoni sarmoyador mijozlari uchun yasagan kemalarining kayuta xonalarini yelimlashda ishlatardi. Ko'rinib turibdiki, bu yerda boshqa mato topa olmaganidan alvon matoning qiyqimidan foydalangandi. Assolga bu juda xush yoqdi: go'yo olovdek ollanib borayotgan kemada ketayotgandek his qildi o'zini. Nazarida, qo'lida olovni tutib turgandek edi. Yo'l ustidan mo'jazgina ko'priq tashlangan kichik jilg'a kesib o'tgandi. Jilg'a har ikki tomondan o'rmonga qarab oqardi. «Mana bu chiroyli yelkanni suvga oqizib ko'rsam-chi, — degan fikrga bordi Assol. — Namiqsa, artib tozalayman!»

U ko'priq ostidan o'rmon tomonga o'tdi. Jilg'aning oqimiga moslab yelkanni ohista suvga qo'ydi; alvon yelkanlar shu ondayoq zilol suv yuzida o'z aksini namoyon etdi; matoni teshib o'tgan Quyosh nurlari suv ostidagi mayda shag'al toshlari uzra ajib bir manzara hosil qildi.



— Sen qayerdan suzib kelding, kapitan? — savol berdi Assol, yuziga jiddiy tus berib, so‘ng xuddi shu qiyofada o‘ziga-o‘zi javob qaytardi:

- Men... Men Xitoydan keldim!
- Xitoydan qanday mollar olib kelding?
- Bu sir! Aytmayman...
- Ah, senimi shoshmay tur, kapitan! Seni qayta savatga joylamasammi!

Kapitan endi hazillashganini aytib, Assoldan afv so‘rashga, yukxonadagi fillarini ko‘rsatmoqchi bo‘lib turgandi, vaziyat kutilmaganda boshqa tomonga o‘zgarib ketdi. Mitti o‘zandagi osoyishta oqim yelkanni jilg‘aning o‘rtasiga oqizib bordi, shundan so‘ng u xuddi haqiqiy kemalardek tezligini oshirib, pastga tomon pildirab ketdi. Manzara zumda jiddiy tus oldi. Har holda Assolning ko‘zlariga jilg‘a daryo bo‘lib, mittigina yelkan esa ulkan kema bo‘lib ko‘rindi. Qizaloq qo‘rquvdan dag‘-dag‘ titrab, suvga yiqlilib tushmaslik uchun qirg‘oqda turib, jon holatda yelkanga qo‘lini uzatar, uni ushlab qolmoqchi bo‘lardi.

«Kapitanni cho‘chitib qo‘ydim!» deb o‘yladi u, suv yuzida suzib borayotgan yelkanni qaysi bir joyda ushslash umidida ortidan quvib borarkan. Qo‘lidagi o‘yinchoqlar solingan savat og‘ir bo‘lmasa-da, o‘ng‘aysizlik tug‘dirar, erkin harakatlanishiga xalal berardi. U shu ko‘yi Xudodan ko‘mak so‘radi: «Yaratgan egam! Marhamatingni darig‘ tutma!»



U suv yuzida bejirim suzib borayotan chiroyli, uch-burchak parusni ko'zdan qochirmaslik uchun yugurar, qoqilib yiqlisa-da, yana o'midan turib yelkanlarning ortidan qolmasdi. Assol avval hech qachon o'rmonga bu qadar ichkari kirmagandi. Hozir ham o'z ixtiyori bilan emas, vaziyat shuni taqozo qilgani uchun ichkarilab borardi. Alvon yelkanni tutishga bo'lgan ishtiyoq xayolini batamom band qilgani bois u tevarak-atrofga nazar tashlashga ulgurmasdi. U yugurgilab borayotgan qirg'oq bo'yi qulagan daraxtlarning tik va tetik butoqlari; o'ydim-chuqurlar; namatak, jasmin va yong'oq daraxtining shox-shabbalari har qadamda uning yo'lini to'sar, erkin qadam tashlashiga imkon bermasdi. Assol esa ana shu g'ovlardan bor kuchi bilan oshib o'tar, tez-tez to'xtab nafasini roslar, yuziga yopishib qolgan o'rgimchak to'rlarini sidirib tashlardi. Biri-biriga birikib ketgan o'simliklar oralab o'tgan kezları yelkanni ko'zdan qochirib qo'yar, to'siqlarni tark etgach, oqim bo'ylab oldingga oshiqib borayotgan yelkanni yana ilg'ardi. Bu orada bir muddat to'xtab, atrofiga razm solgan qizcha o'rmonning naqadar ulkanligini ko'rib, hayratga tushdi. Bir muddat chalg'idi, keyin yana o'yinchog'i yodiga tushib, qattiq «uf» tortgancha bor kuchini to'plab yugurishga tushdi.

Mana shu samarasiz yugurishga Assol bir soatdan ko'proq vaqt sarfladi. Horib, yiqligudek ahvolda ajib bir manzaraga duch keldi. Oldidagi daraxtlar



go‘yo ikki yonga tisarilib, unga yo‘l ochib turgandek edi. Daraxtlar orasidagi bo‘shliqdan dengizning moviy chehrasi, ko‘kdagi parqu bulutlar va sap-sariq qum cho‘kindisi ko‘rinardi. Jilg‘a shu yerga kelib ko‘lmak hosil qilgandi. Ko‘lmakning ostidan qum va tosh zarlari akslanar, uni muntazam ravishda dengiz to‘lqinlari yuvib turardi.

Assolning mana shu joyda, katta xarsangtosh ustida o‘tirgan kishiga ko‘zi tushdi. U jilg‘a bo‘ylab oqib kelgan o‘yinchoq yelkanni qo‘lida tutib, aylan-tirib tomosha qilardi. Assol uni kapalakni tutib olib, zavqlanib turgan filga o‘xshatdi. Orqasini o‘girib o‘tirgani bois yuzini ko‘ra olmadi. Biroq o‘yinchoqning bus-butun ekanidan ko‘ngli taskin topdi. Assol tirmashib notanish kimsa o‘tirgan xarsangtosh ustiga chiqdi va sinchkovlik bilan unga qarab qoldi. Notanish kishi kutilmagan topilmasiga shu qadar mahliyo bo‘lib qolgandiki, hali-beri boshini ko‘taradigandek emasdi. Shu orada Assol uni obdan ko‘zdan kechirdi. Bu toifadagi kishini avval sira ko‘rmaganiga, uchratmaganiga amin bo‘ldi. Vaholanki, uning qarshisida turgan kishi piyoda yurt kezib yuradigan mashhur Egil edi. U qadimiy qo‘schiqlar, xalq afsonalari, ertak va hikmatli so‘zlarni to‘plab yurardi — shu mashg‘uloti bilan elga tanilgandi.

Egilning taram-taram oqargan jingalak sochlari poxol shlyapasi ostidan osilib turardi; egnidagi sarg‘ish



ko‘ylagi ko‘k shimiga mos tushgan, qo‘nji baland etigi unga ovchilarga xos viqor baxsh etardi. Oppoq yoqasiga qo‘ndirgan bo‘yinbog‘i, kumush bog‘ichli charm tasmasi, bo‘ynidagi zanjir va nikel bog‘ichli safar sum-kasi — bu odamning shaharlik ekanini ko‘rsatib turardi. Uning yuzi, agar burni, labi va ko‘zlarini yuz deyishga asos bo‘lsa, betartib o‘sgan soqoli va burama mo‘yabi orasidan ko‘rimsizgina bo‘rtib turardi. Faqat ko‘zları bu ko‘rimsizlikdan mustasno: u qumdek malatob, po‘latdek yorqin, nigohlari o‘ktam va jasur edi.

— Agar tomosha qilib bo‘lgan bo‘lsangiz, uni men-ga bering! — iymaniqgina so‘z qotdi Assol. — Uni qanday qilib qo‘lga kiritdingiz, men uni tuta olmay halak edim.

Egil boshini keskin ko‘tara turib, o‘yinchoqni qo‘lidan tushirib yubordi. Assolning tashvishnok to-vushi uning uchun kutilmagan murojaat bo‘lgandi. Qariya lahzada qizni bosh-oyoq ko‘zdan kechirdi. Muloyim tabassum qilib, quyuq soqolini barmog‘i bilan taradi. Qizchaga yana sinovchan qaradi. Assolning yuvilaverib ohori to‘kilgan ko‘ylagi oriq va nimjon oyoqlari tizzasini zo‘rg‘a yopib turardi. Bitta qilib o‘rilgan qora, quyuq sochlari yelkasi osha ortiga tashlab qo‘yilgandi. Qizchaning sodda ko‘rinishi, samimiy yuz-ko‘zları, mayin, ammo dadil so‘zlashi uning boshqalarga o‘xshamas jihatı borligidan darak berib turardi. Uning tim qora, tashvishli savol



alomati aks etib turgan ko'zлari chehrasidan ko'ra  
ulg'ayganroqdek tasavvur uyg'otardi.

— Aka-uka Grimmilar, Ezop va Andrson haqqi-hurmati ont ichaman, — dedi Egil bir qizga, bir o'yinchoq yelkanga qarab, — bu shunchaki o'yinchoq emas, al-laqanday alomat narsa! Hoy qizaloq, bu senikimi?

— Ha, men uni tutaman deb, mana shu jilg'a bo'ylab yugurib keldim. Nafasim tiqilib, o'lib qolsam kerak, deb o'ylagandim. Uni sizning qo'lingizda ko'r-ganimdan so'ng ancha yengil tortdim!

— Shundoqqina oyog'im ostida ro'y bergan kema halokati bir narsadan darak beradi. Bu bejiz emas, buning o'ziga yarasha xosiyati bor. Men esa hozir, shu tobda dengiz qaroqchisi sifatida buni senga hadya qilaman, — ertakchi shu so'zlarni aytib, qizchaga yuzlandi: — Isming nima, ona qizim?

— Assol, — dedi qizcha, Egel qaytarib bergan o'yinchog'ini savatga joylayotib.

— Juda soz, — dedi chol do'stona tabassum ila ko'zini qizdan uzman, tushunish qiyin bo'lgan ma'rzasida davom etib. — Aslida, ismingni so'rashim shart emas edi. Ammo ohangdor, yoydan uzilgan o'qning vizillashiga monand, dengiz mavjlarining shovqini yanglig' ismingni bilganim yaxshi bo'ldi. Agar sen odatiy bir ismni aytganingda men nima qilardim? Yana shuni aytishim mumkinki, sening kimliging, kimning farzandi ekaning, turmush ahvoling qanday ekani



menga qiziq emas. Men mana shu tosh ustida o'tirib, fin va yapon hikoyalarini qiyosiy o'rganish bilan mashg'ul edim. Avvaliga suv yuzida mana bu yelkan bo'y ko'rsatdi, keyin sen zohir bo'lding. Qanday bo'l-sang, shu turishingda oshkor etding o'zingni. Men, ona qizim, garchi o'zim bir satr ham she'r yozmagan bo'lsam-da, qalban shoirman.

Chol birpas tin oldi-da, keyin Assolga yuzlanib, dabdurustdan so'radi:

— Savatingda nima bor?

— Qayiqchalar, — deb javob qaytardi Assol, sava-tini silkitib. — Yana kayutali kemalar ham bor. Ularda matroslar istiqomat qiladi.

— Juda soz! Sen ularni sotishga olib ketyapsan, shundaymi? Yo'lda ular bilan o'ynaging keldi, yelkan-ni suvgaga qo'yding, u esa seni chuv tushirib, qochib qoldi.

— Siz buni qayoqdan bilasiz yoki barini ko'rib, kuzatib turganmidizing? — taajjublanib so'radi Assol, o'zim bu haqda gapirib qo'ymadimikin ishqilib, degan o'yda eslashga urinib. Keyin yanada hayratlanib so'radi:

— Buni kimdir sizga so'zlab berdimi yoki o'zingiz topdingizmi?

— Buni bilardim. Bilmasligim mumkinmi, — axir men eng ustasifarang sehrgarman-ku!

Assolning eti junjikib ketdi: qariya Egilning bu ga-pidan qo'rquvga tushdi. Dengizning qip yalang'och



sohili; atrofdagi osudalik; yelkan bilan kechgan mashaqqatli sarguzasht; qariyaning ma'nisiz ma'ruza-si; uning ko'zlarida chaqnagan yolqinlar; chehrasiga ulug'vorlik bag'ishlab turgan soqoli, jingalak sochi — bularning barchasi Assolga haqqoniyat bilan g'ayrita-biiylikning qorishmasi bo'lib tuyuldi. Mana shu lahza-larda Egil biror-bir keskin harakat qilsa yoki ovozining ohangi o'zgarsa, turgan gapki, Assol qo'rqqanidan dahshatga tushib, yig'lab, ortiga qaramay qochgan bo'lardi. Biroq Egil qizchaning hayratdan qotib qol-gan ko'zlariga qarab, vaziyatni fahmladi va qizaloq-ning qo'rquvini bartaraf qildi.

— Menden cho'chima! — dedi u ishonchli ohang-da. — Aksincha, men bilan suhbatlash, sababini bil-madim-u, lekin sen bilan rosa miriqib gaplashgim kel-yapti.

Shu asno u qizning qiyofasida o'ziga nisbatan sa-mimiylilik, ilig'lik uyg'onganini ilg'adi. «Azizlangan taqdirning istar-istamay ro'shnolik istashi, — dedi u. So'ng nadomat chekdi: «Eh, nega men yozuvchi bo'lib tug'ilmadim-a? Qanday mavzu menga mahtal bo'lib turibdi axir!»

— Qani, menga quloq sol, Assol, — qiz bilan muloqotini xotimalashga kirishdi qariya. — Men yaqinda sening qishlog'ingda bo'ldim. Bilishim-chá, sen Kapernaga ketyapsan. Men qo'shiq, lapar va ertaklarni xush ko'raman. Shuning uchun qish-



log‘ingda uzzu-kun o‘tirib, hali hech kim aytmagan yangi biror nima eshitish ishtiyoyqida bo‘ldim. Ammo sen o‘sib-ulg‘aygan qishloqda hech kim ertak aytmas ekan. Biror-bir kishining qo‘sinq kuylaganini eshitmadim. Mabodo aytganda ham, kimni vasf etishlarini bilasanmi? Ular mug‘ombir odamchalar va askarlar madh etilgan voqealardan iborat to‘rtliklar bo‘lib, bu to‘rtliklarda yomon odatlar, bezoriliklar ko‘kka ko‘tarilib vaqtaladi. Agar bilsang, ularning qo‘sinqlari yuvilmagan oyoqdek isqirt; qorinning quldirashi kabi yoqimsiz... To‘xta, men chalkashib ketdim! Hozir, aytmoqchi bo‘lgan gaplarimni yana boshidan boshlayman. Takrorlayman. — Egil bir muddat jum qoldi-da, so‘ng gap boshladи: — Tingla, oradan yana qancha vaqt o‘tadi bilmadim-u, ammo sening qishlog‘ing Kapernada mangu o‘lmas bir ertak to‘qiladi. U uzoq vaqt odamlarning yodida saqlanadi. Oғ‘izdan og‘izga ko‘chib yuradi. Unda sen ulg‘ayib, balog‘at fasliga qadam qo‘ygan bo‘lasan. Bir kuni ertalab dengiz bag‘rida, ufqqa tutash tomondan alvon yelkanli kemalar ko‘zga tashlanadi. Boshi uzra mash’ala ko‘targan oppoq kemalar to‘lqinlar bag‘rini yorib, sohilga — sen turgan tomonga oshiqadi. Kemalar juda sokin suzib keladi. Baqir-chaqirlarsiz, o‘q otmay, xotirjam yaqinlashadi.

Sohilda tumonat odam to‘planadi. Ular hayrat va hayajon ichida oh uradilar, o‘rtanadilar. Sen esa



ulardan bir necha qadam oldinda turasan. Ulug'vor salobatli bu kema qirg'oqqa yaqin kelib to'xtaydi: undan borliqqa sho'x-shodon musiqa navolari tara-ladi; palubasiga chiroyli gilamlar yozilgan, go'yo aziz bir mehmon uchun poyondoz to'shalgandek... Tilla-rang gullar bilan bezalgan bir qayiq undan ajralib, qirg'oqqa suzadi. «Sizlar kimsizlar? Nega bu yoqqa suzib kelmoqdasiz? Kimni axtarib kelyapsiz, sizga kim kerak? — deya qirg'oqda to'plangan olomon ularni so'roqlay boshlaydi. Shunda sening ko'zing qayiqda tik turib kelayotgan xushbichim, mard va tanti bir yigitga, seni axtarib kelayotgan shahzodaga tushadi. U sening qarshingga kelib, qo'l cho'zadi: «Salom, Assol! — deydi u. — Bu yerlardan uzoqda seni tush ko'rdim va o'z sultanatimga olib ketish uchun oldingga keldim. Sen endi men bilan chinnigullar mamlakatida yashaysan. Nimani istasang muhayyo qilaman. Endi sening hamma narsang bo'ladi; biz sen bilan ahil yashaymiz, bundan buyon qalbing g'am-g'ussa ko'rmaydi, ko'zlaring yoshtanmaydi». U seni qayig'iga chiqaradi va kemaga olib boradi. Sen manguga bu joylarni tark etib, uning baxtiyor mamlakatiga ketasan. O'sha on Quyosh seni qutlash uchun ufqdan bosh ko'taradi, tashrifingni qutlab, osmondan yulduzlar yog'iladi.

— Bularning hammasi men haqimdam? — ohista ovoz chiqardi qizcha. Uning jiddiylashgan ko'zları yashnab, ishonch bilan quvnay boshlagandi. Sehrgar





deganicha bor ekan. Qiz ohista yurib, unga yaqinlashdi.

— Ehtimol, u kelib bo‘lgandir? O‘sha kema...

— Yo‘q, bu voqeanning sodir bo‘lishiga hali ancha bor. Aytganimdek, hali sen o‘sib-ulg‘ayib, katta qiz bo‘lasan. Keyin bularning bari sodir bo‘ladi. O‘shanda sen qanday yo‘l tutasan?

— Menmi? — qiz shoshgancha savatiga qaradi. Ammo unda shahzodaga hadya qilishga arzirli biror narsa ko‘rinmadni. Shunda darhol xayoliga boshqa fikr keldi: «Men uni sevardim, jonimdan ortiq!» — deb javob qildi va keyin qo‘sib qo‘ydi: «Agar mushtumzo‘r bo‘lmasa, albatta».

— Yo‘q, yo‘q u hech kim bilan huda-behuda mushtlashmaydi, — deya o‘zi yaratgan shahzoda obruzini yoqladi sehrgar. — Bunga men shaxsan kafilman. Endi esa boraqol, qizim, aytganlarimni zinhor unutma. Dunyo sening boshingga toj bo‘lib insin ilohim!

Longren mo‘jaz tomorqasida kartoshka qatorlari orasiga ishlov berib turgandi, kimningdir oyoq tovushini eshitib boshini ko‘tardi. Assolga ko‘zi tushib, chehrasi yorishdi. U otasi tomonga quvonchlar quchog‘ida chopib kelayotgandi.

— Va nihoyat! — dedi u, halloslagan ko‘yi otasining peshxalatiga osilgudek bo‘lib nafasini roslarkan.

— Ota, bilasizmi, sizga nimani aytmoqchiman? Ana u yoqda, sohilda, bir sehrgar o‘tiribdi...



Assol gapni sehrgardan boshlab, uning bashorati haqidagi voqealarni labi-labiga tegmay gapirardi. Hovliqqanidan gaplari chalkashib, fikrlari tarqoq edi. U birda jahongashta sehrgarning ust-boshini ta'riflagan bo'lar, so'ng o'rmonda yelkanning ortidan qanday chogani haqida so'zlardi.

Longren qizini oxirigacha «miq» etmay tingladi. Biror-bir so'zining ustidan kulmadi. Gapini bo'lma-di. Assol hikoyasini tugatganida otasining tasavvurida sehrgarning taxminiy qiyofasi va bir qo'lida kosada sharob, birida o'yinchoq tutib turgan jussasi namoyon bo'ldi. Keksa dengizchi qizalog'ining hayajonli hikoyasini xayolot mahsuli degan o'yda e'tiborsiz qoldirmoqchi bo'ldi-yu, biroq bir narsa yodiga tushib, taqataq to'xtadi. Aytishlaricha, bolalarning hayotida ulkan o'zgarishlar yuz berishi kattalarning har bir narsaga jiddiy e'tibor qaratib, ularga ishonch bildirishi bilan bog'liq ekan. U mana shu gapga amal qilib:

— Mayli, barcha belgilariga qaraganda, u sehrgarga o'xshaydi. Uni men ham ko'rsam yanada ishonch hosil qillardim. Ammo, Assol, uni yana uchratib qolsang, yo'lingdan chalg'ima, o'rmonda adashib qolis-hing hech gap emas, — deya qiziga nasihat qildi. Bel-ni devorga suyab qo'yib, o'zi borib to'sinning pastki g'o'lasiga o'tirdi. Assolni odatdagidek tizzasiga oldi. Horib-tolgan qizaloq hali ham allanimalarni bidirlab, yangidan-yangi tafsilotlarni so'zlash bilan ovvora edi.



Shu alfovza charchoq uni yengdi. Ko‘zлari yumilib, qattiq uyquga ketdi. Qovoqlari og‘irlashib, boshini otasining keng yag‘riniga qo‘ygan qizaloq, birdan jondlandi. Ko‘zлari yumuq holda allanechuk shaxt bilan otasining kaftini g‘ijimlab, so‘radi:

— Siz nima deb o‘ylaysiz, sehrli kemaning kelishi haqiqatmi? U rostdan ham meni yo‘qlab kelarmikan?

— Keladi, albatta, — ohista javob qildi keksa dengizchi, — sehrgar aytgan bo‘lsa, shubha yo‘q, sehrli kema keladi!

«Ulg‘ayib borgani sari bu xayollarni unutadi», — o‘yladi Longren, — hozircha uni mana shu ovunchog‘idan ayirmagan ma’qul. Bu hayotda hali ko‘p kemalarni ko‘rasan: alvon yelkanlar ham bo‘ladi ularning orasida yolg‘onlari ham; falon-falochilarini ham uchratasan, talonchilarini ham; uzoqdan turfa ranglarda jilolangan — maftunkor, yaqindan, turfa ranglar chaplangan — sitamkor kemalarni-da». Longren mana shunday kechinmalar girdobida og‘ir xo‘rsindi. Keyin: «O‘tkinchi bir kishi, qizimga beozor hazil qilibdi, nachora?! Yaxshilikka bo‘la qolsin! — deya qizning boshini silab qo‘ydi: — Dunyoga hamisha shu taxlitda boq. Alvon yelkanlar masalasida menga tayan, qancha xohlasang, shuncha hozirlab beraman!»

Assol uzoq uxladi. Longren esa bo‘sн qo‘li bilan mushtugini olib tutatdi. Mayin esayotan shabboda tamaki tutunini tomorqaning etagida o‘sgan ekinlar ora-



lab uzoqlarga olib ketdi. O'sha yerda qo'lidagi yegulikni yutoqqancha chaynab o'tirgan bir yo'qsil kishi ota va qizning suhbatidan voqif bo'lib, kinoyali kulib qo'ydi. Tamaki tutuni uning ishtahasini badtar qitiqladi:

— Xo'jayin, tamaking asil ekan. Menikining sifati past. Malol kelmasa, men faqirga biroz tamakingdan bersang savobga qolarding!

— Tamaki yon cho'ntagimda, uni olsam qizim uyg'onib qoladi, — past ovozda shivirladi ota. — To'g'risi, u shuqadar shirin uxlayaptiki, xalal bergim kelmayapti.

— Shuyam muammo bo'ldimi? Uyg'onsa yana uxlab qoladi-ku! — notanish o'zining tamakisini oldi-da qog'ozga o'rav, tutatdi.

— Harnechuk tamaking bor ekan-ku? Qizaloq orom olyapti, charchagan. Istanasang, keyinroq kel.

Yo'lovchi nafratomuz bir chekkaga tupurdi-da, safar xaltasini tayoqqa ilib, yelkasiga oldi. Alamidan Longrenga zardali gap qotdi: «Voy lanatiyey, «malika» uxlayapti, naqadar kulgili! Sen uning boshini bo'lar-bo'lmas safsatalar bilan to'ldirib tashlagansan. Notavonligingdan shu taxlit ovunmoqchi bo'lasan!

— Menga qara, — darg'azab shivirladi Longren.

— Mabodo seni deb qizim uyg'onadigan bo'lsa, aytilib qo'yay, bu senga qimmatga tushadi. Vaqt borida qorangni o'chir!



Oradan yarim soatlar o'tib, qahvaxonada bir guruh baliqchilar davrasida o'tirgan o'sha yo'lovchi bar-chani og'ziga qaratib, sannab turardi. Orqa qatorda bir guruh bo'lib o'tirgan ayollar kezi kelganda erlarini turkilab, kamroq ichishga undasa, xonasi kelganda erkaklarning yelkasi osha uzatilgan sharob to'ldirilgan jomlarni sipqorib, qulqlarini qashshoq yo'lovchining to'qimalariga ding qilishardi.

Yo'lovchi jazavaga tushib, boyagina guvoхи bo'lган voqeани so'zlardi: «Qurumsoq, bir chimdim tamakini ayadi mendan. Qizining uyqusini qizg'andi yaramas. Nima emish, oradan yillar o'tib, o'sha «malika»ni yo'qlab alvon yelkanli kemalar kelarkan. Buni qandaydir bir daydi sehrgar bashorat qilganmish. Shahzodaga turmushga chiqish qizaloqning manglayiga yo-zilganmish. Odam ham shu qadar ovsar bo'ladimi? Ko'rpasiga qarab oyoq uzatmaydimi, tavba! O'sha sehrgarga ishon, deb uqdiryapti norasida qizalog'iga...

— Kim?

— Nima?

— Gap nima haqda? — deya baliqchi xotinlar badtar bozor qizitardi. Erkaklar bazo'r ortlariga o'girilib, o'zları uqqan gaplarni kinoyали tarzda xotinlar bilan bo'lishhardi:

— Longrenni aytyapti? Butkul esdan og'ib qolibdi. Qizini ham savdoyi qilib qo'ygan chaması. «Uyimizga sehrgar kelib, kelajagimizni bashorat qildi», deb



da'vo qilayotgan mish. Ota-bola bir bo'lib, ertakdag'i shahzoda alvon yelkanlar bilan yo'qlab kelishini kuti-shayotgan mish!..

Oradan uch kun o'tib, shahar savdo rastasidan qaytayotgan Assol odamlarning malomat o'qiga nishon bo'ldi: «Ey, ovsar qiz, Assol! Ana u yoqqa qara-chi, qandaydir kemalar suzib kelyapti, alvon yelkanlar emasmikan?!

Assolni tuyqus hayajon bosdi. U beixtiyor aytilgan tomonga qarab, bo'shliqni ko'rди — kalaka qilishayotganini angladi. So'ng asabiy holatda ovoz chiqqan tomonga ko'z tikdi. Yigirma qadam narida bir guruh juldurvoqi bolalar tillarini chiqarib, uni mazax qilib turishardi. Uyatdan yuzlari duv qizarib ketgan Assol uyi tomon chopqillab ketdi.



## GREY

Agar Yuliy Sezar Rimda itning orqa oyog'i bo'lishdan ko'ra, o'zi tug'ilib o'sgan qishloqda birinchi bo'lishni ma'qul ko'rghan bo'lsa, Artur Grey uning oqilona qaroriga havas qilmasa ham bo'lardi. Boisi u kapitan oilasida tug'ildi, kapitan bo'lishni orzu qildi va oxir-oqibat shu maqsadiga yetdi.

Darhaqiqat, Grey badavlat xonadonda dunyoga keldi. Ammo bu xonodon tashqi tomondan ulug'vor qiyofa kasb etgani bilan, ichi buning tamoman aksi — usti yaltiroq, ichi qaltiroq edi. Xonodon egalari istiqomat qilayotgan uy misoli qasrga o'xshardi. Uning hovlisida bog' va oromgoh ko'zga tashlanardi. U yerda lolalarning turfa navlari: kumush rang; havo rang; siyoh rang va napormon hoshiyali qora tuslilar o'sib, bog' gullar bilan bezangandi. Go'yo yo'laklar atrofiga sarxil gul butalari sochilgandek edi. Bog'dagi keksa daraxtlar poyida oqayotgan suvning shildir-shildiridan orom olib, mizg'i yiotganga o'xshardi.

Qo'rg'onning himoya to'sini cho'yan ustunlardan iborat bo'lib, ular bir-biriga temir panjaralar bilan



biriktirilgandi. Har bir ustunning boshiga cho'yandan quyilgan lampalar ilingan, ular faqat tantanali kunlarda yoqib qo'yildi. Tunda ular mash'ala tutgan qo'riq-chilar kabi qator terilib, ajib manzara hosil qildi.

Greyning ota-onasi o'zlar mansub bo'lgan kiborlar jamiyatining tartib-qoidalariga, ularning manfaatlari ustuvor bo'lgan qonunlarga og'ishmay amal qiladigan, dunyoga ruju qo'ygan kishilar edi. Ular asrlar davomida kiborlar orasida e'tirof etib kelinadigan ajdodlariga munosib tarzda yashashga, o'zlariga mos aslzoda xonadonlar bilan oilaviy rishtalarni bog'lash orqali kelajak avlodni tarbiyalashga alohida e'tibor qaratishardi. Kichkintoy Grey bolaligidan mana shu majburiyat iskanjasiga mahkum bo'lib, u avvaldan belgilangan jadval asosida yashashi, vafot etganidan so'ng portreti ajdodlari portreti joylashgan galereyadan munosib o'rinnegallashi shartligini yaxshi bilardi. Xullas, bu — oilasining sha'niga dog' tushirmaslik sharti edi. Avlodlar estafetasida bu safar xatolik yuz bergandi: Artur Grey yonib turgan qalb bilan tug'ilgandi, o'ziga vaqt kelib haykal qo'yishlari uchun jonsiz haykaldek yashashga hislari yo'l bermasdi.

Mana shu qarashlar, eskirgan an'analarga ayricha munosabat alomatlari bolakay sakkiz yoshga to'lgan chog'i bo'y ko'rsata boshladidi. Bir kuni u Iso Masihning chorcho'pga mixlangan tasviri aks ettirilgan surat poyidagi kursiga chiqib, uning qontalash kaftidan



mixni sug‘urib olmoqchi bo‘ldi. Shu yo‘l bilan uning azob va uqubatini bir nav yengillatmoqchi edi. Asli-da, bu sarguzasht shaydosi bo‘lgan yigitchaning ritsar-larga xos dovyurakligi edi. Mixni sug‘urish imkonini topmagach, bo‘yoqchining ustaxonasidan yashirincha olib chiqqan bo‘yoq bilan suratdagi qontalash joylarni bo‘yab tashladi. U surat shu holatda kishiga taskin beradi, degan fikrda edi. Endi boshlab qo‘yanishini oxiriga yetkazishi, Isoning qontalash oyog‘ini zanjirdan xalos etishi lozim. Ayni shu palla u qo‘lga tushdi. Otasi uning qulog‘idan cho‘zib, kursidan tushirib oldi va so‘roqqa tutdi:

- Sen nega suratni bulg‘ading?
- Men, aksincha, uni tuzatdim!
- Axir bu mashhur rassomning ijodi-ku?
- Buning menga ahamiyati yo‘q! — dedi Grey o‘z qarorida qat‘iy qolib. — Men asrlar osha Iso Masi-hning qo‘lidan qon sizib oqishiga befarq qarab turol-mayman. Men buni istamayman.

O‘g‘lining javobi Lionel Greyga xush yoqdi. Ammo quyuq soqoli orasidan ko‘ringan tabassumini sezdir-madi. O‘g‘lini jazolash fikridan qaytdi, xolos.

Bolakay qo‘rg‘onni sinchiklab o‘rgandi, o‘zi uchun kutilmagan, hayratlanarli yangiliklarni «kashf» qil-di. Masalan, chordoqda po‘latdan yasalgan ritserlar korjomasini topdi. Shuningdek, metall va teriga ishlov berib tayyorlangan kitoblarni qo‘lga kiritdi. Bundan



tashqari, eskirgan kiyim-kechaklar, kabutarlarning qo‘nalg‘asi ham «topilma»lari orasidan joy oldi. Vino saqlashga mo‘ljallangan xonada lafit, mader, xeresa haqida qiziqarli ma’lumotlarga ega bo‘ldi. ayniqsa, uchburchak shaklidagi toshlardan yasalgan derazali qorong‘i xona bolakayga qiziqish uyg‘otdi. U yerda katta-kichik bochkalar terib qo‘yilgandi. Ularning eng kattasi yapasqi doira shaklida bo‘lib, u xonaning ko‘ndalang qismini yaxlit egallagandi. Yuz yillik dub daraxtidan yasalgan bu bochkaga juda silliq qilib ishlov berilgandi. Bochkalar orasida xivichdan to‘qilgan savatlar bo‘lib, ularda ko‘k va yashil rangdagi xo‘ppa semiz shisha idishlar terilgandi. Xonaning devori va ostiga to‘shalgan g‘isht yoriqlaridan tanasi ingichka, malla rang qo‘ziqorinlar potirlab o‘sib yotardi. Hamma yoqni mog‘or bosgan, zax hidi tutgandi. Xonaning bir burchagini ulkan o‘rgimchak uyasi qoplagan, u botib borayotgan Quyoshning so‘nggi nurlarida ji-mirlab turardi. Xananinng sahnida ikki bochka sarxil Alikante vinosi ko‘milgan bo‘lib, bunaqa o‘tkir vinoni iste’mol qilish faqat Kromvel davrida rasm bo‘lgan. Greyga yo‘lboshlovchilik qilib kelayotgan vino saqlanadigan xonaning ish boshqaruvchisi uning e’tiborini bo‘m-bo‘sh burchakka qaratdi. Unda qappaygan qabr bo‘rtib turar, qabrga foksterlarning haykalidan ham jonliroq mayit qo‘yilgandi. U o‘tmish haqida hikoya qilarkan, katta bochkaning jo‘mragi ishlaydimi,



yo‘qmi — tekshirib ko‘rdi. Qoniqish hosil qilgach, undan nari ketdi.

— Mana, muhim masala qayerda? — dedi Pol-dishok taxta qutulardan biriga o‘tirib, uning qirrasi-ga tamakidonini qoqarkan: — Bu joyni esingda tut! Unda shunaqa sharob saqlanadiki, ichishga mukkasi-dan ketgan har qanday shinavandada bir stakan qu-yib bersang, jonini berishga ham tayyor bo‘lib qoladi. Har bir bochkada yuz litr suyuqlik saqlanadi. Uning bir qultumi yuragingni junbushga keltiradi, tanangga mislsiz quvvat baxsh etadi. Uning rangi qora olxo‘ri-nikidan ham to‘qroq, shishadan tommaydi. U qoyil-maqom shinnidan-da quyuqroq. Qora bochkalarda metindek mustahkam saqlanadi. Bochkalarning beli-ga qizil rangli kumushdan tasma bog‘langan. Ularda lotincha yozuv bilan: «Meni Grey jannatga tushgan chog‘i ichadi» degan satrlar bitilgan. Bu bitiklar turli xil talqin qilingan. Aytishlaricha, sening oqsuyak bo-bong Simeon Grey mana shu dala hovlini barpo etib, uni «Jannat» deb nomlagan. Oqil odam bo‘lgan, shu ishi bilan jannat tushunchasini mavhumlikdan moddi-yatga ko‘chirgan. Biroq u qanday zavol topganini bi-lasanmi? Bochkalarning belbog‘ini yecha boshlaganida yuragi yorilib o‘lgan, aftidan qariya juda hayajonlan-gan. O‘sandan beri bu bochkalar baxtsizlik keltiradi, degan aqida bilan shu yerda saqlanadi. Aytish joyizki, misr sfinksi ham bunday jumboqqa duch kelmagan.



To‘g‘ri, u bir donishmanddan: «Boshqalarni yam-lamay yutganim kabi seni ham yeymanmi? Javobini aytsang tirik qolasan», — deb so‘ragan. Lekin bu ham oqil odamning mushohadasi... Aftidan, yana sharob tomchilayapti, jo‘mrakka qarab qo‘yay-chi, — deya u o‘z so‘zini o‘zi kesdi. Keyin burchakka o‘tdi-da, jo‘mrakni mahkam berkitib, ortiga qaytdi. Yuzi yorishib, uzilib qolgan so‘zni davom ettirishga kirishdi: — Ha, donishmand teran fikrlab, muhimi hovliqmasdan sfinksga: «Yur, akang qarag‘ay, o‘sha zormandaladan «yuz-yuz» ichib bu bemaniliklardan birato‘la qutulasan», deb javob qilishi mumkin edi. «Meni Grey jannatga tushgan chog‘i ichadi!» Bu nima degani? Vafot etganda ichadi, deganimi? Qi-ziq. Ochig‘i, donishmand avliyo kishi: bir qultum sharob ham, mast qiluvchi boshqa ichimlikni ham og‘ziga olmaydi. Deylik, jannat deganlari baxtni, sao-datni ifoda etadi. Basharti, masala shu taxlit qo‘yila-digan bo‘lsa, baxtiyor kishi o‘zini o‘zi shu baxtmi, deb so‘roqqa tutgan palla, har qanday baxt tushun-chasi yarim salohiyatini yo‘qotadi. Mana gap qayerda. Chin yurakdan mana bu bochkadagi suyuqlikdan ichish, samimi tabassum qilish uchun kishining bir oyog‘i yerda, ikkinchisi ko‘kda bo‘lishi kerak. Bundan tashqari, yana boshqa talqin ham mavjud: Grey surmacha-siga siqqanidan ortig‘ini ichib, bochkani bo‘shtsa, ilohiy huzur kayfiyatini his etadi. Biroq



bu bashoratning ro'yobga chiqishi emas, bolajonim, balki oddiygina bezorilikdan boshqa narsa bo'lmaydi.

Bochkaning jo'mragini yana bir bor tekshirib ko'rib, uning mahkam ekaniga ishonch hosil qilgan Poldishok e'tiborini bir nuqtaga jamlab, tushkun kayfiyatda so'ziga xotima yasadi:

— Bu bochkalarни ajdoding Jon Grey 1793 yil Lis-sabondan «Bigl» degan kemaga ortib, olib kelgan. Sharob uchun u ikki ming tilla tanga to'lagan. Bochkaning belbog'idagi bitiklarni pondisherlik quroloz usta Veniamin Elyan o'yib yozgan. Bochkalar uch fut chuqurlikdagi o'raga ko'milgan. O'raga uzum takoslari tashlangan. Bu sharobni hech kim tatib ko'rмаган va tatib ko'rmaydi ham.

Bu gaplarni diqqat bilan tinglagan Grey bir kuni:

— Men bu sharobni ichaman, — dedi dabdurust oyoq tirab.

— Mana bu haqiqiy jasorat, yigitcha! — luqma tashladi Poldishok.

Grey bir muddat barmoqlarini bukib, yozib turdi-da, so'ng bu o'yindan ko'ngli to'lib, Poldishokni ortda qoldirib, yerto'lanning zinasidan yuqoriga qarab chiqib ketdi...

Oshxonaga kirish Greyga qat'iy taqiqlangandi. Ammo unga bu joy rosa qiziqarli edi. O'choqlarda gurillab olov yonib turishi; qozonlardan bug' ko'tarilib, suyuqliklarning «bilq-bilq» etib qaynashi; pi-



choqlarning chaq-chuqi va taomlarning yoqimli hidи – bularning barchasi unga ajib bir kayfiyat baxsh etar, shundan u bot-bot shu xonaga mo‘ralab turardi. Bunda davang oshpazlar jimgina o‘z yumushlari bilan mashg‘ul; ularning oppoq qalpoqlari sarg‘ish tusga kirgan devorda aks etar, bochkalar uzra xo‘ppa semiz xodimlar idish-tovoqlarni yuvishar; chinni va kumush idishlardan taralayotgan jarangdor tovushlar qulooqqa xush yoqardi. O‘spirin bolalar baliq, ustritsa va qisqichbaqalar bilan to‘la savatlarni bukchayib tashib turishardi. Ayniqsa, uzun stol ustida fazan baliqlari, qator terib qo‘yilgan o‘rdak, pati yulib tozalangan tovuqlar, devordagi tokchalardagi sholg‘om, karam, yong‘oq, uzum, turshak va boshqa yeguliklar ham bolakayning zavqini oshirardi.

Oshxonada Grey biroz o‘ng‘aysizlanardi: unga bu joyni qandaydir qora kuchlar boshqaradigandek tuyular, uni qo‘rg‘onning boshqaruvi jilovi tutib turgandek, turli tovushlar hukm kabi yangrar, qarg‘ishga o‘xshardi. Greyning bo‘yi hali eng baland qozonga bo‘ylash uchun yetarli darajada baland emasdi. U xuddi Vezuviy vulqoni kabi qaynar, shundan unga nisbatan hurmati baland edi. Kichik Grey qozonni kovlab turgan ikki xodimaning xatti-harakatini ishtiyoq bilan tomosha qilar, pech ustida bug‘dan hosil bo‘lgan ko‘pik har tomonga sachralib, issiqliidan chinqirayotgan pechdan ko‘tarilayotgan bug‘ to‘lqini tuman kabi oshxonani



qoplagandi. Shu payt qaynab sachrayotgan suyuqlik dastyor qizning qo'lini kuydirdi. Terisi zumda qizg'ish tus oldi. Hatto tirnoqlari ham qon quyilishidan qizarib ketdi. Betsi (uni shu nom bilan chaqirishardi) yig'lamsirab, qo'lining kuygan joylariga moy surkardи. Yumaloq yuziga ko'z yoshlari tinimsiz quyulardi.

Grey tosh qotdi. Boshqa ayollar hamdardlik bilan Betsining boshida parvona bo'lgan chog' u o'ziga no-tanish bo'lgan bir og'riqni his qildi.

— Juda og'riyaptimi? — so'radi u qizdan.

— Qo'lingni kuydirib ko'r, bilasan, — javob qildi Betsi, peshbandi bilan qo'lini yashirib.

Bolakay qoshini chimirib, kursiga chiqdi-da, uzun qoshiq bilan qaynab turgan taomni kovladi(darvoqe, bu qo'y go'shtidan qaynatilayotgan sho'rva edi) va barmoqlarini unga botirdi. Kuchli og'riq his qildi. Yuzi undek oqarib ketgan Grey, kuygan qo'lini shi-mining cho'ntagiga tiqqancha, Betsining yoniga ke-lib, dedi:

— Kuyikning zahmi og'riqli bo'ladi, nechog'li dard chekayotganiningni his qilib turibman, — dedi u kuyish azobini o'zida sinab ko'rgani haqida lom-mim demay.

— Yur, tezroq tabibga ko'rinishing kerak!

Qizning atrofidagilar uy sharoitida og'riqni bosa-digan vositalarni tiqishtirarkan, Grey uning etagidan tutib, shifokorning huzuriga borishga undardi. Qiz qo'lidagi og'riq bosilavermagach, axiyri rozi bo'ldi.



Shifokor uning qo‘liga og‘riq qoldiruvchi malham surib bog‘lagandan so‘nggina yengil tortdi. Qiz do‘x-tirning xonasini tark etgach, Grey o‘zining kuygan barmog‘iga ham muolaja oldi. Mana shu arzimagan bir voqeа tufayli o‘n yoshli Grey bilan yoshi yigirma-dan oshgan Betsi o‘rtasida do‘stona munosabat paydo bo‘ldi. Qiz tez-tez uni shirinliklar, meva-chevalar bilan siylar, Grey bo‘lsa unga o‘zi o‘qigan kitoblardan qiziq voqealarni hikoya qilib berardi.

Bir kuni u Betsining yana bir muammosidan voqif bo‘ldi: kamchiqim ekanidan otboqar Jimga turmushga chiqolmayotganidan xabar topdi. Axir alohida yashashlari uchun biroz sarmoyalari bo‘lishi kerak-da. Grey buning ham yo‘lini topdi. U chinni idishda jamg‘arib yuradigan pullarini hisoblab ko‘rdi: oz emas, ko‘p emas, yuz funt to‘plangan ekan. Ertalab, Betsi oshxonaga ketgan payti sekin uning xonasiga kirib, hadya qilingan pulni qizning sandiqchasiga solib qo‘ydi. Anglashilmovchilik bo‘lmasin deb, bir parcha xat ham qoldirdi. Unda: «Betsi, bu pullar senga tegishli. Hurmat bilan qaroqchilar boshlig‘i Robin Gud», deb yozilgandi.

Mana shu voqeа sabab oshxonada yaxshigina g‘ala-g‘ovur boshlandi. Bu notinchlik oshxonadan oshib butun qo‘rg‘onga tarqaldi. Nihoyat, Grey bu ishni o‘zi qilganini tan oldi. Ammo pulni qaytarib olmadи. Bu mavzuda ortiq gap ochilishini ham istamadi.



Greyning onasi hayotda qanday bo'lsa shunday yashaydiganlar xilidan edi. U har jihatdan to'kis oilada ulg'aydi, xuddi shunday istaganini muhayyo qiladigan kishiga turmushga chiqdi. Yegani oldida, yemagani ortida edi. Shundan bu hayotda uning tashvishi deyarli yo'q edi. Kundalik yumushlari, asosan, tikuvchi ayollar bilan biror-bir libos haqida maslahatlashish, do'xtirning qabulida bo'lish va uy xizmatchilar bilan shug'ullanishdangina iborat edi. Ammo shu kunlarda uni bir muammo qiynayotgandi: o'g'li Greyning o'z-gacha dunyoqarash bilan ulg'ayayotgani.

Bu oqbilak xonim oqqushning tuxumini ochgan tovusga o'xshardi. U o'g'lining bir necha asrlik oilaviy an'analarga bepisandlik bilan qarayotganidan qattiq ranjirdi. Bu ayolning qalbi va nigohlari hayotning o'tli chaqiriqlariga muz yanglig' sovuqqonlik bilan javob qaytarishga-da qodir edi. Uning go'zalligi, ayollarga xos jozibasini sovuq nigohlari-yu qahri qattiqligi parda tortib turardi. Ammo Lilian Grey o'g'li bilan tanho qolgan kezlari oddiy ayolga aylanib qolar, so'zlaridan muhabbatga to'la samimiylilik ufirib turardi. Shu bois u o'g'lining talablarini keskin rad qilishga ojiz edi. Bolasining barcha sho'xliklari: oshxonadagi oliyjanobligi-yu darslardan bosh tortib, ko'po vaqtini sharoblar saqlanadigan xonada, ajdodlaridan qolgan afsonalarni tinglash bilan o'tkazishlarini kechirib yuborardi.

Mabodo Grey daraxtlarni kesilishini istamasa, daraxtlarga hech kim tegolmasdi; xizmatchilardan birining afv etilishi yoki rag‘batlantirishlarini xohlasa, istagi so‘zsiz ado etilar; xohlagan paytida istagan otida sayr qila olar; hatto daydi itlarni qo‘rg‘onga kiritib, ularga g‘amxo‘rlik qilishiga hech kim monelik qilolmasdi. Kutubxonada soatlab qolib ketar, oyoqyalang yugurib, ko‘ngli tusagan narsani tanovul qilardi. Bularning barchasiga onasining sharofati bilan erishardi.

Shunday paytlar bo‘ldiki, bolakayning otasi uning mana shu erkinligiga qarshi kurashdi. Keyin, o‘z holiga tashlab qo‘ydi. Boshqa bir vajdan emas, xotining xohishiga qarshi borolmaganidan, albatta. Faqat qo‘rg‘ondan xizmatchi va xodimlarning bolalarini uzoqlashtirish bilangina kifoyalandi. O‘g‘li ularning ta’sirida bebosh bo‘lib o‘sishidan cho‘chirdi, haytovur shu tashvishdan qutuldi.

Umuman olganda, Lionel Greyning asosiy vaqt davlat ishlari, mol-mulk bilan bog‘liq masalalar, yodnomalarni yozdirish, ovga chiqish, gazeta o‘qish va boshqa masalalr bilan o‘tar, bu esa uni oila hayotidan chetlatib qo‘ygandi. Hatto o‘g‘li Artur Grey bilan shunchalar kam ko‘rishardiki, uning necha yoshda ekanini ba’zan unutib ham qo‘yardi.

Shu taxlit kichik Grey o‘z olamida yashardi. U deyarli tanho o‘zi o‘ynardi. Odatda, orqa hovlidagi qadimiy jangovar ahamiyatga ega maydoncha uning



o‘yingohi bo‘lib, u juda keng, unda qachonlardir transheya tarzida qazilgan o‘ralar mavjud edi. Hozirda u qarovsiz holga kelib, o‘t-o‘lanlar, turli yovvoyi gullar bilan qoplanguandi. Grey soatlab ana shu maydonchada qolib ketardi. Har bir burchakni ko‘zdan kechirar, o‘tmishdan qolgan buyumlarni «tadqiq» qilar, maydonni yovvoyi tikanaklardan tozalar, g‘isht parchalari dan mudofaa to‘silalar bunyod etib, keyin ularni tayoq bilan yakson etardi.

\* \* \*

Ma’lumki, kapitan zimmasiga jamoaning har bir xatti-harakati va vazifalari ustidan boshqaruv vokolati yuklatiladi. U kemaning taqdiri, yuragi sanaladi. Jamoaning qandayligi kapitaning boshqaruv mahorati bilan belgilanadi. Dengizchilardagi ishchanlik kayfiyat, ularning har qanday mashaqqatlarni yenga olish, murakkab vaziyatlardan chiqib ketish layoqati — bularning barchasi uning tajribasi va mahoratiga bog‘liq. Kapitan Gop ana shunday sifatlarga ega edi. Jamoani shaxsan o‘zi saralab olgan dengizchilar bilan tashkil qildi, shundan jamoaning har bir a’zosi uchun uning so‘zi qonun edi. Matroslar uni anglashlari uchun birgina ishoraning o‘zi kifoya edi. U har bir xizmat-chining qiziqishi, o‘y-xayollari, oilaviy ahvolini besh qo‘ldek bilardi. Qo‘l ostidagilari uni ilohiy ilm egasi deb bilishardi, unga ishonishardi, shuning uchun ham



jamoaning safarlari maroqli va samarali o'tardi. Kapitan murakab vaziyatlarda vujudga keladigan qarama-qarshiliklarni oqillik bilan bartaraf etar, suzishda, to'xtash yoki bandargohni tark etish, yukni ortish yoki tushirishda, ta'mirlash ishlarini tashkil etish yoxud ishchilarga dam berishda puxta reja asosida ish olib bordi. Uning boshqaruv tizimini mukammallik bobida Orfeyning boshqaruv tizimiga qiyoslash mumkin edi.

Bir yil mobaynida «Anselm» kemasi Fransiya, Amerika va Ispaniya sohillariga safar qildi. Kema kapitani Gop juda ko'p pul orttirdi. Ammo bu pullarini foydali narsalarga sarflamadi. U pishiriqlar tashish evaziga ortirgan bisotining yarmini o'tmish bo'lib qolgan ba'zi ermaklariga, bugun va kelajakka atalgan qismini esa qimorga yutqazdi. Kapitan betakror den-gizchi bo'lishni istar, o'zini dengiz maxluqi kabi tutardi. Ichkilik masalasida «yotib qolguncha otib qol» naqliga amal qilar, nafas olmay bir necha litr sharobni bir ko'tarishda sioqorardi. Cho'milganda, juda baland joydan suvga kalla tashlashini ko'rghan odamning yuragi muzlab qolardi. U shu alfozda asta-sekin hamma narsasini yo'qotib bordi. Faqat birgina uchqur qalbi avval qanday bo'lsa, hozir ham o'sha o'ktam holida qoldi. U ojizlik degan tushunchani butkul unutdi, tashqi ko'rinishi ham o'zgardi: keng yelkalari, metindek mustahkam muskullari, Quyoshda qoraygan tansasi, o'ziga bo'lgan ishonchi va qat'iyati, bilaklarida



paydo bo'lgan kuch-quvvati, olovdek chaqnagan ni-gohlari endi uning ilgaridagidek erka va o'yinqaroq emas, balki bosiq, vazmin, har bir ishni o'ylab bajara-digan mas'uliyatli inson bo'lganini anglatardi.

Aslzoda oilada ulg'aygan Artur Grey bolaligidagi kapitan bo'lish orzusi sari ilk qadamlarni «Anselm» bilan boshladi. Kapitan Gop Greyni kemasiga dastlab, shunchaki, havaskor dengizchi sifatida qabul qilgandi. Boisi bu oqbilak yigitchaning kemada ishlab qolishiga ishonmasdi. Bolaning ishtiyoqini uning yoshidagi bolalarning barisida bo'lganidek o'tkinchi ermak, havas deb bildi. U hademay Greyning boshqa «qo'shiq»ni xirgoyi qilishini kutardi. Bu qo'shiqning matni unga oldindan ma'lum edi: «Kapitan Gop, tirnoqlarim qonadi; arqonlarga sirg'alganimdan kaftim shilindi; biqinim sanchyapti, yelkamda og'riq paydo bo'ldi; bo-shim aylanyapti; oyoqlarim qaltirayapti. Bas, to'ydin, onamni sog'indim, uyga ketaman!»

Xayolan Greydan mana shu iqrorni tinglagan ka-pitan Gop unga atab javob so'zlarini tayyorlab qo'y-gandi:

— Qayoqqa xohlasangiz, marhamat ketavering, qushcham, ixtiyorингиз. Mabodo qanotingizга smola moyi tekkan bo'lsa, uni uyingizда «Roza-Mimoza»odekaloni bilan tozalashni maslahat beraman.

Aslida, bunday odekalon mavjud emas, uni kapi-tanning o'zi o'ylab topgan, unga o'zi shunday nom



bergandi. У xayolan Greyga atalgan nasihatomuz, to‘g‘rirog‘i, haqoratomuz so‘zlarini yakunlar ekan, oxirgi jumlalarini ovoz chiqarib aytdi: «Boring, bora qoling, «Roza-Mimoza» sizga mushtoql!»

Shu orada kapitanning miyasiga ta’sirchan dialog matni tug‘ilib, yangidan-yangi jumlalar quyilib kelayotgan damda Grey tishini-tishiga bosib, yuzidan qoni qochib, asta-sekin maqsadi sari ilgarilab borardi. У qat’iy bir iroda bilan tinimsiz mehnat va undagi mashaqqatlarga dosh berib kelardi. Borgan sari u kapitan o‘ylaganidek norozi qiyoфada emas, balki o‘z ishidan mamnun suratda zimmasiga yuklatilgan vazifalarni uddalar, mashaqqatli yumushlar uning uchun kundalik odatiy ishga aylanib borayotgandi.

Grey mashaqqatli sinovlarni boshidan o‘tkazdi, ammo nolimadi. Bir gal yakor zanjirining bog‘ichi uni oyog‘idan chalib yiqitdi, palubaga qulay turib arqonni qo‘lidan chiqarib yubordi, arqon uning kaftini sidirib, terisini shilib ketdi. Shamol parusning bir uchi bilan uning yuziga zarba berdi — xullas, barcha yumushlar shunday mashaqqatdan iborat bo‘lib, ularga duchor bo‘lmaslikning yagona yo‘li — har bir narsaga e’tiborli bo‘lish edi. Yelkasini zo‘rg‘a tiklab, nafas olishga qiynalgan chog‘ida ham uning yuzida norozilik alomati sezilmasdi. У dengizchilarning zaharxanda kulgilriga, og‘zidan bodi kirib, shodi chiqib so‘kinishlariга, haqoratlariga sabr bilan chidardi. Bu toki kapitan



Gop, nihoyat, unga ishonch bildirib, qo‘lini mahkam siqqancha: «Endi biz birgamiz!» degan jumlanı aytmaguncha davom etdi. Ana shu kundan boshlab Grey har qanday asossiz haqoratga mushti bilan yaxshigina javob qaytaradigan bo‘ldi.

Kunlardan bir kuni kapitan Gopning nigohi parusning arqonlarini mohirlik bilan bog‘layotgan Greyga tushdi va o‘ziga-o‘zi dedi: «G‘alaba sen tomonga suzib kelyapti!» Grey ishini bitirib, palubaga tushgan chog‘i kapitan uni kayutasiga chaqirdi-da, oldiga titilib ketgan bir kitobni oolib qo‘yib, shunday dedi: «Meni diqqat bilan eshit, chekishni tashla! Yugurdakni kapitan maqomiga tayyorlash jarayonini boshlaymiz».

Shundan so‘ng yigitcha dengizga oid qadimiy kitobni o‘qishni, to‘g‘rirog‘i, sohaga doir so‘zlarni qichqirib talaffuz qilishni boshladi. Bu uning birinchi darsi edi. Shunday qilib Grey yil davomida kemaning navigatsiyasi bilan tanishdi. Kemasozlik amaliyoti bilan mashg‘ul bo‘ldi. Dengiz qonunlari, lotsiya va hisobchilik tajribalarini o‘zlashtirdi. Kapitan Gop yana bir bor uning qo‘lini mahkam siqib: «Biz birgamiz!» dedi, endi uni tayyor bo‘lganiga ishora qilib.

Vankuverda Grey onasidan maktub oldi. Undan voldasining qalbini kemirayotgan hadik ufurib turar, sog‘inch ila to‘kkani ko‘z yoshlari qog‘oz sathida dog‘ bo‘lib qotgandi. U javob xati yo‘lladi: «Bilaman va sizni tushunaman, ona. Biroq menga mening ko‘zim



bilan qarashingizni istayman. Men haqimda, xuddiki men eshitgan singari eshitishingizni xohlayman. Suv quvurlariga qulqoq tuting, uning shovullashi dengizning abadiy mayjlanishiga o‘xshaydi. Agar meni sizni sevganimchalik sevganiningizda edi maktubingiz qatidan muhabbattingiz va chekdan tashqari, bir chimdim quvonchingizni-da topgan bo‘lardim...»

Shundan so‘ng Grey yana okean og‘ushida suzinda davom etdi. Bu jarayon «Anselm» kemasi yuk bilan Dubelt bandargohiga kelguniga qadar davom etdi. Bandargohda to‘xtash zarurati va kemaning bir muddat ushlanib qolishi munosabati bilan yigirma yoshni qarshilagan Grey o‘zi tug‘ilib o‘sgan qo‘rg‘onga borib kelishga imkon topdi. Hamma narsa avvalgi holida, bir qaragan kishiga hech narsa o‘zgarmagandek, besh yil oldin qanday bo‘lsa o‘sha holatida edi go‘yo. Ammo ekinlar quyuqlashib, daraxtlar ancha bo‘y cho‘zgandi.

Xizmatkorlar uni ko‘rib quvonib ketishdi. Birin-ketin yosh xo‘jayin bilan quchoqlashib ko‘rishishdi. Xuddi avvalgidek, amriga muntazir bo‘lib, odob saqlab turishardi. Unga onasi qayerda ekanini aytishgach, yuqori qavatga ko‘tarildi. Onasi o‘tirgan xonaning eshigini asta ochib, ichkariga mo‘raladi: ko‘zi qora ko‘ylakli, sochlariqa oq tusha boshlagan ayolga tushdi. U ibodat bilan mashg‘ul bo‘lib, shivirlagancha Xudoga iltijo qilardi. Onasining: «Dengizda suzayotganlarni, sayyoh bandalariningni, bemorlarni, nuridiy-



dalarni va mazlum-u mahkumlarni...» degan so‘zлari Greyning qulog‘iga chalindi. Shundan so‘ng ona qisqa nafas olib: «...shularning qatorida mening bolajonimni ham panohingda asra», deya qo‘l qovushtirdi. Shu on Grey ovoz berdi: «Men...» Boshqa bir so‘z deyishga kuchi yetmadi. Onasi u tomon o‘girilib, ko‘zлari to‘qnashganda, tek turib qoldi. Mushtipar onasi ozib ketibdi. Uning nozik chehrasida o‘zi uchun notanish bo‘lgan boshqa bir ifodalar zohir bo‘libdi. Yillar uning qomatiga-da o‘z ta’sirini o‘ykazibdi.

U o‘rnidan shart turib, o‘g‘lining yoniga keldi. yengilgina kulgi, qalb quvonchi, sog‘inch yoshlari — diydorning qisqagina tasnifi shu. Biroq ona shu lahzalarda butun umr his qilgan baxtiyorlikdan ortiqroq baxt tuydi.

— Seni juda sog‘indim, mening kichkintoyim, ko‘zim nuri, qalbim quvonchi!

Ana shunday erkalashlardan so‘ng Grey haqiqatan ham bolakayga aylanib qoldi. Onasining og‘ushida go‘dakdek huzurlandi. Taftini tuydi, bir nafas orom olish uchun tizzasiga bosh qo‘ydi. Shu orada otasi dunyoni tark etgani haqidagi xabardan voqif bo‘ldi. O‘zi haqida so‘zlab berdi...

U qo‘rg‘onda yetti kun turdi. Sakkizinchи kuni onasi hadya qilgan katta miqdordagi mablag‘ni olib, Dubeltga qaytdi. Kela solib kapitan Gopga qarorini bayon qildi: «Sizdan minnatdorman. Hammasi uchun rahmat! Siz haqiqiy do‘stsiz, og‘iz to‘ldirib shu so‘zni



aytishga arziysiz. Biroq bugun men siz bilan xayrлаsh-moqchiman. Endi mening ham mustaqil ish olib boradigan vaqtim keldi. Qarshi bo'lmasangiz o'z shaxsiy kemamda suzishni istardim».

Gop uning kutilmagan bu qaroridan sapchib ketdi. Alamanidan qo'lini Greyning kaftidan yulqib olib, nari ketdi. Grey uni quvib yetdi, ushlab bag'riga tortdi. Shundan keyin mehmonxonada bafurja o'tirib xayr-xo'shlashishdi. Jamoaning boshqa a'zлari — yigirma to'r nafar matros ham xayrлаshuv kechasiga to'planishdi: yeishdi, ichishdi, o'yin-kulgi qilishdi.

Bir necha kundan so'ng Dubelt bandargohida yulduzlar yangi kema uzra miltirashdi. Bu Grey tomonidan sotib olingan, uch machtali, ikki yuz-u oltmis tonnalik «Sekret» kemasi edi. Shunday qilib mana shu kemaning kapitani va xo'jayini Artur Grey yana to'rt yil, toki Lissaga kelguniga qadar okean uzra quyundek charx urdi. Har yili ikki marta qo'rg'onga borib turishni odat qildi. Uyiga borganida onasining yengilgina tabassumidan, qalbidan taralayotgan mehr-muhabbatidan bahramand bo'lar, to yana qaytgunicha bu onlar unga kuch bag'ishlardi. O'zi esa har gal sochlari kumushrang ayloga muvaqqat bir ishonchni mustahkamlab ketar, uning kichkintoyi endi katta yigit bo'lganini, o'zi bir mahallar o'ynagan o'yinchoqlari — kema, karta va boshqalarni endi bemalol boshqarish qobiliyatiga ega ekanini ta'kidlardi.

## TONG

«Sekret» kemasining suv parraklaridan hosil bo‘la-yotgan oppoq ko‘piklar okean uzra uzun chiziq hosil qilib, Lissaning kechki yog‘dulariga singib ketardi. Kema mayoqdan uncha uzoq bo‘lmagan to‘xtash joyiga kelib to‘xtadi.

O‘n kun mobaynida hammollar kemadan chesuchu, kofe va choy mahsulotlarini tushirishdi. O‘n birinchi kun, nihoyat, yukdan xalos bo‘lgan kema matroslari tin olishdi. Qirg‘oqqa tushib, biroz ko‘ngil yozishga qaror qilishdi. Ust-boshlarini hammomda, ichlaridagi hovurni sharobxonada «tozalash»di. O‘n ikkinchi kun Grey biror-bir sababsiz, o‘zi anglamagan holda ko‘nglida allanechuk bir orziqish hissini tuydi. Sahar chog‘i bu tong qandaydir parishon otganini ilg‘adi. U mahzun alfovza kiyindi, istar-istamay nonushta qildi. Kundalik ro‘znomalarga ko‘z yogurtirib, uzoq vaqt mushtugini tutatib, poyonsiz bu dunyoning kechmishlari haqida uzoq o‘yga toldi; uning idrokida g‘ira-shira ko‘rinish berayotgan so‘zlar, tushunchalar oralab allaqanday tushunarsiz tuyg‘u tentirab yurardi. Shunda



u yurakni g‘ijimlab turgan bu holatdan qutulish uchun ishga sho‘ng‘idi. Botsmanning hamrohligida kemani obdan ko‘zdan kechirib chiqdi. Vatni mahkamroq tortishlarini, shturmni bo‘s sh qo‘yish kerakligini uqdirdi; klyuzni tozalash, kliverni almashtirish, palubaga smola surtish, kompasni artib tozalash, tryumlarni ochib, tekshirish va yuvish kerakligini ta’kidladi. Biroq bu ishlar ham uni butkul chalg‘ita olmadi. Orziqish va qayoqqadir talpinish hissi bilan kechgan kunni u juda bezovta va g‘amgin qiyofada o‘tkazdi. Nazarida, uni kimdir chorlamoqda, ammo u chorlaguvchi kim va qayerga borishi lozimligini bilmay to‘lg‘anardi.

Kechga yaqin u kayutasida kitob varaqlashga tushdi. Ko‘zlar satrlar uzra yugurarkan, tafakkuri mualif bilan bahslashar, qarama-qarshi fikrlar sahnida o‘z fikrlarini qayd etardi. U bir muddat mana shu mashg‘ulot bilan o‘zini ovutdi: bu xuddi tobutda turib o‘z hukmini o‘tkazmoqchi bo‘layotgan mayit bilan mu-loqotda bo‘lishga o‘xshardi. So‘ng yana mushtugini qo‘liga olib, ko‘kimtir burqsiyotgan tutunga ko‘mildi. Axiyri Greyning bezovta ko‘ngli biroz tinchlandi, beorom hissiyotlarning shashti pasaydi. Uning o‘rnini loqaydlik asosida qurilgan o‘ychanlik egalladi. Bu hol ham bir soatlarga cho‘zildi; yuragini o‘rtayotgan g‘us-sadan xalos bo‘lgach, o‘zini yengil his qildi. O‘rnidan turib, palubaga chiqdi. Tun. Qorong‘ilik quyuqlashgan, qorayib ko‘rinib turgan suvning yuzida yulduzlar



jilva qilar, kema chiroqlarining yog'dusi aks etib turardi. Mayin shabada har tarfga dengiz isini taratardi. Grey boshini ko'tarib, yulduzlarga nigoh qadadi, shu lahma olisdagagi yulduzlarning jimir-jimiri uning qora-chiqlarida aks etdi. Ko'rfazning eng olis sarhadlaridan kechki shaharning bo'g'iq tovushi qulqoqqa elas-elashalinar, suv bag'rida «cho'lپ» etgan sas shamollar qanotida paluba tomon yetib kelardi. Shu payt kemaning quyruq tomonida kimdir gorgurt yoqdi, uning shu'lesi kimningdir qo'li, ko'zi va mo'ylovini yoritdi. Grey hushtak chalib6 uni yoniga chaqirdi. Mushtukdagi cho'g' kapitan tomon suzib kela boshladi. Kelayotgan tungi qorovul ekan.

— Letikaga xabar ber, hoziroq kelsin, men bilan boradi, — deb tayinladi unga Grey. So'ng: — Ha, aytgancha, qarmoqni olish esidan chiqmasini, — deb qo'shib qo'ydi.

Grey matrosga topshiriq bergach, o'zi qayiq turadigan bo'limga tushdi-da, o'n daqiqacha kutib turdi. Letika deganlari tabiatan bezorisifat yigit bo'lib, sayr-sayyohat uchun yaxshi hamroh. Biroz vaqt o'tib uning qadam tovushlari eshitildi. U eshkaklarni Greyga uzatib, so'ng o'zi qayiqqa tushdi. Qo'lidagi safar xaltani qayiqning yukxonasiga joylashtirdi. Grey qayiqning bosh tomonida o'rashib, rulni qo'liga oldi.

— Qayoqqa suzishni buyuradilar, janob? — o'ng eshkakni harakatga keltirarkan so'radi Letika.



Kapitan «miq» etmadi. Letika bu jimlikni ortiqcha so‘z aytib buzish mumkin emasligini yaxshi bilardi. Shu bois «miq» etmay shaxt bilan eshkak eshishda davom etdi.

Grey qayiqni ochiq dengizga boshladи, keyin rulni chap qirg‘oq томон burdi. Sirasini aytganda, muqim bir maqsadi yo‘q edi uning, qayoqqa qarab suzishni bilmасди. Vaziyat nimani taqozo etgan bo‘lsa, shunga bo‘ysunardi. Rul bo‘g‘iq shiqirlar, eshkaklar suvni shaloplatgancha eshilar, qolgани dengiz va sukunatdan iborat manzara edi.

Kun bo‘yi kishi shu qadar zalvorli o‘ylarni, ta-assurotlarni miyasidan o‘tkazadi, qancha so‘zlarni irod etadiki, bularning barisi to‘plansa, qalin bir kitob bo‘ladi. Shu yo‘sinda kunning qiyofasi ma’lum bir ifoda kasb etadi. Biroq Grey bugun bu qiyofaga tund boqdi. Uning bo‘g‘riqqan yuzida birgina notanish tuyg‘u miltirab turardi. U nomsiz bir hissiyot edi. Uni qanday atashdan qat’iy nazar, u so‘zsiz ifoda etiladigan, hatto tushuncha doirasidan tashqarida qolaverardi. U go‘yo muattar bir bo‘y kabi edi. Grey endi mana shu hissiyotlar ta’siriga tushgandi. U ovozini baralla qo‘yib: «Kutyapman, ko‘ryapman, hademay uni anglayman...» — deb hayqirishi mumkin, biroq mana shu so‘zlar ham, o‘zidagi noma’lum hislarni me’morchilik loyihalarida aks etgan alohida chizmalar kabi yorqin bir tasavvur uyg‘otolmasdi.



Ular qorong'i to'lqinlar bosh urayotgan qirg'oqqa yaqinlashdilar. Qirg'oq bo'ylab uylar ko'rindi. Dera-zalarning qizg'ish tusga kirgan oynalari va mo'rilaridan chiqib turgan uchqunlar ko'zga tashlandi. Bu mo'jaz maskan Kaperna edi. Greyning qulog'iga mast-alast tovushlar va itning vovillashi eshitildi. O'ngda vah-shatli okean yastangan bo'lib, u go'yo uxbab yotgan kishini eslatardi. Grey Kapernani ortda qoldirib, qayiqni qirg'oq tomon burdi. Bu yerdagi osudalik unga manzur bo'ldi.

— Mana shu yerda baliq ovlaymiz, — dedi Grey, eshkakchining kiftiga shapatilab.

Letika taajjub bilan yelkasin uchirib qo'ydi.  
— Birinchi marta bunday kapitan bilan sayohatga chiqishim, — deya o'ziga o'zi g'udrandi u. — Tadbirli, ammo tashqaridan o'xshamaydi. Ichimdagini top. Baribir undan zo'ri yo'q...

Letika yerga qoziq qoqib, qayiqni unga mahkam bog'ladi. Ikkovlon tizzalari va kaftlari ostidan sirg'abayotgan toshlarni bosib yuqoriga o'rashdi. Cho'kindi tepasida yalanglik yastangandi. Uzoqdan daraxt tanasiga urilayotgan boltaning zarbi, so'ng qulayotgan daraxtning tovushi eshitildi. Letika qulay joy topib, gulxan yoqdi. Olov suvda akslanib, qorong'ilik biroz chekindi; o't-o'lanlar va daraxtlar shoxlari g'ira-shira ko'zga tashlandi.

Grey gulxan yoniga borib o'tirdi.



— Qani do'stim, ol, — deya u Letikaga shishani uzatdi. — Ayni shu paytda mizg'imay, izg'ib yurganlar sog'ligi uchun ich! — keyin unga tanbeh berdi: — Aytgancha, sen sharob olishda adashibsan: imbiridan ko'ra xin yaxshi edi.

— Meni ma'zur tuting, — javob qildi matros, — ruxsatingiz bilan avval mana shuni gazak qilsam... — u qovurilgan jo'janing deyarli yarmini tishlab og'ziga soldi. So'ng suyaklarini ajratib og'zida chiqardi-da, davom etdi: «Siz xin sharobini yoqtirishingizni bilar-dim, ammo qorong'ilik va shoshilganim pand berdi. Sirasini aytganda, imbirli ham chakki emas...»

Kapitan sharob ichib tanavvul qilarkan, Letika uni ko'z qiri bilan kuzatdi. Keyin ko'ksida ko'pdan o'zini qiynab kelayotgan savolini bermasdan turol-madi:

— Aytishlaricha, kapitan, siz taniqli oila farzandi ekansiz, shu gap rostmi?

— Bu qiziq emas Letika, undan ko'ra, qarmoqni tashlab baliq ovi bilan mashg'ul bo'l, mazza qilasan.

— Siz-chi?

— Menmi? Rosti bilmayman. Ehtimol, senga ham-roh bo'larman. Faqat hozir emas, keyinroq.

Letika qarmoqni hozirlarkan, bir qo'shiqni xirgoyi qildi. Uning ovozi benazir edi, kema jamoasi orasida shu qobiliyati bilan barchaning hurmati, e'tiborini qo-zongandi.



Tayoq bilan ipdan men, uzun dastak yasadim,  
Unga qarmoqni bog'lab, tez-da suvga tashladim.

U shunday kuylagancha qutichadagi chuvalchang-larga e'tiborini qaratdi.

*Chuvalchanglar yer ostida yashashardi shodmon,  
shod,  
Endi uni baliqlar g'ajiydilar, eh, voy dod!*

Letika kuylay-kuylay ov qilish uchun nari ketdi...

Grey gulxan yonida qoldi. Olovning suvdagi aksiga termilgancha yonboshladi. U o'zi istamagan holda xayollarga berildi. Bunday chog'da fikr degani to'mtoq bo'lib, tevarak-atrofni aniq-tiniq ko'rmaydi. Grey hozirgi holatini tadqiq etmoqchi bo'lar, biroq u bu yerda emasdi. Mana shunday alfozda uxbab qoldi. Tizginsiz o'ylar uni toliqtirgandi.

Uyqudan tiniqib uyg'ongan Grey hamma narsani unutgandi. Bu yer qanaqa joy va u nima uchun bu yerda — taajjubda edi. Faqat tongning faraxbaxsh chehrasini ko'rib tinchlandi.

Letika hali ham ov bilan mashg'ul edi. U bu mashg'ulotga qattiq berilib ketganidan tong otganini ham sezmay qolgandi. Grey yalanglikdan chiqib, tepalikda tartibsiz sochilgan daraxtzor tomon yurdi. O't-o'lannardan yengilgina bug' ko'tarilib turardi. Go'yo yonib



tutayotganga o‘xshardi. Shudring tushgan maysalar xuddi sovuq suvda majburan cho‘miltirilgan bola-kay kabi junjikibgina turardi. Yashillik olami minglab og‘izchalarini ochib, toza havodan sipqorar, g‘uj-g‘ujligidan Grey ularni oralab yurishga qiyalardi. Kapitan yalanglik tomon intildi va shu payt maysalar ustida shiringina uxlاب yotgan qizga ko‘zi tushdi.

U daraxt shoxlarini ohista surib, «topilmasi»ga yaxshilab razm soldi. O‘zidan besh qadamcha nari-da, bir oyog‘ini bukib, ikkinchisini bermalol uzatib, qo‘lini boshiga tiragancha go‘zal bir huriliqo — Assol orom olib yotardi. Uning sochlari parishon to‘zg‘igan, bo‘yinbog‘i yechilib, etaklari tizzalarigacha ko‘tarilgan, qoshlari qovog‘ida qimir etmasdi...

Ehtimol, u boshqa bir sharoitda bu qizni faqatgina ko‘zları bilan ilg‘ashi mumkin edi. Ammo bu vaziyatda Grey qizga boshqacha nigoh, to‘g‘rirog‘i, qalban yaqinlik bilan qaradi. Yigitning nazarida go‘yo qizdan barcha o‘zini chetga tortayogandek, mazax qilib ustidan kulayotgandek edi. Vaholanki, Grey uchun qiz tamoman begona edi, uning ismini ham bilmasdi. Nima uchun sohilda yotganiga aqli yetmas, ammo bularning bari unga xush yoqayotgandi: mana shu manzaraga yo‘liqqanidan baxtiyor edi. U talqinsiz suratlarni tomosha qilishni xush ko‘rardi. Ostida ras-somning dasxati bo‘lmasa yanayam ma’qul. Bunaqa san’at asari so‘zlar sig‘imidan ustun, kishiga beqiyos



taassurot baxsh etardi. Uni Grey barcha fikr-mulohazarni tasdiqlab turuvchi bebaho asar, deb qadrlardi.

Darax barglaridan tushib turgan soya uning tanasini qoplagandi. Grey hali ham o'sha o'ng'aysiz alfozda o'tirgancha qizni maroq bilan kuzatardi. Unga bog'liq bo'lgan barcha narsalar orom og'ushida: tim qora sochlari qattiq uyquda, ko'y lagi, hatto uning taxlamlari ham qimir etmasdi; tanasiga yondosh o't-o'lanlar-da jonsiz, faqat ba'zi-ba'zida undan tashvishlangan kabi titrog'i sezilardi. Letika anchadan buyon kapitanni chaqirib ovoz berayotgan bo'lishiga qaramay, Grey uni eshitmasdi.

— Kapitan, qayerdasiz? Kapitan?

Axiyri, u o'midan turdi. Bir muddat o'ylanib qoldi, keyin barmog'idagi qadimiy qimmatbaho uzugini yechib, qizning barmog'iga taqdi. Orom olayotgan go'zal chehraga yana bir bor boqdi-da, ortiga qaytdi. Ro'parasida Letika taajjub bilan bu manzarani kuatab turardi. Bu xuddi Ionaning o'yinchoq kitning lang ochilgan og'ziga qarab turgan holati aks etgan suratiga o'xshardi.

— Letika, — dedi Grey, — mana bu go'zal qizga qara. Naqadar maftunkor-a!

— Bebaho san'at asari! — kitobiy so'zlarni istifoda etishni xush ko'radigan Letika o'z munosabatini shu taxlit bayon etdi.

— Jim, Letika. Ketdik bu yerdan.



Ular ortga qaytishdi. Letika qayiq tomon yurayotgandi, ammo Grey jarayonga shu alfozda nuqta qo'yishni istamadi. U ohista yurib borarkan, daraxtlar orasidan qorayib ko'rinib turgan, Kapernaning mo'rilardan burqsiyotgan tutunga nazar tashladi. Ularda qizning aksini ko'rgandek bo'ldi.

Shunda u yo'lini o'zgartirib, shaxt bilan Kaperna sari yo'l oldi. Letika bir so'z demay ortidan ergashdi. Bildiki, kapitan yana odatdagi so'zsiz qiyofaga kirdi. Shahardagi ilk uylar ko'rinishi bilan Grey matrosga murojaat etdi: «Letika, sinchkov ko'zlarining ishga sol-chi, bu yerni yemakxonasi bormikan?»

— Ana, qora tunukali tom, shubhasiz, traktir, — deb bilag'onlik qildi Letika, keyin: — U bo'lmasligi ham mukin, — deb qo'shimcha qildi.

— Uning nimasi tiraktir deyishingga asos bo'ldi?

— To'g'risini aytsam, bilmayman, kapitan. Ichki bir ovoz shunday demoqda.

Ular o'sha uyning ostonasiga yaqin kelishdi. Haqiqatan, u yemakxona ekan. Ha, u kitobxonlarimizga yaxshi tanish bo'lgan Mengersning xususiy yemakxonasi edi. Ochiq turgan derazdan stol, unda shisha va oq oralagan soqolini tarab turgan kir barmoqlar ko'zga tashlandi.

Garchi vaqt hali erta bo'lishiga qaramay yemakxona mijozlarga xizmat ko'rsatayotgandi. Uning umumiy bo'lmasida uch kishi taomlanib o'tirishardi. Biri deraza



oldidan o‘rin olgan yuqorida ta’riflangan kir barmoqlar egasi — keksa ko‘mirchi chol, ikkinchisi bufet bilan ichki eshik oralig‘ida pivo ichib, qovurilgan tuxumni gazak qilayotgan ikki baliqchi edi. Traktir xo‘jayini uzun bo‘yli, sepkil yuzli, shuning barobarida ko‘zlarida aksariyat tijoratchilarga xos ayyorlik aks etib turgan yosh yigit — Xin Menners peshtaxta ortida idishlarni artish bilan mashg‘ul. Isqirt polda esa Quyosh nurlari derazaning aksini ifoda etib turardi.

Ostonadan Greyning qorasi ko‘rinishi bilan Menners o‘z bo‘lmasidan chiqib, mijozlarning hurmatiga egilib-bukilib ta’zim bajo keltirdi. U mijozlarning bu yerliklarga sira o‘xshamasligini darhol ilg‘adi. Grey ichkilik berishlarini so‘radi.

Menners darhol stolni artib, joy hozirladi. Keyin bir shisha rom olib keldi. Tili bilan yorliqning yelimini qo‘parib, uni stolga qo‘ydi-da, o‘rniga qaytdi. O‘scha yerda turib Greyni zimdan kuzatdi, ba’zi-ba’zida u tar Elkaga yopishib qolgan ovqat qoldig‘ini tirnog‘i bilan ko‘chirmoqchi bo‘lib pastga qaraganini hisobga olmaga nigohi nuqlu Greyga qadalgandi.

Letika ikki qo‘llab stakanni olib, deraza osha ko‘chaga imo qilgancha bir nimalar degandi, Grey barmog‘i bilan ishora berib Mennersni chaqirdi. Xin Menners mehmonlarga kelib qo‘shildi. U Greyning e’tiboriga tushganidan, uni aynan brmog‘i bilan ishora berib chaqirganidan behad ruhlanib ketdi.



— Siz, turgan gapki, bu qishloqning barcha odamlarini nomma-nom bilasiz, barchani taniysiz, — bamatylixotir gap boshladi Grey. — Meni yoshgina bir qiz qiziqtirib qoldi. Ismini bilmoqchiman. Uning sochlari qo'ng'iroqdek, ko'ylagida atirgul naqshi bor, qorachadan kelgan, bo'yi o'rtacha, yoshi o'n yetti-yigirmalar oralig'ida — ayting-chi, uni taniysizmi? Kim u? Men uni bu yerdan uzoq bo'lмаган joyda uchratib qoldim. Uning ismi nima?

Grey savolini osuda, ammo qat'iy bir ohangda so'radi. Bu esa suhbatdoshini hushyor torttirdi. Xin Mengersning botinida g'alayon kechayotgan, buni biroz tashqarisida ham ifoda etgan bo'lishiga qaramay, zohiran mijozining muomalasiga munosib javob qaytarishdan o'zga chorasi qolmagandi. Shunda ham darrov javob qilmadi. Gap boshlashdan oldin bir muddat jimb qoldi. Aftidan, u gap nimada ekanini bilish istagida edi.

— Hm-mm! — deya boshini ko'tarib, ko'zini shiftga tikdi Mengers. — Siz so'ragan qiz, nazarimda, Assol ismli ovsar qiz, boshqa kim ham bo'lishi mumkin. Uning esi joyida emas, — Mengers barmog'ini chakkasiga niqtab, «anaqaroq» degan ma'noda ishora qildi.

— Rostdanmi? — romdan bir qultum ho'plab, befarq ohangda so'radi Grey. — U nimadan esini yo'qotib qo'ygan?



— Unda eshiting, boshidan boshlayman, — dedi Xin va bundan yetti yilcha muqaddam u dengiz sohilida folklorshunos bir kishi bilan gaplashganini, u qizchanining etagini puch yong‘oqqa to‘ldirib ketganini, u bechora bo‘lsa o‘sha cho‘pchakning ta’siridan hanuzgacha chiqa olmayotganini so‘zlab berdi. — Shu-shu odamlar uni «Assol — kema jinnisi», deb atashadi, — hikoyasini yakunladi Menners.

Grey yalt etib Letikaga qaradi. Ammo xotirjamligini saqlab qoldi. Keyin u yemakxona yonidan o‘tgan tuproqli yo‘lga nazar tashladi. Qaradi-yu boshi va yuragiga kimdir birvarakayiga zarba bergandek bo‘ldi: ko‘chadan ohista qadam tashlab, unga yuzma-yuz Assol — «kema jinnisi» kelardi. Hozirgina Menners sha’niga balchiq chaplagan qiz uning ta’rifiga sira mos kelmasdi. Yuzidagi ajib bir ifoda sirli va maftunkor edi. Letika va Menners derazaga orqa o‘girib o‘tirgallari bois Greyning ko‘chada kimni ko‘rganidan bexabar edilar. To‘satdan ular boshlarini ko‘cha tomoniga burmasliklari uchun Grey nigohini Mennersning mallarang ko‘zlariga tikdi. U bir narsaga amin bo‘lib ulgurgan, Assolning ko‘zlarini ko‘rgani hamonoq Mennersning so‘zлari g‘arazli ekanini anglab yetgandi. Hech nimadan xabari yo‘q Menners esa qizning ustidan mag‘zava ag‘darishda davom etardi: «Qo‘s Shimcha qilib sizga yana shuni aytishim mumkinki, uning otasi ham razil odam. U mening otamni qasddan suvga



cho'ktirgan. Zarracha odamiylik siyohi yo'q, u bir qotil kishi. Uning uchun atrofidagilarning mushukchalik qadri yo'q, — deya Xudoga iltijo qildi: — Yaratgan egam, O'zing asra, shunday pastkash kishilarning ra-zilliklaridan!

Uning so'zlarini orqadandan eshitilgan biroz yovvoyi, qo'pol tovush bo'ldi.

- Savatchi, savatchi, bizga savat bersang-chi,  
*Savat uchun, pul-ku yo'q, terimizni shilsang-chi...*
- Yana «shirin» bo'lib odingmi, la'nati piyanista!
- o'dag'ayladi Menners. — Yo'qol, qorangni o'chir bu yerdan!
- ... faqat, qara, ko'rasan, biz tomon kelma, kel-sang aniq o'lasan!

Ko'mirchi mastona xirgoyisini bas qilib, xuddi hech narsa bo'lmagandek stakandagi sharobga soqolini botirdi. Xin Menners darg'azab qiyofada yelkasini uchirib qo'ydi.

- Odam emas, naq hayvonning o'zginasi! — dedi u ko'mirchi cholga ishora qilib. — Har kuni ahvol shu!
- Darvoqe, qiz haqida boshqa aytadigan gapingiz qolmadimi? — so'radi undan Grey.
- Men yana nima deyishim mumkin? Uning o'shablah otasini deb, otamdan yosh yetim qoldim. Butun ro'zg'or mening zimmamga tushdi.
- Yolg'on! Sen yolg'on gapiryapsan! — kutilmaga ganda unga hamla qildi ko'mirchi. — Sening yolg'onla-



ringdan hatto kayfim tarqab ketdi. Xin og‘iz ochishga ham ulgurmadi. Ko‘mirchi chol u qolib Greyga murojaat etdi: «Uning hamma aytganlari yolg‘on. Uning otasi ham, onasi ham yolg‘onchi, shunaqa toifa bular. Qizga kelsak, xotiringiz jam bo‘lsin, u xuddi siz kabi, men kabi soppa-sog‘. Men u bilan bir necha bor suhbatlashganman. U to‘rt marta, balki ozroqdir, bilmadim, aravamga chiqqan. U shaharga yayov borib kelardi, o‘sha kezлari men ko‘mir sotib yurardim. To‘g‘ri kelib qolsa aravamga mindirib olardim. Boshimni tikaman, u oqila qiz. Ammo sen bilan gaplashmaydi. Sababi ayon. Sen kabilarning uni tinglashga toqatlaring yo‘q, boisi senlar uni tushunishga qodir emassanlar! Bilsang, u tamoman o‘zgacha fikrlaydi. Sen va men kabi buguni bilan yashamaydi. Ertaning tashvishini qiladi. Bilasanmi, bir gal u menga nima dedi? «Bu borada sizga nima deyishim mumkin, — deb yelkamga qo‘lini qo‘ydi. — Mening mashg‘ulotim zerikarli emas, faqat men uni rivojlantirishni xohlayman. Istardimki, o‘ynchoqlarim hayotiy bo‘lsa. Kemachalarimning o‘zi suzsa, eshkakchilar haqiqiy eshkak eshsa. Bandargohga kelganda, ular xuddi jonli odamlardek sohilda taomlanishsa — hammasi haqqoniy bo‘lsa deyman».

Uning so‘zlari menga kulgili tuyuldi. Qizga shunday dedim: «Eh, Assol, atrofingga boq. Hozir orzu bilan yashab bo‘lmaydi. Buning imkoni bormi? Ham-



ma mehnat bilan band. Mehnat to‘xtasa hayot to‘x-taydi, bekorchi ishlarga vaqt qani?»

Yo‘q, — dedi u. — Men nima deyayotganimni yaxshi bilaman. Mana qarang, biliqchi ovga chiqqanida hech kimga nasib qilmagan eng yirik baliqni tutishni orzu qiladi, to‘g‘rimi? Niyati sidqidildan bo‘lsa, u bir kuni orzusidagi o‘ljani qo‘lga kiritadi. Orzuga qarab imkoniyat tug‘iladi.

— Xo‘sish, men-chi? Men nimani orzu qilishim mumkin? — deb so‘radim undan. — Sizmi, siz... — deb kuldi u. So‘ng: — Siz savatingizni ko‘mirga to‘ldirganingizda uning gullashini orzu qiling, — dedi. Shu haqda o‘ylayverganidan bir gal bir savat ko‘mir ko‘zimga bir savat gul bo‘lib ko‘rindi. Sarhushligim tarqab ketdi o‘shanda.

Gap aylanib haqoratga borib taqaldi, deb o‘ylagan Xin Mengers ko‘mirchi cholga bo‘qrayib, peshtaxta ortiga o‘tib yashirindi. O‘sha yoqda turib, Greydan:

— Yana biror nima kerakmi? — deb so‘radi.  
— Yo‘q, — dedi Grey, kissasidan pul chiqarib. — Biz ketamiz. — Keyin Letikaga yuzlanib dedi: — Sen shu yerda qol. Kechqurun qaytasan, nima ko‘rsang yoki eshitsang yodingda saqla, menga aytasan. Bugungi voqealar haqida birovga churq etma, uqdingmi?

— Muhtaram kapitanim, — o‘zimi yoki ichgan romi ichidan gapirdimi, juda erkin tutdi o‘zini Letika. — Buni faqat ahmoq kishigina uqmasligi mumkin.



— Juda soz. Yana shuni esingda tut: mening nomim hech qayerda, har qanday vaziyatda tilga olinmasligi kerak. Yaxshi qol!

Grey yemakxonani tark etdi. Shu daqiqadan e'tiboran uni qoyilmaqom kashfiyotlar ishtiyooqi chulg'ab, yashin tezligidagi ruhiyat butkul qamrab oldi. U qayiqqa o'tirgachgina o'ziga keldi, hushyor tortdi. Keyin ma'noli jilmaydi-da, kaftini ochib, qo'l-larini Quyosh tomon cho'zib, baland ko'tardi. Xuddi bolaligida sharob saqlanadagan xonada qilgan ishini takrorladi. Keyin manzilga tomon shaxt bilan kemani boshqarib ketdi.

## ARAFA

Folklorshunos Egil dengiz bo'yida Assolga alvon yelkanlarning tashrifi haqida hikoya so'zlagan kundan roppa-rosa yetti yil o'tib, mana shu voqeal sodir bo'ladigan kunlarda Assol odatiy yumushi — o'yinchoqlar bilan savdo qiladigan do'kondan yuzi alamdan bujmayib, hafsalasi pir bo'lib qaytdi: olib borgan o'yinchoqlarini qaytarib keldi. U shunchalik ozurda ediki, o'zini o'nglab olishi uchun bir muddat vaqt kerak bo'ldi. Faqat hayajondan bo'g'riqib ketgan otasining yuzida xushmi, noxushmi — borini bor holicha eshitish ishtiyagini ko'rib, bo'lib o'tgan voqeani so'zlashga kirishdi. U bu payt parishonxotir bir alfozda dengizga boqib, deraza oynasi bo'ylab barmog'ini yuritib turardi...

O'yinchoqlar savdosi do'konni xo'jayini bu safar Assolni sovuqqina qarshilabdi. Hisob-kitob ishlari qayd etib boriladigan kitobini ochib, Longrenlarning undan anchagina qarzlari borligini bildiribdi. Qarzlari uch xonali son bilan ifoda etilganini ko'rib, qizning yuragi orqasiga tortib ketibdi. «Mana o'zing tekshirib ko'r, mendan qancha pul olgansizlar. Endi mana bu



raqamga e'tibor qil, u sotilganlari, — debdi xo'jayin daftarning ayrim qatorlari bo'y lab barmog'ini yuritib. — O'rtadagi farqni ko'ryapsanmi — bu degani sizlar mendan ana shuncha qarzsizlar».

— Undan achchiqlandim, to'g'risi, unga juda achindim. Qiyo fasi shu qadar boshqa bir tusga kir-gandiki, jahli va qo'polligi shundoq yuzidan bilinib turardi. Men o'sha lahzada uning do'konidan qochib chiqib ketardim-u, ammo uyatdan oyog'imda mador qolmagandi. U bo'lsa yuzsizlarcha, gapirishda davom etdi: «Bilsang, qizalog'im, sizlar bilan ishlashga ortiq ehtiyojim yo'q. Manfaatdorlik jihatidan ham men uchun sizlarning mahsulotingiz naf bermay qo'ydi. Hozir xorij mahsulotlari xaridorgir. Hamma do'konlar ana shunday zamonaviy o'yinchoqlar bilan to'lib-toshgan. Sizlarnikiga esa it ham o'girilib qaramayapti, — deb ko'pchilikning orasida meni izza qildi, — Assol bir muddat so'zlashdan to'xtab, o'sha dilgir daqiqalar zahmini yana bir bor xotirasida tiklashga tutindi, o'x-shamadi shekilli, umumiy izoh berish bilan kifoyalandi:

— U menga yana ko'p achchiq-tiziq gaplarni aytdi. Hammasi kutilmaganda sodir bo'lgani uchun ayqash-uyqash bo'lib ketdi. Asabiylashganimdan esimda qol-madi. Yodimda qolgani, u menga achingan bo'lib, «Bolalar bozori» va «Alovuddinning sehrli chirog'i» do'konlariga o'tishimni aytdi. Zora ular biror-bir o'yinchog'imni xarid qilishsa.



Asosiy gapni aytib bo‘lgach, u shart otasi tomonga o‘girildi. Longren qunishibgina, barmoqlarini bir-biriga chog‘ishtirib, bilaklariga suyanib o‘tirardi. Qizining boqishlarini his etib boshini ko‘tardi va og‘ir nafas oldi. Qiz kayfiyati siniq bo‘lsa-da, buni sezdirmaslikka urindi. Yugurib otasining oldiga bordi-da, yoniga o‘rnashib, kurtkasining charm yengiga qo‘lini qo‘ygancha, kulimsirab uning yuziga boqdi:

— Aslida, bular gapirishga arzimaydi, — deya otasini ovutishga tushdi. Negaki, zamon o‘zgaryapti, odamlar ham. Sotuvchilar xaridor mayliga qarab mol tanlashadi. Bozorni talab va taklif boshqaradi. Bo‘ysunishdan boshqa choramiz yo‘q. Buni shunchaki aytmayapman: bu gaplarning tasdig‘i bor. Uning tavsiyasiga ko‘ra, boshqa do‘konlarni ham aylandim. Katta, qadimiy bozor rastasi xaridorlar bilan gavjum ekan. Turtinib-surtinib ko‘zoynakli, qoramag‘izdan kelgan do‘kon xo‘jayiniga borib uchradim. Unga nimalar dedim, eslolmayman, ammo u savatimni kovlashtirib, o‘zi uchun qiziqarli bিror nima topolmadi. Ko‘rgan narsalarini yana matoga o‘rab, qo‘limga qaytarib berdi.

Longren ma‘yusgina qizining so‘zlariga qulq tutib, uning o‘sha paytdagi ahvolini tasavvurida jonlantirdi. Mana qizi, do‘konchi xaridorlar bilan g‘uj, qimmatbaho o‘yinchoqlar bilan to‘lib-toshgan rasta yonida turibdi. Ko‘zoynakli, o‘ta madaniyatli do‘kon xo‘jayini vaziyatni unga yotig‘i bilan tushuntirmoqda. Eski fasondagи



bu o‘yinchoqlar bilan savdo qilishga kirishsa, muqarrar sinishini uqdiryapti. Shundan keyin u qizning oldiga zamonaviy, yangi fasondagi o‘yinchoqlani qator terib qo‘ydi. Ular bejirim bino; temir yo‘l ko‘prigi; avtomobil; elektr aeroplanning mitti maketlari edi. Bularning baridan sarxil bo‘yoqlarning hidi anqib turardi. Uning aytishicha, bugun bolalar otalari nima ish qilishsa, o‘sha kasb-u korga xos o‘yinchoqlarni o‘ynashayotgan emish.

Assol «Alovuddinning sehrli chirog‘i» va boshqa yana bir qator do‘konlarda bo‘ldi, biroq biror-bir natijaga erishmadi.

Qiz hikoyasini tugatgach, kechki taom tayyorlashga tushib ketdi. Ovqatlanib bo‘lishgach, bir finjon qahvani oldiga olgan Longren dedi:

— Mayli, omadim chopmagan bo‘lsa, endi o‘zim chopaman. Tirikchilik uchun bir ish topaman. Ehtimol «Fitsroya» yoki «Palermo»dan ish chiqib qolar. Nima-yam derdim, o‘yinchoqlar masalasida ular haq! — deya u taqdirga tan berdi. — Endi bolalar ko‘pam o‘yinchoqlar bilan emas, o‘qish bilan mashg‘ul. O‘qiydilar, o‘qiydilar, lekin qachon yashashni boshlaydilar — noma’lum. Afsus va faqat afsus! Men esa seni o‘ylayman. Ishga kirsam bir muddat seni tashlab ketishimga to‘g‘ri keladi, mensiz holing nima kechadi — aqlimga sig‘dirolmayman.

— Men ham ishga kirsam-chi, masalan, siz ishlaydigan ishxonanining oshxononasiga.

— Yo‘q! — Longren e’tirozli javobini kafti bilan stolga urib, qat’iylashtirdi.



— Men tirik ekanman sen ishlamaysan. Qolaversa, yakuniy xulosaga kelishimiz uchun hali vaqtimiz bor.

U shunday degancha yuziga mamnun qiyofa kasb etdi. Assol otasining yonida, o'rindiq burchagiga o'tirdi, otasi boshini o'girmasdan qizining o'zini yupatmoqchi bo'lganini sezdi va miyig'ida jilmayib qo'ydi. Ammo bu jilmayish qizni xavotirga solardi. Assol nimadir demoqchi bo'lib, otasining oppoq sochlarni siladi, soqollaridan o'pdi va ingichka, nozik barmoqlari bilan qulqolarini berkitib, dedi:

— Ana endi sizni yaxshi ko'rishimni eshitolmaysiz.

Longren qizi uni erkalayotganda go'yo tutunda qolgan odamdek yuzini bujmaytirdi, ammo Assolning so'zlarini eshitib kulib yubordi.

— Sen yaxshisan! — Longren qizining iyagini muloyim siypab, qirg'oqdagi qayig'idan xabar olish uchun tashqariga yo'naldi.

Assol bir necha daqiqa xonaning o'rtasida, og'ir o'yga cho'mib turib qoldi. U ma'yus o'ylar og'u-shiga sho'ng'isinmi yoki ro'zg'or yumushlariga kirishsinmi — bir qarorga kela olmay ikkilanib turdi. Keyin idish-tovoqlarni yuvishga kirishdi. So'ng omborda qolgan oziq-ovqat mahsulotlarini chamalab ko'rди. U tarozida tortmay ham un kamroq qolganini, nari borsa bir haftaga yetishini chamaladi. Qand solinadigan idishning ham tagi ko'rinish qolibdi. Choy va qahva solinadigan idish bo'shab qolganiga amin bo'ldi. Yog' ham bir tomchi qolmay ishlatilibdi. Birgina



uning ko‘zini quvontirgan narsa kartoshka bo‘ldi: bir qop, anchaga yetadi. Shundan so‘ng u polni artib, eski yubkasidan qilingan pol lattani siqa turib, ko‘zgu ortida onasidan qolgan mato qiyqimlari turganini es-ladi. Borib o‘sha tugunni oldi, so‘ng ko‘zguga qarab, o‘z aksiga razm soldi.

Yong‘oq daraxtidan ishlangan ko‘zguning hoshiyasi ortida xipcha bel, o‘rtta bo‘yli qiz turganini ko‘rdi. U egniga odmigina atirgulli muslin ko‘ylak kiyib olgandi. Yelkasida kulrang soch arqoni tushib turardi. Hali tamoman beg‘ubor, bolalarcha samimiyl chehrasida ko‘rgan kishini o‘ziga jalb etadigan nimadir bor edi. Xushbichim, yoshiga nisbatan jiddiy tortgan ko‘zlaridan qalbga chuqur qadaladigan o‘tkir nigohlar joy olgandi. Chehrasidagi go‘zallik ko‘pchiik ayollarda ham bor, ammo uniki batamom bo‘lakcha ekani bilan ajralib turardi. Ta’rif-u tasnifni shu nuqtada to‘xtatamiz, zero, boshdan-oyoq ta’riflashga so‘z ojiz, birgina o‘xhashi yo‘q degan so‘z bilan kifoyalanamiz.

U tikuvchilik bilan shug‘ullanishga qaror qilgandi. Qiyqimlar tugilgan tugunni olgach, darhol o‘tirib tikishga tushdi. Uning nozik barmoqlari bu borada mahoratli ekani ajablanarli edi. Sababi, avval bu ishni hech qilib ko‘rmagandi. Demak, onasidan o‘tgan. U ignaga ip o‘tkazib, uzoqqa tikilib qolar, ammo bu uning matoni tekis qatlab, chokini mayda qilib tikishi-ga xalal bermasdi. Otasidan hali darak yo‘q, ammo



bu uni tashvishlanmasadi. Negaki, keyingi paytlarda Longren kechalari uzoq vaqt baliq ovlab yoki shunchaki toza havodan huzurlanib dengizda qolib ketadigan odat chiqargandi.

U otasidan unchalik xavotirlanmasdi, u bilan biror kor-hol sodiri bo'lishi haqida ham o'yamasdi. Aksincha, otasiga ishonardi. Assol haliyam o'sha kichkintoy qizaloq edi. Avvalgidek har tong Xudoga sodda va samimiy so'zlar bilan iltijo qilardi: «Xayrli tong Xudo!» Kechki ibodati bundan-da qisqa: «Xayr, Xudo!» tarzida edi.

Uning fikricha, Xudo balo-yu qazoni daf etishi uchun mana shu qisqagina murojaatining o'zi kifoya qiladi. U aslida uzundan-uzoq duolar qilmasligini Yaratganni ortiqcha bezovta qilmaslik vajidan deb izohlardi: «Axir, u menga o'xshash milliardlab odamlarning tashvishi bilan band. Hammani eshitishi, ham-maga javob qaytarishi kerak».

Assol tikishini tugatib, tikuv anjomlarini burchakdagi stolga qo'ydi-da, orom olish uchun to'shangiga cho'zildi. Birozdan so'ng ko'zlariga uyqu kelmayotganini, fikri tiniq, tanasi charchoqdan xoli ekanini his qildi. Yuragi cho'ntak soati kabi bir tekis urib turar, ko'ksidan chiqib yostig'i bilan qulog'ining o'rtasida turgandek tuyulardi. Assol birda choyshabni ustidan uloqtirib, birda boshi bilan unga burkanib, uzoq vaqt bezovtalanib yotdi. Nihoyat, uyqu keltiradigan bir amalni qo'lladi: xayolan suv yuziga tosh tashlab, suv-



ning xalqa-xalqa bo'lib yoyilishini tomosha qilib yotdi. Ajabo, uyqu ham shunday bir undovga zoriqib turgan ekanmi, zum o'tmay yetib keldi. Assolning ko'zlarini yumildi. Lekin u hali batamom uqlab qolmagandi, ko'zi ilingandi, xolos. U yarim uyqu-yarim hushyor holatida, boshqacha qilib aytganda, ikkisining o'rtasida edi. U tush ko'rdi. Tushida gullagan daraxtlar, sog'inch, maf-tunkorlik, qo'shiqlar va sirli holatlar qorishiq qandaydir mavhum bir manzara ko'z oldidan ayqash-uyqash o'tdi. Uyg'onganida oyog'idan yuragiga qadar sovuq, ammo hayajonli bir sezgi bilan yugurgilagan suvning jimirlashinigina esladi. Bularning hammasini ko'z oldiga keltirib, yana bir muddat o'sha, borish imkonsiz mammakatda kezdi, so'ng uyg'onib ko'zini ochdi. Agar qat-tiq uqlab qolganida tush ko'rmagan bo'lardi. Yangilik hissi, quvonch va nimadir qilish istagi uning yuragiga iliqlik baxsh etmoqda edi. Endi uqlay olmasligini bilib, ustiga kamzulini ildi va deraza yaqiniga keldi. Uning temir ilgagi bo'shatib, kichik tabaqasini ochdi. Deraza ortida, u hozirgina g'oyibona qadam qo'ygan ajib bir osudalik hukm surardi. Derazaning yuqori tutquchini ushlab turgancha jilmaydi. Uzoqlardan kelayotgan bir ovoz o'z ichidan ham sas berayotganini his qildi. Shunda u qandaydir asil haqqoniyat uchun uyg'onganini tuydi. Shu daqiqadan boshlab, tafakkurida jilva qilgan ma'dani yadun — ma'naviy maxzan uni tark etmadidi. Bu haqda yanada yorqinroq tasavvur berish kerak bo'lsa misol shu: biz odamlarning so'zlarini tinglaymiz



va tushunamiz. Agar ularni takror tinglaganimizda yana ham boshqa ma'noli jihatlarini anglagandek bo'lamiz.

Assolda ham ana shunday bir hol kechmoqda edi. U bir muncha ohori to'kilgan, ammo hamisha yan-gidek ko'rinaridigan ipak ro'molini sandiqchadan olib boshiiga ildi-da, eshikni mahkam yopib, yo'lga chiq-di. Garchi tevarak-atrof osoyishtalik og'ushida bo'l-sa ham, nazarida, qadamidan taralayotgan tovushlar yer-u ko'kni titratayotgandek tuyuldi, uni eshitib qo-lishlaridan cho'chidi. To'g'rirog'i, odamlarni bema-halda bezovta qilmay degan andishada edi. Borliq bir butun maftunkor manzara kasb etib, unga shodlik baxsh etar, tuproqning iliq tafti yalang oyoqlarini qi-tiqlardi. Nafas olishi yengil va yoqimli edi. Tongning g'ira-shirasida uylarning tomi va ko'kdagi bulutlar qorayib ko'rinar, ekinzorlar, bog'lar va kimsasiz yo'l — barchasi unga uyqash tusda ko'rinaridi. Bu manza-rada kunduzgiga o'xshamagan o'zgacha ifoda bordek go'yo. Barchasi ko'zi yarim ochiq halda uxlayotgan-dek, bemahal chog' yo'ldan o'tib borayotgan qizni zimdan kuzatayotgandek edi.

U qishloq hududini tark etish ishtiyocida qadamini tezlatib, olg'a borardi. Kapernadan chiqishda poyonsiz dala boshlanadi. Undan keyin yon bag'irlari yong'oq, terak, kashtan daraxtlari bilan burkangan sohil bo'yida qirlar yastangan. Yo'l tugab, daraxtzorlar orasiga kirib ketgan torgina so'qmoqqa yetganida Assolning oyoqlari ostida yunglari hurpaygan, mittigina kuchuk-



cha paydo bo'ldi. Uning ko'krak qismi oq, terisining boshqa joylari qop-qora rangda edi. U ko'zlar bilan gapiradigan itlar xilidan bo'lib, irillab, tanasini silkitgan ko'yi xuddi qiz bilan avvaldan kelishib olgandek bab-baravar qadam tashlab borardi. Assol kuchukchaning muloqotga moyil ko'zlariga qarab shunga amin bo'ldiki, itlar ham, agar aytib bo'lmaydigan sirli bir narsalarini hisobga olmaganda, gapirar ekan — ko'zlar bilan bo'lsa ham fikrini ifoda etarkan.

Qizning ma'nodor jilmayganini ko'rib kuchukchaning bahri dili ochilib ketdi. Qizning foydasini ko'zlab, unga yo'lboshlovchi bo'lib, chopib oldinga chiqib oldi. Ammo birdan joyida to'xtab, old oyog'i bilan qulog'i-ni chaqqan chivinni haydadi-da, yana safga qaytdi. Assol bargida shudring donalari jimirlayotgan o'tloqqa qadam bosdi. Kafti bilan o'tlarning boshini siypab borar, o't-o'lanlarning namiqqan barglari barmoqlariga xush yoqardi. Nihoyat, u ko'zlangan manzilga yetdi.

Bu joy dengiz bo'yidagi sayhonlik bo'lib, unda qadimiyl, ulkan daraxtlar qad kerib, osilgan shoxlari butalarning boshiga tegib turardi. Kashtan daraxtining yirik barglari ustida oppoq qo'ziqoringa o'xshash konuslar bo'lib, uning hidi shudring va qatronlar isiga qorishib ketgandi. Bu yerda Assol o'zini xuddi uyidagidek his etardi. Har gal kelganida odamlar bilan salomlashgani kabi daraxtlar bilan hol so'rashardi. Ba'zi birlari bilan barglarini siypalab, qo'l berib ko'rishgan bo'lardi. U goho shivirlab, ba'zan ichida so'zlab daraxtlar bilan



suhbatlashardi: «Mana, sen, mana bu boshqa biroving; sizlar son-sanoqsiz og‘alarim! Ammo sizlar bilan uzoq qola olmayman, meni ushlab qolmanglar, shoshilinch ishlarim bor, meni qo‘yvoringlar, og‘ajonlarim! Men sizlarning barchangizni yaxshi ko‘raman, qadrlayman va hamisha yodimda tutaman».

Bu safar ham «og‘alar» yaproqlari, shox-shabbalari bilan Assolni mayin silab, qarindoshlik mehri ila kuza-tib qolishdi. U dengiz tepasidagi jarlikka chiqib bor-di. Tez yurganidan yuragi gupillab, halloslab qolgan, oyoqlariga loy ilashgandi. Jarlik boshida o‘tirib, nafasini rosladi. Qalbining tub-tublarida yotgan hissiyotlari hayqirib, ko‘pirib, borligini namoyon etardi. Assol ana shu tuyg‘ularini nigohi bilan ufq ortiga uloqtirar, u esa qirg‘oqqa bosh urayotgan suv shovqini hamrohligida qaytib kelardi.

Bu payt ufq bilan dengizning o‘rtasi qizil ip bilan chegaralangan, dengiz hali uyquda edi. Hamma yoq osuda, faqat jarlik etagidagi sohildagi chuqurliklar sahnidagi ko‘lmaklarga oqib tushayotgan suvning shovullashi qulooqqa chalinardi. Assol qulochi bilan oyoqlarini jamlab, o‘t ustida jimgina, atrofga nazar tashlab o‘tirardi. Dengiz tomon egilib, ko‘zlarini katta-katta ochib ufqqa boqdi. Bu qarashlarda bolalarcha beg‘uborlik ufurib turardi.

Shu payt chakalakzor ortidan kemaning qoras-i ko‘rindi; u butalar ortidan ko‘tarilib, so‘ng joyida



qotdi. Bu yerdan qaragan kishiga u xuddi bulutga o‘xshab ko‘rinardi. Sathidan quvonchli hayqiriqlar, musiqa sadolari har tomonga taralayotgan kema ohista u tomon harakatlana boshladi. Kemadagi hamma narsa alvon rangida edi: yelkanlar, atirgullar; machta qip-qizil olov rangga burkangandi. Qiz o‘sha tomonga qarab turardi. Shu on musiqa sadolari o‘chdi, ammo uning aks sadosi hali ham Assolga eshitilib turardi. Bu taassurot borgan sari ojizlashib boraverdi. U bir muddatdan so‘ng xayollarga, keyin kuchli bir horg‘inlikka aylandi...

Qizni oyoqlariga uchib-qo‘naverib qitiqlayotgan chivinlar uyg‘otdi. Assol ularni haydash uchun oyoqlarini bezovta qimirlataverganidan, axiyri, uyg‘onib ketdi. O‘tirib sochini tartibga keltirdi. Shu payt barmog‘iga qadalgan Greyning sovg‘asiga ko‘zi tushdi. Avvaliga bunga e’tibor bermadi, shunchaki, barmog‘iga bir nima yopishgan degan xayolga bordi. Barmoqlari bilan uni chertib tushirmoqchi edi, bo‘lmadi. U barmog‘ini tark etmoqchi emas, shundan uni darhol ko‘zlariga yaqin olib keldi. Uni nima ekanini fahmlagach, sapchib o‘rnidan turib ketdi. Barmog‘ida Grey taqib ketgan qadimiyl, qimmatbaho uzuk Quyosh nurlarida jilolanib turardi. Qiz bu begona buyumning barmog‘iga qanday tushib qolganiga aqli yetmay bir muddat turib qoldi, uni hali o‘zimniki deyishga jur’ati yetmadi. Birovning moli, faqat begona barmoqda. Bu



THE EAGLE AND THE SWAN

BY ANNE BROWN



sirning tagiga yetmasa, hatto barmog‘ini meniki emas deyishgacha borishi tayin edi.

— Bu kimning ishi, kimning hazili? — baqirib-chaqirib tevarak-atrofga savol yo‘lladi. Keyin o‘zini o‘zi chimdib ko‘rdi. — Yoki haliyam uyqudamanmi? Ehtimol, uni topib olgandirman, keyin topganimni unutgandirman.

U chap qo‘li bilan o‘ngini ushlab, uzukka qarar, so‘ng hazillashgan kimsaning qorasini ko‘rish yoki sharpasini ilg‘ash uchun yam-yashil butalar ichiga ko‘z yogurtirardi. Ammo atrofda hech zog‘ ko‘rinmasdi. Bu holga biror-bir izoh yo‘q edi. Axiyri, hech qanday izohlarsiz u uzukni o‘ziniki deb qabul qildi. Uni barmog‘idan yechib, kaftida tutib obdan ko‘zdan kechirdi. Butun qalbi, mehri, bor quvonchi bilan nazar soldi. Keyin uni ko‘ylagining qatiga yashirdi. Bir xushxabar, nimadir yorug‘lik yaqinlashayotgandek bo‘lib tuyuldi unga. Yuzini kaftlari bilan to‘sdi, barmoqlari orasida qizning yuzi quvonchdan yashnab, lablariga tabassum yoyildi. Assol o‘rndan turib, uyiga qaytdi.

«Shunday qilib bir tasodif tufayli, — deydi odatda yozish va o‘qishni biladigan kishilar, — Grey bilan Assol yozning oddiy bir kuni, tong chog‘i bir-biri bilan topishdi».

## JANGOVAR TAYYORGARLIK

Grey «Sekret» kemasining bortiga ko‘tarilgach, bir muddat nima qilarini bilmay boshini qashlab turib qoldi. Bu esa murakkab vaziyatga tushib qolganidan va undan chiqish uchun tadbir o‘ylayotganidan darak edi.

Parishonxotirlik his-tuyg‘ularning bulutga o‘xhash harakatini anglatadi. Bu tuyg‘u uning chehrasida, oy-parast, telbanamo odamning bema’ni tabassumi kabi o‘rnashib qolgandi. Yordamchisi Panten bu mahal bir tarelka qovurilgan baliqni qo‘lida tutib, kema bortidagi kichkina yo‘lakdan kelardi: uning ko‘zi Greyga tushdi va kapitanning tashvishnok ekanini ilg‘adi.

— Sizga nima bo‘ldi, kapitan, mazangiz yo‘qmi?  
— ohista so‘radi yordamchi. — Kecha tunda qayerda edingiz? Biron nima bo‘ldimi? To‘g‘ri, bu savollarni berishim mening haddimga emas, ammo...

— Minnatdorman, — dedi Grey, xuddi hozirgina arqondan bo‘shalgandek, o‘pkasini to‘ldirib nafas olarkan. — Menga aynan sizning samimiy va qat’iy ovozingiz yetishmay turgandi. Bu chanqab turgan odam-



ning muzdek suvgaga zoriqishiga o‘xshaydi. Panten, jamoaga yetkazing, bugun kechqurun yakorni ko‘tatrib, Liliandan yuqoriroqqa ko‘chamiz. U bu yerdan o‘n milcha uzoqlikda. U yerda suv oqimi katta-katta ohak bo‘laklari bilan to‘lib-toshgan. U yerga faqat dengiz orqali borsa bo‘ladi. Xaritani o‘rganish uchun o‘zingiz kelng, Lotsmanni bezovta qilmang. Hozircha — shu. Aytgancha, menga foydali takliflar zarur — ularga xuddi o‘tgan yilgi qordek muhtojman. Balki buni vositachiga berish kerakdir. Men hozir shaharga tushaman, kechgacha qiladigan ishlarim bor.

— Tinchlikmi ishqilib, kapitan?

— Tinchlik, Panten, tashvishlanishga hojat yo‘q. Qolaversa, siz meni har xil so‘roqlar bilan bezovta qilavermang. Vaqt kelganda o‘zim sizni bor gapdan xabardor qilaman. Matroslarga ayting, oldimizda ta’mirlash ishlari bor, mahalliy ustoxona band ekani, biror chorasiini topishlari kerakligini yetkazing.

— Yaxshi! — o‘ylab ham o‘tirmasdan javob qildi Panten ketib borayotgan Greyning ortidan. — Aytganlariningiz o‘z vaqtida bajariladi.

Kapitan garchi aniq va lo‘nda, barchaga tushunarli tilda topshiriq bergen bo‘lsa-da, Panten uni to‘la tushunib yetmagandi. U baliq to‘la tarelkasini nihoyat bo‘shatishga imkon topdi. Kayutasi tomon borarkan o‘ziga o‘zi g‘udrandi: «Panten, boshing ishga ko‘miladigan bo‘ldi. Kapitan mabodo kontrabanda(ta’qiq-



langan mol) bilan shug‘ullanmoqchi emasmi ishqilib? Yoki qora bayroq ostiga birlashamizmi, qaroqchilik qilamizmi?!»

Panten ehtimolligi ayanchli bo‘lgan masalalar ustida to‘xtaldi. U shu badbin xayollar iskanjasida baliqni paqqos tushirarkan, Grey kayutasiga tushib pul oldi-da, so‘ng buxtani kesib o‘tib, Lissaning savdo mavzesiga qarab ketdi. Endi u qayoqqa borayotganini, bu yo‘lda uni nimalar kutayotganini miridan-sirigacha aniq bilardi. Shundan harakatlari o‘ktam, qadamlari shaxdam edi.

Grey do‘konlarni aylanib, o‘zi istagan rangdagi matoni axtardi. Tanlov har tomonlama asliga to‘g‘ri bo‘lishi shart. Shundan u rang va bo‘yoqqa katta e’tibor qaratdi. Dastlabki ikki do‘konda bozordagi rang-larga o‘xhash ipak matoni ko‘rsatishdi. Bu ham yomon emas, ammo bu turdagи matolar o‘ta muhim tadbirlar uchun emasdi. Uchinchi savdo rastasida u o‘zi istagan mato namunalarini ko‘rgandek bo‘ldi. Rasta xo‘jayini o‘zida yo‘q xursand, Greyning atrofida parvona bo‘lib, poyiga mato bo‘laklarini sochib tashladi. Grey o‘ta jiddiy jarayonning boshida turgan bo‘lsa o‘zini bosiq, vazmin tutishga harakat qilardi.

U sabr bilan har bir namunani alohida olib, obdan ko‘zdan kechirardi. Matoning qattiqligini, chidamliligi, rangi qanchaga dosh berishi va boshqa sifatlarini turli usullarda tekshirib ko‘rdi. U alvon rangli va



shunga yaqin qizg‘ish matolarning shu qadar namunalarini ko‘rdiki, do‘kon xo‘jayini ularni taxlashga ham ulgurmasdi. Grey tik turgancha namunalarni ko‘rikdan o‘tkazar, uning qo‘llarida, yuzida qizg‘ish rang jilolani turardi. U matoga qo‘l tegizsa bas, u haqda yetarli tasavvurga ega bo‘lar, darhol unga baho berolardi. Uzoq yillik dengizdagi hayot, yillab dunyoning mana-man degan mamlakatlariga yuk tashish faoliyati uni mana shunday tajribali tujjorga aylantirgandi. Garchi u ko‘rgan matolariga «juda go‘zal», «bag‘oyat zo‘r», «beqiyos nafis» singari sifatlarni tirkayotgan bo‘lsa-da, hali ko‘nglidagini uchratmagandi.

Nihoyat, bir mato unga ma’qul keldi. Uning rangi xaridor sifatida Greyning e’tiborini tortdi. U deraza yonidagi kursiga o‘tirib, qarsillagan ipak matoning bir uchidan tortib, to‘pidan bir necha gaz uzunlikda ajratib, tizzasiga oldi. Keyin mushtugini tishlari orasida mahkam tutib, matoni sinchiklab ko‘zdan kechirdi. Mana buni asil mol desa bo‘ladi. Toza, xuddi ertalabki Quyoshning alvon nurlari kabi tovlanardi. Podsholikning moli deb shuni aytadilar. Rangi ham shu maqomga mos. Unda birgina qip-qizil alvon rang mavjud bo‘lib, uning ko‘knori bargi yoki siyohrang uzorlari ko‘zga tashlanmas; yuzasida kishining ko‘ngliga shubha solguvchi biror-bir boshqa qo‘srimcha jilolar jilva qilmasdi. Bu mato balog‘at fasliga qadam qo‘ygan qizning tabassumi kabi beg‘ubor edi. Grey



tanlovdan ko'ngli to'lib, shu qadar masrur xayollar og'ushiga g'arq bo'lgandiki, ortida do'kon xo'jayini ov tozisi kabi qulog'ini ding qilib, uning qarorini kutib turganini e'tiboridan qochirgandi. Kuta-kuta charchagan do'kondor, axiyri, toqati toq bo'lib, bu orada o'zining ham borligini bildirib qo'yishga majbur bo'ldi.

— Namunalarni ko'rishni bas qilamiz, — dedi Grey tujjorning qiyofasidagi o'zgarishni sezib. — Men o'zimga keragini tanlab bo'ldim. Mana buni olaman,

— deya u qo'lidagi ipak matoni do'kondorga ko'rsatdi.

— To'pni to'laligicha olasizmi? — so'radi savdogar. Ammo Grey javob qilmadi, uning peshonasiga razm soldi. Bu qarashdan do'kon xo'jayini «Kallang joyidami, butun boshli to'pni nima qilaman», degan ma'noni uqib, yaldoqlanib, munosabatini o'zgartirdi.

— Uzr, sal oshirib yubordim, chamamda, — deya yengilgina ta'zim qildi. So'ng: — Xo'sh, necha metr o'lchay? — deb qaddini g'oz tutdi. Grey unga boshini ma'noli irg'ab, yaqinroq kelishga undadi. So'ng oldidagi qog'ozga qalam bilan nimadir yozib, buyurtma-ning hajmini raqamlarda ifodalab ko'rsatdi.

— Ikki ming metr olaman, — u shuncha mato bormi o'zi, degan ma'noda matolar saqlanadigan tokchallarga ko'z yogurtirdi.

— Ikki... — do'kondorning nafasi tiqilib, so'zini aniq talaffuz qilishga qiyndaldi. — ...ming metr? Bir-



pasdan so'ng o'zini o'nglab olgach, Greyga alohida iltifot ko'rsatishga kirishdi:

— O'tinaman sizdan, o'tiring, kapitan. Boshqa matolarning namunalarini ko'rishni istamaysizmi? Mayli, siz aytgancha bo'lsa qolsin. Ikki ming metr... buning bahosi...

Do'kondor qo'rqa-pisa ikki ming metr matoning narxini aytdi. Ammo salmoqli summani aytib xaridorni ketkazib yubormaslik uchun biroz hadiksirab ham turardi. Grey puliga tortishmadi. Mahsulot ma'qul kelgani unga kifoya edi.

— Tanlovingizga qoyilman. Gap yo'q, asil molni botilidan ajrata olarkansiz, — birinchi bor bunaqa xaridorni ko'rgani bois sevinchidan og'ziga neki maqtovlar kelsa hammasini mijozining sha'niga yo'lladi. — Bumato tengsiz, o'xhashi yo'q, faqat mening do'konimdan topiladi.

Savdogarning nihoyat ehtirosi bosildi. Shundan so'ng Grey u bilan shartnoma shartlarini kelishib, to'lovni amalga oshirib molni qayerga, qachon yetka-zib berishini tushuntirdi, qo'shimcha chiqimlarni ham to'ladi. Uni savdogar xuddi Xitoy imperatorini kuzatgandek dabdabali tarzda kuzatib qo'ydi.

Shu payt Greyning ko'zi o'zi uchun zarur bo'lgan kishiga tushdi. Yo'lning narigi tomonidagi do'korastalari yonida turgan g'aribgina musiqachi e'tiborini tortdi. U violonchelini sozlab, qoyilmaqom musiqasi



ijro etmoqqa kirishdi. Ohanglar sokin, ammo o‘ta maftunkor nolalardan iborat edi. Fleyta chalib turgan hamrohi ham unga jo‘r bo‘ldi. Bir muddat ularni tingab miriqqan Grey endigi rejasini amalga oshirishga kirishdi.

Sirasini aytganda, o‘sha kunlari Grey ruhiy sozinlikning eng yuqori cho‘qqisida edi; u cho‘qqi dan taqdirning barcha ehson-u mukofotlarini kuzatib turardi. «Hammasi niyatga yarasha», deganlaridek mo‘ljallagan maqsadini amalga oshirishga kirishgandan beri nimayiki zarurati bo‘lsa, ro‘parasidan chiqayotgani uni behad quvontirardi. Yanada ishtiyoq bilan harakat qilardi.

Grey kichkina ko‘chani kesib o‘tib, katta uyning darvozasi yoniga keldi. Musiqiy marosim shu yerda bo‘lib o‘tayotgandi. Grey kelgan chog‘ ular cholg‘u asboblarini yig‘ishtirib, ketish taraddudiga tushishgandi. Fleyta chalgan mashshoq baland uylarning derazalaridan ijro uchun tanga uloqtirayotgan shinavandalarga boshidagi shlyapasini yechib silkigancha minnatdorlik bildirib turardi.

Violonchel hali o‘z xo‘jayinining yonida turar, u esa peshonasidagi terni artib, fleytachini kutardi.

— Eh, axir bu Simmer-ku! — dedi Grey ularga yaqin kelib. Keyin skripkachini yaqiniga chorladi. Ularni dengizchilar davrasida ko‘rgandi. Mashshoqlar kechqurunlari «Pulni bochkaga» qahvaxonasida



matroslarning maroqli dam olishlari uchun xizmatda bo'lishardi.

— Nima, sen skripkadan voz kechdingmi? — taas-suf ohangida so'radi Grey.

— Muhtaram kapitan, men ohang beradigan bar-cha asboblarni chalaman! — g'urur bilan unga ja-vob qildi Simmer. — Yoshligimda men musiqachi-masxaraboz bo'lganman. Endi esa san'atga oshufta odamman. Vaqt o'tgani sari yillar mobaynida Xudo bergen betakror iste'dodimni yelgasovurganimni fahmlayapman. Shuning uchun men har ikki musiqiy asbobimni: violenchelni ham, skripkani ham birdek yaxshi ko'raman. Villada kunduzlari kuy ijro eta-man, kechqurunlari skripka. Har ikkisini chalganimda yig'layman, o'kinaman, munosib qadrlanmagan iqtidormi uchun nola chekaman, — dedi ma'yus ohang-da Simmer, so'ng birdan jonlandi: — Mabodo janoblari vino bilan siylamaydilarmi? Viola — mening ma'shuqam, skripka esa...

— Assol, — dedi Grey. Simmer uni eshitmadni.

— Ha, — boshi bilan tasdiqladi kapitanni, — bi-laman, tarelkadagi solo yoki mis naychaning ohangi, bu boshqa gap. Zero, menga nima farqi bor. San'atning yo'rig'i qaysi tomonga qayishsa, qayi-shaversin — men o'z bilganimdan qolmayman: violenchel bilan skripkaning torida ilhomlarim qo'nib turadi.



— Mening fleytamda-chi, nima yashiringan? — deya uni savolga tutdi bo'ychan, qo'yniki kabi yashil ko'z, oqish soqolli kishi. — Qani ayt-chi?

— Bu sening ertalabdan beri qancha ichkilik simir-ganingga bog'liq. Fleytangga bir qarasang qush qo'n-gan bo'ladi, bir qarasang bir juft mast-alast o'tirgan bo'ladi. Kapitan, bu mening jamoadoshim Duss. Men unga siz haqingizda gapirib bergenman. U bo'lsa siz-larni g'oyibona yoqtirib qolgan.

— To'g'ri, — dedi Duss, — men mardlik va tanti-likni yoqtiraman. Biroq o'lgudek ayyorligim ham bor. Shuning uchun men haqimdag'i hamma gapga ham e'tibor beravermang.

— Sizga bir xizmat bor, — dedi ularning hazillariga miriqib kulgan Grey. — Vaqtim juda oz, qiladigan ishlarim bisyor. Sizlarga yaxshigina haq to'lanadigan ish taklif qilmoqchiman. Buning uchun orkestr jamo-asini to'plashingiz kerak. Lekin, oldindan ogohlantirib qo'yay, yuzi mayitlarning qiyofasiga kirgan, musiqa-ning qalbi borligini unutgan, ohangni his qilmaydigan, sahnani o'zlarining nag'malari bilan buzadiganlar kerak emas. O'zingiz singari oddiy, yuraklarni o'rtaydi-gan nolalarni ijro etadigan haqiqiy san'atkorlar kerak. Ularni tinglaganda oddiy oqsochlardan tortib, den-gizchilarimgacha ko'z yosollarini tiya olmasinlar. Den-giz va muhabbat soxtalikni yoqtirmaydi, — shundan keyin Grey ular bilan xayrashib, uzrini aytdi: — Siz-



larga jon deb sherik bo‘lardim-u, ammo vaqtim ziq. Shuning uchun bu kecha mening hisobimdan bazm quring. Mana bu pulni oling-da, A. ismli insonning sog‘ligi uchun qadah ko‘taring! Agar taklifim ma’qul kelsa, kechqurun bandargohdagi «Sekret» kemasida sizlarni kutaman.

— Biz rozimiz! — ovozini baralla qo‘yib javob qildi Simmer, Grey taklifi uchun yaxshigina haq to‘lashini bilganidan. — Duss, ta’zim qil, «rozman» deb ayt, tiling kesilgur. Shlyapangni osmonga ot, aftidan, kaptan uylanish arafasida.

— Ha, bu gap rost, — oddiygina javob qildi Grey.  
— Qolgan barcha tafsilotlar bilan manzilga kelgach tanishasizlar.

— A harfi uchungina qadah ko‘taramiz bu kecha, janoblar! — Duss tirsagi bilan Simmerni turtib, Grey tomonga ishora qildi. — Ammo alifboda harflar ko‘p, ism to‘liq bo‘lishi uchun hamma harflarga qadah ko‘tarish zarurati bor.

Grey Dussning so‘zamolligidan miriqdi va yana pul berdi. Musiqachilar ketgach, u komission mahkamaga kirib, katta summaga maxfiy buyurtma berdi. To‘lovin shu yerning o‘zida amalga oshirib, ish olti kun ichida bajarilishi lozimligini uqdirdi. So‘ng o‘z kemasiga qaytdi. Shu lahzalarda buyurtma olgan idoranining agenti ham paraxodda «Sekret» kemasini tomon suzib bormoqda edi. Kechga yaqin beshta yelkan uchun



buyurtma berilgan alvon matolar yetib keldi. Letika hali qaytmagandi, musiqachilardan ham darak bo'l-madi. Grey ular yetib kelgunga qadar gaplashib olish uchun yordamchisi Pantenning oldiga bordi.

Aytish joizki, Grey uzoq yillardan beri bitta jamoa bilan birdam edi. Avvliga o'zaro anglashish oson kechmadi. Matroslar kapitan bilan sira chiqisha olishmasdi. Uning jizzakiligi, hamma narsani o'z nazorati ostida ushlashi ko'pchilikka yoqmasdi. Ba'zida kutilmagan safarga chiqar, ba'zan kimsasiz, savdo joyida oylab to'xtab qolishardi, ammo bora-bora jamoa unga ko'nikib, uning «Greyizm»iga omuxta bo'lib ketishdi.

U ba'zida kemani yarim yuk bilan ham safarga olib chiqaverar, ba'zida foydali buyurtmalar bor bo'lishiga qaramay, shartnomal tuzmasdi. Sababi, tavsiya etilgan yuk unga ma'qul kelmasdi. Hech kim uni sovun, mix, mashinaning ehtiyyot qismlari va boshqa shunga o'xshash mollarni tashishga ko'ndira olmasdi. Buning aksi o'laroq, u jon-jon deb meva-cheva, chinni idishlar, hayvonlar, ipak, choy, qahva, daraxtlarning noyob turlari: qora qayrag'och, palma kabi yuklarni qabul qilardi. Bularning bari oqsuyaklar xarid qiladigan mollar ekanini yaxshi bilardi. Mana shu ruhda tarbiyalangan «Sekret» jamoasi turdosh kemalardan o'zlarini bir muncha ustun sanashardi. Ular bilan munosabat masalasida masofa saqlashardi.



Grey hozir ham bir ishga qo'l urdi-yu, asil maqsa-didan hali dengizchilarni xabardor qilmadi. Shundan bo'lsa kerak, ularning ko'zlarida Greyga savolomuz ajablnish aks etardi. O'z o'mnida, Panten ham matros-larga kapitanning topshirig'ini so'zma-so'z yetkazgandi; Grey shaharga yo'l olishi bilan u kayutama-kayuta yurib, matroslar bilan gaplashdi. Shu orada oltida sigara chekdi. Kech kirdi; kema kayutasining ochiq turgan oynasidan chiroqlarning oltin rang shu'lisi tush-di-yu kapitanning laklangan bosh kiyimini yoritdi.

— Hamma narsa tayyor, — dedi Panten kapitanga peshvoz chiqib. — Izn bersangiz, yakorni ko'taramiz.

— Boshqalardan ko'ra siz meni yaxshiroq bilasiz, deb o'ylayman, — dedi Grey muloyim, ammo qat'iy ohangda. — Mening qilayotgan ishimda sirli bir narsa yo'q. Lilianga langar tashlashimiz hamon hamma gapdan voqif bo'lasiz va papirosingizni cho'g'lantirish uchun juda ko'p gugurt chaqishingizga to'g'ri keladi. Boring, langarni ko'tarishga bosh bo'ling!

Panten o'ng'aysizlandi va qoshini qashladи.

— Shunday bo'lishi kerak, — dedi u o'ziga o'zi. — Qolaversa, men kimman — hech kim: boy amr qilsa, boyvuchcha xamir qiladi.

Panten xonasidan chiqib ketgach, Grey bir necha muddat so'zsiz stolga suyanib, yarim ochiq eshik osha tashqariga ko'z tikib o'tirdi. Keyin o'z bo'lmasiga qaytdi. Shu yerda u bir muddat cho'zilib, vaqt o'tkazdi.



Katta zanjirni aylantirayotgan brashpil tovushiga qulqutib turdi. O'sha yoqqa borishga otlandi-yu, negadir ortiga qaytdi. Stol ustiga yozilgan nafis sellofanga barmog'i bilan nimalarnidir chizdi. Shu payt eshikning qattiq taqillashidan hushyor tortdi; turib eshikni ochgandi, Letika kirdi. Matros xuddi it quvlagan odamga yoki qatl xabarini olib kelgan choparga o'xshardi.

— Matroslar langarni ko'tarayotganlarini ko'rib hovliqib qoldim. Oyog'imni qo'limga olib yugurdim. Ulgurdim hartugul. Kapitan, siz meni qirg'oqda qoldirib ketmoqchimidingiz?

— Letika, — dedi Grey, uning qontalash ko'ziga qarab. — Men ertalabga yaqin qaytasan deb gumon qilgandim. Endi ayt-chi, ustingdan sovuq suv quydgingmi, yo'qmi?

— Quydim! Ammo ko'p emas, aytganingizni qildim.

— Unda gapir, nima gap?

— Aytarli gap yo'q, kapitan. Barcha ma'lumotlar mana bu qog'ozga tushirilgan. Olib o'qishingiz mumkin. Qo'limdan kelgancha harakat qildim. Men esa bora qolay.

— Qayoqqa?

— Ko'zingizdan o'qidim, ustimdan quyilgan suv yetarli emasga o'xshaydi. Shu ishni risoladagidek qilmasam bo'lmaydi.

U ko'zi ojiz odam qadam-baqadam, to'lg'onib yurganidek, chayqalgancha tashqariga yo'l oldi.



Grey qog'ozni yoyib, undagi yozuvni o'qishga tushdi; buni yozayotganda, aftidan, qalam rosa ega-sidek chayqalgan ko'rindi, harflar xuddi qulayotgan to'sinning taxtalari kabi egri-bugri edi. Mana, Letika nimalarni bayon etgandi: «Berilgan topshiriqqa binan, soat beshdan keyin shahar ko'chalarida aylanib yurdim. Tomi mallarang uyning yonidaman. Uning atrofida ikkitadan derazasi bor; tomorqada har xil ko'katlar ekilgan. Kuzatuvimdagi xonim ikki marta hovliga chiqdi: birinchisida u suv uchun, ikkinchi marta pechga o'tin qalash uchun o'tinga chiqdi. Qorong'i tushgach, uy ichini deraza osha kuzatmoqchi edim, parda xalaqit berdi — shundan hech narsani ko'rolmadim».

Ma'lumotnomaga yuqoridagilardan so'ng arzimas maishiy masaladagi gap-so'zlar bilan tugatilib, «Sarf-u xarajatlarga o'z hisobimdan ishlatdim», degan jumla ilova qilingandi.

Grey qog'ozni stol ustiga qo'ydi-da, hushtak chalib qorovulni chorladi. Uni Pantenni chaqirib kelishga yubordi. Birozdan so'ng Pantennig o'miga uning yordamchisi Atvud kayutaga bosh suqdi.

— Biz damba yonida ishlayotgandik, — dedi u, o'zining tashrifiga aniqlik kiritish maqsadida. — Panten juda band, shuning uchun, nima gap ekanini bilib kelishim uchun meni yubordi. Agar iloji bo'lsa, o'zingiz u yoqqa borishingizni iltimos qilgandi, negaki,



pasda bir guruh artistlar bilan muammo yuzaga keldi. Aytishlaricha, ularni siz chaqirtirgan ekansiz.

— Ha, ularni men chaqirtiganman, — dedi Grey.  
— Borib ayt, hozircha xoli bir joyda kutib turishsin, keyin ularni joylashtirish masalasini o'ylab ko'ramiz; men o'n daqiqadan keyin palubaga chiqaman. Jamoa ko'prik ostida to'plansin. Aytadigan gapim bor, bu gap Panten bilan senga ham taalluqli.

Atvud ham Panten singari ajablanib, qoshlarini uchirgancha xonani tark etdi. Orada kechgan o'n daqiqada Grey hech nimaga tayyorlanmadi. Shunchaki, bu vaqt ni yuzlarini kaftlari bilan yopib o'tirgancha o'tkazdi. Bu orada jamoa aytilgan joyda to'planib, betoqatlik bilan kapitanni kutib turardi. Hammaning nigohida nima gapligini bilish ishtiyoqi, savol alomati aks etgandi. Kapitan nihoyat ko'prikcha ustida paydo bo'ldi.

— Hozir men aytadigan gaplarni muhokama qilish shart emas, — deb boshladi u ma'rurasini, ko'prikchaning zinasiga o'tirib. — Biz toki bir ishni amalgaloshirmagunimizcha kema bu yerdan siljimaydi. Barchangiz alvon mato keltirilganidan voqifsiz, ana shu matodan parus ustasi Blenta sizning yordamingiz bilan «Sekret»ning yelkanlarini yangilaydi. Shundan so'ng biz belgilangan manzil tomon suzamiz. Ammo qaysi tomonga borishimizni aytmayman, aytishim mumkin bo'lgan birgina ma'lumot — boradigan joyimiz bu yer-



dan uncha olis emas. Endi asosiy yangilikka o'tsam: men bo'lajak rafiqamning oldiga suzib boryapman. Hademay unga uylanaman. Alohidatadorikning maz-muni shuki, u uzoqdan kemamizni ko'rishi kerak, alvon yelkanlar uning e'tiborini tortishi shart. Ahdlashuv sharti — shu. Ko'rib turibsizki, bu yerda hech qanday maxfiy sir yo'q. Xotiringiz jam bo'lsin!

— Ha, — dedi Atvud matroslarning quvonchdan yorishgan chehrasini ko'rib, — mana gap qayerda ekan, kapitan... Shu muhokoma qilinadigan masala emas, albatta. Bu o'rinda faqat sizni qutlashim mumkin. Hammasi istaganingizdek bo'ladi, Xudo xohlasa. Tabriklayman!

Grey botsmanning qo'lini mahkam siqdi. U ham shu taxlit javob qaytardi. Shundan so'ng dengizchilar birin-ketin kelib, kapitanni qutlab, baxt tilashdi. Hech kim baqirib-chaqirmadi, e'tirof ohangida shovqin ko'tarmadi. Hamma unga xayrixohligini izhor etdi. Panten ham nihoyat yelkasidan tog' ag'darilgandek yengil tin oldi. Birgina kemaning duradgori nimadir norozi qiyofada edi. U nomiga kapitannig qo'lini tutib, so'radi:

- Bu fikr qanday aqlingizga keldi, kapitan?
- Sening boltangni zarbi kabi keldi, — deb unga hazilomuz javob qaytardi Grey. Keyin musiqachilarga yuzlandi:
- Qani Simmer, jamoangni tanishtir-chi!



Skripkachi mashshoqlarning yelkasiga shapatilab, yetti kishini davra o'rtasiga olib chiqdi. Barchasining ust-boshi odmi, oddiy va samimiy kishilar edi. Simmer ularni birma-bir tanishtirdi:

— Mana, o'z kasbining ustalari: bu — trombonchi, u o'ynamaydi, pushka otgandek raqsga tushadi; mana bu mo'ylovsiz yigitlar — fanfarachilarimiz. Ular ijro etishga kirishsa, eshitgan kishida jangovarlik hissi jo'sh uradi; bunisi klarnat chaladi, mana bu mashshoq ikkinchi skripachimiz. Ularning hammasi uyg'unlikni ta'minlay oladigan, ya'ni kaminaga vobasta bo'ladi-gan, haqiqiy mahorat egalaridir. Mana bu shaxs asosiy figura — Frits, barabanchi. Uning ijrosi o'ziga xos, betakror. Ko'nglingiz to'ldimi kapitan?

— Tanishtiruvni qiyvording, gap yo'q, — dedi Grey. — Sizlar uchun alohida bo'lmlar hozirlana-di, joylashib, dam oling. Qolganlar ham tarqalishsin. Panten, kemani qo'zg'ating. Ikki soatdan so'ng joy almashamiz.

Kapitan bu ikki soat qanday o'tganini sezmadni. Bu daqiqalar shirin xayollar quchog'ida, musiqa sadolari ostida kechdi. U bir narsani istardi, shunga intilardi. Intilganga esa tole yor. U fikran hamisha voqealar rivojidan o'zardi. Ayrim masalalarda vaqt-dan o'zib bo'lmasligini bilardi, faqat undan ortda qolishni istamasdi. Uning o'ta bosiq va vazmin suratidagi xotirjam qiyofasi tubida naqadar jo'shqin-



lik borligi bilinmasdi, tuyg‘ulari faqat o‘zigagina ibodatxonaning qo‘ng‘irog‘i kabi qulqonni qomatga keltiruvchi jarang taratayotgani eshitilardi. Bu uni oxir-oqibat, shu darajaga olib bordiki, xayolan sanashga odatlandi: «Bir, ikki... o‘ttiz...» va shu taxlit sanoq ming demagunicha davom etardi. Bu mashq uni chiniqtirdi, tafakkurini sayqalladi. Uning idroki o‘zini o‘rab turgan tashqi dunyoning barcha nuqtalari bilan bog‘langan, handasaviy vatar chizig‘i kabi edi: markazda turib o‘ziga tegishli barcha nuqtalarni nazorat qila olardi. Faqatgina Assolning ichki dunyosi bilan tanishish imkonidan bebahra edi. Axir u bilan hali gaplashmagan bo‘lsa, qanday qilib qalbiga mo‘ralashi mumkin? U kishini masofadan turib ham, faraz va tasavvur oynasida ko‘rishi, bilishi mumkinligi haqida qaysidir manbada o‘qigandi. Mayli, xiraroq bo‘lsa ham, o‘zini uning o‘rniga qo‘yib, ko‘zlarini kalkalab, keyin unga termilib, tushuncha hosil qilish mumkin, deb hisoblardi. Mana shunday kechinmalar ta’sirida halitdan Assol o‘ziga o‘xshamagan bir qiyofa kasb eta boshladi. Unig nafis lablarida tabassum jilva qildi. Grey bolalarcha sodda fikrlash tarzidan, nihoyat, hushyor tortdi va xaxolab kulgancha Panten bilan joy almashish maqsadida xonasini tark etdi.

Hamma yoq qorong‘ilik qa‘riga cho‘mgandi. Panten korjomasining yoqasini ko‘tarib, kompas atrofida kezib yurardi. Ruldag‘i matrosga vaqt-i-vaqt bilan:



«To‘rtdan bir daraja chapga; to‘xta: yana shuncha, chapga buril», deb topshiriq berib qo‘yardi. «Sekret» shamol yo‘nalishida yarim paruslar ishtirokida olg‘a suzib borardi.

— Bilasizmi, — dedi Panten Greyga, — men qanoat hosil qildim.

— Nimadan?

— Sizni nima qanoatlantirgan bo‘lsa, shundan. Endi hamma gapni tushundim. Mana shu ko‘prik us-tida sizni angladim, — u ayyorona shama qildi.

— Qani nimani angladингiz, xulosangizni ochiqchasiغا o‘rtaga tashlang-chi, — dedi Grey, Panten gapni qaysi tomonga burayotganini fahmlab. — Xo‘sн gap nimada ekan?

— Siz kontrabanda mollarini tashishning oqilona yo‘lini kashf qilibsiz, — deya shivirladi Panten. — Siz geniysiz, kapitan!

— Sho‘rlik Panten! — dedi unga kapitan, kulishi-ni ham, kuyishini ham bilmay. — Mulohazalaringiz maqtovga loyiq, ammo ular mustahkam asosga ega emas. Hozircha borib uxlang, hademay yanglish xulosa chiqarganingizga o‘zingiz ham amin bo‘lasiz.

Botsman o‘z bo‘lmasiga ketgach, Grey yo‘nalish kursini tekshirdi-da, kapitan o‘rindig‘iga o‘rnashib o‘tirdi. Shu joyda biz ham uni tark etamiz, zero, bu vaziyatda uning tanho qolgani maqsadga muvofiq.

## **YOLG'IZLIKDA QOLGAN ASSOL**

Longren o'sha kecha tunni ochiq dengizda bedor o'tkazdi; uqlamadi, baliq ham ovlamadi. Yuzini dengiz shamoliga tutib, suvning bezovta shalplashiga qulqutib, chuqur o'yga cho'mgancha qorong'ilik bag'riga ko'z tikib, maqsadsiz tentiradi. Og'ir vaziyatda qolgan chog'lari hech bir narsa uni ovutishga qodir emasdi. Osudalik va faqat osudalik, yana tanholik — uning yagona ilinji edi. Ana shu tentirash uning so'nib bora-yotgan quvvatini tiklar, bezovta kechinmalariga orom berardi. U qalbining qa'ridan otilayotgan tovushlarni mana shunday kezlari eshitishga muvaffaq bo'lardi. Longren shu kecha kelajak haqida xayol surdi. Dasti qisqaligi haqida o'yladi. Assolning taqdiridan tashvishlandi. Uni ma'lum bir muddatga bo'lsin tirikchilik g'amida yolg'iz qoldirishdan cho'chirdi. Eng yomoni, qalbida armon bo'lib qotgan dardi, qayg'usi qaytadan bosh ko'tarishini istamasdi. Ehtimol, u kema xizmatiga kirib, o'zini yana Kopernada sadoqatli yori kutayotgan odam sifatida tasavvur etar, qaytganida uning yo'l poylab turganini, huzuriga oshiqib kelishini ko'rish is-



tagi uyg' onardi, biroq uy ostonasida o'lik bir sukunat hukm surishi tayin: endi Meri hech qachon bu uydan chiqib kelmaydi. Shunday bo'lsa-da, u Assolning hamma narsasi bo'lishini istar, mana shu istak uni favqulodda choralar ko'rishga undardi.

Longren uyga kelganida Assol hali qaytmagandi. Qizning tonggi sayrlariga ota o'rganib qolgan, shundan tashvishlanmadı. Kutib turdi, biroq bu safargi kutish onlari biroz hayajonli kechmoqda edi. U xona ning u burchagidan bunisiga yurarkan, Assolga ko'zi tushdi. Qiz kutilmaganda xonaga kirib, otasi bilan yuzma-yuz bo'ldi.

U otasining chehrasiga ma'nosiz boqib turardi. Sababi, es-hushi o'zida emasdi, uzuk voqeasi uni batamom esankiratib qo'ygandi. Shundan Longren bezovtalandi:

— Tuzukmisan qizim?

U darhol javob qilmadi. Birozdan so'ng otasining dili ga g'ulg'ula solmaslik maqsadida:

— Soppa-sog'man, — dedi tuyqusdan yal-yal yashnab.

Qizning ruhiyatidagi o'zgarishni ilg'agan Longrenning badtar tashvishi ortdi.

— Men sog'man... Nega menga bunday qara yapsiz ota? Kayfiyatim joyida. Bu kunning xayrli ekanidan, nazarimda, boshqa bir gap yo'q. Siz o'zingiz biroz bezovtasiz, qat'iy bir qarorga kelganga o'xshaysiz, — deya u otasini savolga tutdi.



— Men nimayiki qilmay, qanday qarorga kelmay — zimmamda otalik majburiyatim borligini tushunasan, degan umiddaman, — dedi Longren qizini tizzasiga olib. — Yotib yeganga tog‘ chidamaydi, deyishadi. Ahvolimiz o‘zingga ayon. Men yana ishga kirmoqchiman, faqat uzoq safarlarga chiqadigan kemaga emas, pochta xizmatiga yollanmoqchiman. Bu kema Kasset bilan Lisa oralig‘ida qatnaydi.

— Tushunaman! Sizni juda sog‘inaman, otajon! Uzoq qolib ketmang, keyin sog‘ligingizni ham asrang! Mening sizdan boshqa quvonchim yo‘q! — u shu so‘zlarni ayta turib, kulgichlarida jilva qilgan tabassumini yashira olmadi. — Men sizni har doim orziqib kutaman!

— Assol, qizalog‘im! — dedi Longren kafti bilan uning engagidan ushlab, yuzini o‘ziga tomon burib.

— Allanechuk boshqachasan!

— Tashvishlanmang otajon, hammasi joyida. Faqat sizni yo‘lga g‘amnok qiyofada kuzatgim kelmayapti, — deya tinchlantirdi otasini.

Longren o‘z xayollari bilan band bo‘lmaganida, Assolning yozg‘irishlariga sira ishonmagan bo‘lardi. Shundan ortiq bu mavzuda so‘z ochmadi. Qiziga safar xaltasini yo‘lga hozirlashini aytib, unga nimalarni solishi haqida ko‘rsatma berdi.

— Uyga o‘n kundan keyin qaytaman. Sen miltig‘imni o‘qlab, har ehtimolga qarshi hozirlab qo‘y. Zarurat bo‘lmaganada uydan chiqma. Birov xafa qilsa,



Longren tez kunlarda qaytadi, degin. Qaytganimda burnini yerga ishqalayman!

— Otajon, mendan tashvishlanmang. O'zingizni asrang!

Shundan so'ng Longren tamaddi qilib, safar xaltsini yelkasiga ilib, yo'lga chiqdi. Assol uni uzoq vaqt ortidan kuzatib turdi, otasining qorasi ko'zdan g'oyib bo'lgach, uyiga kirib ketdi. Bir-ikkita uy yumushlarini bajargach, u beixtiyor ko'chaga chiqdi. Qishloq ko'chasi bo'ylab ketdi. Aslida, Lisada qiladigan ishi yo'q, qayoqqa, nima uchun borayotganini hatto bilmasdi. Yo'lda u o'tkinchi bir kishini uchratdi. Yo'ldan adashgan ekan, yo'l ko'rsatdi. Borishi kerak bo'lgan manzilga qanday borishni tushuntirdi.

Qishloqqa yaqin joyda u ko'mirchini ko'rib qoldi. Unga ko'mir to'la savati bir kuni gullashini aytib kuldirgani yodiga tushdi; u aravasi yonida ikki nafar sovuq basharali kishi bilan turardi. Ko'mirchini ko'rib, Assolning chehrasi yorishib ketdi.

— Salom, Filipp amaki, — dedi u. — Bu yerda nima qilyapsiz?

— Manavi aravaning g'ildiragi joyidan siljibdi. Jo-yiga soldik, endi biroz tanaffus qilyapmiz! O'zing-chi, o'zing qayoqqa yo'l olding?

Assol unga javob qilmadi.

— Bilasizmi, Filipp amaki, men sizni juda yaxshi ko'raman. Otam kabi azizsiz! Shuning uchun sizga bir sirni aytaman: hademay men bu yerdidan uzoq-



uzoqlarga ketaman. Hali-beri qaytmasam kerak. Faqat buni hech kimga aytmang! Aytganingiz bilan odamlar baribir ishonishmaydi.

— Ketmoqchisan? Qayoqqa borasan? — taajjub-landi ko'mirchi. Angrayib og'zi ochilib qolganidan, soqoli odatdagidan uzunroq ko'rindi.

— Rosti, bilmayman! — qiz ohista oyog'i ostida yastangan o'tloqqa boqib, xayolan o'zi ulg'aygan mana shu qadrdon zamin bilan xayrlashgan bo'ldi:

— To'g'risi, bilmayman! Qaysi kuni, qaysi daqiqa, hatto qayoqqa ketishimni ham bilmayman. So'ramang, boshqa hech nima aytolmayman. Shuning uchun fursat borida xayrlashmoqchiman. Sizdan ko'p yaxshiliklar ko'rganman, yaxshi qoling!

U ko'mirchining rapidaga o'xshash kaftidan tutib, yirik, qop-qora qo'lini silkigan bo'lib xayrlashdi. Cholning yuziga qon yugurdi. Qiz esa ortiga o'girilib, zumda ko'zdan g'oyib bo'ldi. Ko'mirchi Filipp va uning hamrohlari boshlarini burishga ham ulgurmay qoldilar.

— Mo'jizaning o'zginasi, — dedi ko'mirchi hang-u mang bo'lib. — Bugun u tamoman boshqacha!

— To'g'ri, — uning so'zlarini tasdiqladi hamrohlaridan biri, — xuddi uchib yurganga o'xshaydi-ya.

— U bilan bizning nima ishimiz bor, — dedi ikkinchi hamrohi butkul loqayd qiyofada.

Shundan so'ng uchovlon aravaga o'tirib, yo'llarida ravona bo'lishdi. Chang ko'tarilib, izlari ham, o'zлari ham ko'rinxay qolishdi.

## ALVON YELKANLAR

Subhi sahar. Tong otib, olam oqlikka belana boshlagan payt. Ulkan o'rnmonni nafis bug' qatlami qoplagan, ajib bir manzara hosil bo'lgandi. Notanish bir ovchi gulxan yonidan qo'zg'alib, daryo bo'y lab yo'lga tushdi. Daraxtlar orasidan sohil bo'yining osmon qadar yastangan bo'shliqlari yorishib turardi. Ammo ovchi bu manzaraga chalg'imadi, toqqa qarab ketgan ayiqning iziga tushib, yo'lida davom etdi.

Daraxtlar orasidan taralgan musiqa ovozi kutilmaga ganda borliqni jonlantrib yubordi: bu klarnet ohangi edi. Uning ijrochisi palubaga chiqib, bir parcha kuy chaldi. Mungli, ta'sirchan ohanglar kishi ko'nglini yumshatib yuboradigan darajada havo mavjlari bilan taraldi. Birozdan so'ng u to'xtadi, ammo tinglagan quloqqa uning aks-sadosi qoldi.

Ovchi ayiq o'tgan yo'llarni qayrilib sinib qolgan shox-shabalarga qiyosan mo'ljal qilib, daryo yoqasiga chiqdi. Tuman hali ham tarqamagandi. Undan daryo bo'y lab suzib borayotgan ulkan kemaning purviqor surati ko'rinardi. Qirg'oqda turgan ovchi ko'zini ishqqa-



lab takror va takror o'sha yoqqa tikilar, aynan shu narsani ko'rganiga ishonch hosil qilmoqchi bo'lardi. Kema muyulishda ko'zdan g'oyib bo'ldi, u esa turgan joyidan jilmay o'sha tomonni kuzatishda davom etdi. Keyin ajablangancha yelkasini uchirib qo'ydi-da, ayiq ketgan tomonni tusmollab, tog' tomon yo'l oldi.

«Sekret» daryo oqimi bo'y lab suzib borarkan, Grey rulda, shturval dastagini tutib borardi. Rulni matrosga ishonib bo'lmas, bu yerlarda katta-katta ohak bo'laklari ko'p bo'lib, kemani ularning orasidan mahorat bilan olib o'tish lozim edi.

Bu payt uqlab miriqsan, yuvinib soch-soqolini qirtishlab, odambashara bo'lgan Panten palubaga chiqib keldi. U hali ham kemaning alvon rangli yelkanlar bilan bezatilishi va Greyning asil maqsadi orasidagi bog'liqlikni tushunolmayotgandi.

— Endi, — dedi Grey, — mening paruslarim maromida chayqalib turganidan foydalanib, Lissada va'da qilganimdek, sizga maqsadimni ochiq bayon qilaman. Bilasizmi, men sizni o'jar yoki ovsar deb hisoblamayman. Siz tajribali dengizchisiz. Bu esa ko'p narsani anglatadi. Siz bo'lsa omi odamlarning gaplariga ko'proq quloq tutasiz, natijada olomon nima desa, o'shangacha ergashib ketaverasiz. Ortingizdag'i, to'g'ri rogi, oldingizdag'i oqil odamlar sizni to'g'ri yo'l tomon chorlaydi, siz esa ularni eshitmaysiz. Mening maqsadimda g'ayritabiyy yoki g'ayriqonuniy hech qanday



qora ish yo‘q. Yaqinda siz mana shunday qizil yelkanli kemada o‘z shahzodasini kutayotgan qiz bilan tanishasiz. Bu uning bir umrlik orzusi. U bunday taqdirni umri bo‘yi kutishga tayyor.

U matrosga qisqa satrlarda, yetti yil muqaddam qilingan bashorat bilan bog‘liq, siz, aziz kitobxonga, tanish voqeani so‘zlab berdi. So‘ng fikriga shu taxlit yakun yasadi:

— Ko‘ryapsizmi, bunda taqdir, iroda va inson tabiat qanchalik birikib ketgan; har gal meni kutadigan, faqat meni kutishga qodir kishining yoniga qaytishni istayman. Ehtimol, u tufayli oddiy bir haqiqatni anglagandirman. Mo‘jiza deganlari tutqich bermas qush, qachon kaftimga qo‘narkan, deb kutib turmasdan, har kim uni tutish harakatida bo‘lmog‘i kerak. Kutish va tutish: biri faoliyatsizlik, ikkinchisi serharaktchanlik sifatini ifoda etadi. Qimirlagan qir oshadi, hamma narsa o‘z qo‘limizda, deyilgani zamirida yotgan mohiyat mana shu, angladingizmi? Odam bolasi uchun muhimi, aytgan so‘zi, qilgan ishi uchun tezgina mu-kofotlanishidir. Shunga odatlanganmiz. Bu qiyin ish emas, qachonki qalb olovli o‘simglik urug‘ini saqlay bilsa — mana bu haqiqiy mo‘jiza. Qo‘lingdan kelsa, unga mana shu mo‘jizani ko‘rsat! Uning qalbi yangilanadi, seniki ham.

Tasavvur qiling: xulqiga qarab qamoqxona boshlig‘ining o‘zi mahkumni ozod qiladigan bo‘lsa; mil-



liarder kotibiga xizmatlari evaziga villa sovg'a qilsa; kirakash jokey omadi chopmayotgan ot uchun loaqlal bir marta o'zini ortga tortib, unga imkon bersa — yaxshilab tafakkur qiling — bularning bari qanchalar yoqimli va mo'jizakor!

Yana qancha mo'jiza yaratishga molik mayda-chuydalarimiz bor: tabassum, quvonch, kechirimlilik, o'z vaqtida aytildigan kerakli so'z. Mana shunga ega bo'lish, hamma narsaga ega bo'lish demakdir. Endi o'zimga kelsam, to'g'rirog'i, men bilan Assolga ta-alluqli saodatning boshlanish nuqtasi bo'lgan alvon yelkanlar haqidagi ertak va afsonalar muhabbat nima ekanini yurakdan his etadigan kishilar qalbida mangu yashab qoladi. Endi meni tushundingizmi?

— Ha, kapitan. — qiyqirib yubordi Panten, chiroli taxlangan, top-toza dastro'moli bilan mo'ylabiga oqib tushgan ko'z yoshlarini artib. — Men hammasini endi tushundim. Sizni qalban angladim. So'zlaringizdan juda mutaassir bo'ldim. Men hoziroq pastga tushib, Niksdan kechirim so'rayman. Men uni kecha chelakni cho'ktirib yuborgani uchun qattiq so'kkandim. Ko'nglini ko'tarish uchun uni tamaki berib siylayman: u o'zinikini qartada yutqazib qo'ygandi.

Grey so'zları shu qadar tez ta'sir etganini ko'rib, bir nima deyishga ulgurmey, Panten pastki palubaga tushiladigan zinapoyadan larsillab tushib bormoqda edi. Birozdan so'ng uning og'ir uh tortgani eshitil-



di. Grey boshini ko'tarib, ko'kka boqdi; boshi uzra taram-taram alvon yelkanlarga ko'zi tushdi; Quyosh ularning chokini jimgimador nurlari bilan shu'lalantirib turardi. «Sekret» dengiz bo'ylab, qirg'oqdan ancha ichkariga suzib borardi.

Greyning qalbi zarracha bo'lsin shubhadan xoli, tashvishning bo'g'iq zarbasi, mayda-chuyda muammolar shovqinidan mustasno edi. U xuddi yelkandek, tubandan ancha yuqori, so'zlarni ortda qoldiradigan fikrlar og'ushida oliy maqsadi sari oshiqardi.

Kunning yarmiga borib, kun chiqar tomondan harbiy kreyser kemasining qorasi ko'rindi: u kursini o'zgartirib, «Sekret» tomon suzdi. O'rtada bir yarim mil masofa qolganda «kema yot» signalini berdi.

— Og'alarim, — dedi Grey matroslarni tinchlantirib, — qo'rwmang, ular bizni otishmaydi, shunchaki, ko'zlariga ishonishmayapti, xolos.

U kemani to'xtatishga topshiriq berdi. Panten xuddi yong'in paytida baqirib-chaqirib ishga kirishgani kabi kemani komanda berib to'xtatdi. Shu asno kreyserdan bir kater harbiylar bu tomonga qarab yo'nga chiqishdi. Askarlarga oq qo'lqopli leytenant bosh bo'lib kelmoqda edi. U kemaga yetib kelib, palubaga chiqqach hayratlanib atrofga nazar tashladi-da, so'ng Grey bilan uning kayutasiga o'tishdi.

Leytenant bir soatlardan so'ng kemani tark etdi. Keta turib qo'lini ajabtovur silkib, barcha bilan jil-





mayib xayrlashdi. U xuddi unvoni ko'tarilib, yana kreyserda xizmat qilish vakolatini qo'lga kiritgan zabitga o'xshardi. Kreyserdan ufqqa tomon zarb bilan to'p otildi; osmon bag'ri mushakka to'ldi; havo bo'shilig'i yonib, miltirayotgan pufaklar okean uzra yoyilib, mayda-mayda zarralarga aylanib, suv sathiga yog'ildi. Kun bo'yi kemada bayramona shukuh hukm surdi. Jamoaning ruhiyatida ishchanlik emas, ishqchanlik kayfiyati ustun edi. Salondan tortib mashinalar xonasi-gacha, hamma yoqda shu mavzuda so'z borardi. Mina saqlanadigan bo'lmaning qorovuli yonidagi hamrohini gapga solib:

— Tom, sening uylanishing qanday sodir bo'lgan?  
— deb so'radi. Tom xuddi shu taxlit qisqa va lo'nda javob qaytarardi:

— Menmi, uni tepalikdan qulayotganida asrab qolganman! Shundan keyin to'yimiz bo'lgan.

— Rostdanmi? — havasi kelib, hamrohini yana gapga tutdi qorovul. — Baxtsiz hodisa qayerda va qanday sodir bo'lgandi, aytib ber?

— U mendan qochib, o'zini derazadan tashlamoqchi bo'lganida etagidan tutib qolganman, — deya Tom g'urur bilan mo'ylabining uchini burab qo'ydi.

«Sekret» bir necha muddat ochiq dengizda erkin suzib bordi. Qirg'oqlar ko'zga tashlanmasdi. Tush paytiga borib, olis sohil yuz ko'rsatdi. Grey durbinini qo'lga olib, Kapernani kuzatishga tushdi. Agar oldida



son-sanoqsiz uylarning tomi qalashib xalal bermagani-da, u shubhasiz, xonadonlardan birida, deraza oldida kitob o‘qib o‘tirga qiz — Assolni adashmay tanigan bo‘lardi.

Haqiqatan ham, bu payt Assol kitob o‘qish bilan mashg‘ul edi; sahifa sathida mittigina ko‘kimir bir hasharot sudralib yurar, gohida to‘xtar, gohida old oyoqlariga tayanib o‘rnidan ozod turmoq bo‘lar — shu bilan o‘zining mustaqil va mahalliy mavjudot ekanini namoyish qilishga tirishayotgandek edi. Assol uni ikki marta ziyon yetkazmay deraza peshtaxtasiga chiqarib qo‘ydi, biroq u yana surilib, Assolning pinjiga tiqilib kelaverardi. Aftidan, aytadigan gapi bordek edi. Bu safar u qizning, kitob varag‘ining bir uchidan tutib turgan qo‘ligacha chiqib borishga muvaffaq bo‘ldi. Shundan Assol o‘sha sahifadagi «qara» degan so‘zda qotdi. Nigohini kitobdan ko‘tarib, qo‘lida g‘imirlab yurgan hasharotga qaratdi:

— Yana senmi, ahmoqqinam? — deya birato‘la uni o‘t-o‘lanlar orasiga otib, qutulmoqchi bo‘lib turgan edi, tuyqus sanoqsiz uylar orasidagi bo‘sqliqlar osha suzib kelayotgan alvon yelkanli oq kemaga ko‘zi tushdi. U sapchib tushdi, o‘zini ortiga tashlab, joyida toshdek qotdi. Keyin ko‘zlari jiqla yoshga to‘lib, ko‘chaga otildi.

Turq-u tarovati butunlay o‘zgargan «Sekret»da bu payt shod-u xurramlik boshlanib ketgan, barcha bir-bi-



rini qutlab, yosh kelin-kuyov sha'niga qadah so'zi ayrib, sharob sipqarardi. Mayin musiqa ovozi paluba bo'ylab kezar, xuddi havoni anvoyi chechaklar isiga burkagan qimmatbaho atirdek, kishilarning shundoq ham ko'tarinki kayfiyatini yanada ko'tarib yuborardi. U oppoq paluba yuzasida, alvon yelkanlar panohida mangu muhabbat ohanglarini ularshib yurardi. Uning ijrochisi esa barchaga tanish va sevimli bir qo'shiqning so'zlarini xirgoyi qilardi:

*«Quying, quying do'stlarim, to'ldiringiz jomlarni,  
Muhabbatni kuylaylik, tongga ulab shomlarni...»*

Uyni hech qachon qarovsiz qoldirmagan Assol bu safar ana shu tartibga xilof ravishda ko'chaga otildi. U bir muddatdan so'ng dengiz sohili bo'ylab chopib borardi. Birinchi tuyulishda u halloslagan ko'yi to'xtab, nafasini roslashga urindi. Tomog'i quriganini his qildi, ko'z oldida zohir bo'lgan kutilmagan manzara madorini butkul olib qo'ygandi. Nigohini dengizdan uzmaslikka harakat qilar, go'yo chalg'isa, kema o'zini ko'rsatmay qo'yishidan — uning ko'rinishmay qolishidan cho'chirdi. Axir shuni deb bu hayotda necha bor pand yegan, malomatlar ostiga qolgan kishi uchun kemaning ko'rinish bergani taqdirning beqiyos sovg'asi, ko'rinishmay qolishi esa...

Bu dahshatning o'zginasi bo'lardi.



O'sha kuni Kaperna qishlog'ida ko'z ko'rib, qu-loq eshitmagan bir voqeа sodir bo'ldi. Katta-kichik bunday voqealar insoniyat tarixida ko'plab uchraydi. Ularni «Nuh to'foni», «Pompey fojiasi» singari nomlar bilan atashgan. Agar mana shu an'anaga amal qilsak, Kaperna voqeasini «Alvon yelkanlar» deb atasak durust bo'ladi.

Kapernaga shu choqqacha hali biror marta ham ulkan kema bu qadar yaqin yo'lamagandi. Ayniqsa, mana shu qishloq aholisi o'rtasida afsonaga aylangan, tavqi la'natdek talqin qilingan alvon yelkanlar hilpirab turardi. Erkaklar, ayollar, bolalar, kim qanday ahvolda bo'lsa, shu alfozda sohil tomon oshiqardi. Odamlar devor osha bir-birlarining ustilaridan hatlab, yiqilib, turib qirg'oqqa yugurishardi. Birpasda sohil bo'yida tumonat odam to'plandi. Ana shu olomonga Assol ham kelib qo'shildi. Ammo hali o'zi yo'qligida uning nomi odamlar orasida tinimsiz tilga olinib turdi. Yig'il-ganlar asabiy va g'amgin, qo'rquv va g'azab aralash u bilan bog'liq voqealarни eslashedi. Asosan, erkaklar gapirishardi; yerga kirib ketgudek yerparchin bo'lgan, alamdan tosh qotgan ayollar yig'lamoqdan beri ahvolda turishardi. Agar yorilish kerak bo'lsa, shu paytgacha Assolni zaharlab kelgan bu qavm endi zahrini bir-biriga sochgan bo'lardi, shubhasiz. Assol kelgach hamma jimb qoldi, odamlar allaqanday qo'rquv va hadik ichida ortga chekinib, unga yo'l ochishdi. Qirg'oqda



hosil bo‘lgan mana shu sahnda Assol hayajon ichida entikib, baxtiyor chehrasi barq urib, nihoyat, ro‘yoga chiqqan orzusi, bashorat qilingan mo‘jiza — alvon yelkanli ulkan oq kema bilan yuzma-yuz, shundoqqina qo‘l uzatsa yetadigandek masofada turardi.

Kemadan qayiq ajralib chiqib, sohil tomon suza boshladi; unda bir necha qayiqchi va o‘rtada bashang kiyangan xushbichim yigit tik turardi. Assol uni bolaligidan biladigandek edi. U ham shuni tasdiqlagan kabi qanchalar baxtiyor ekani, naqadar sog‘inganini ifoda etuvchi bir tabassum hadya qilib, bir ismni cho‘zib talaffuz qilib kelardi:

— Ass-s-o-o-ll!

Ammo Assolning yuragi ishtiboh-u savollarga to‘lib-toshgan; u aldanishdan, xato qilishdan, orzulari sarobga aylanishidan cho‘chirdi, shundan yuragi hapiroqib, qirg‘oqqa urilayotgan to‘lqinlarga qarama-qarshi oldga yugurib bordi. Beligacha suvga botib, qayiqdagilarga qarab qichqirdi:

— Men bu yerdaman! Mana — men! Bu — men!

Xuddi shu payt Simmer ma’noli bir ishora bergandi, ayni shu manzarani munosib tarzda ifoda etuvchi musiqa sadolari yangradi. U to‘planganlarning asablariga ta’sir ko‘rsatib, barcha-barchani o‘tmish va kelejak oralig‘ida chirpirak qilib aylantira boshladi. Hayajon qamragan butun borliq: bulutlar, to‘lqinlar, suv — bari-bari aylanishda edi. Assol ham turgan joyida





ajib bir holga tushdi. Bir muddat boshi uzra kim yoki nima quyundek charx urayotganini bilolmay esankirab qoldi: aylanayotgan umi, qayiqmi yoki kema? Shundoqqina yonida eshkakning tovushini eshitib, o‘ziga keldi. Boshini ko‘tarib, yigitga qaradi. Grey egilib, qo‘llarini cho‘zib uning belidan tutdi. Assol ko‘zlarini chirt yumib oldi, keyin tezda ochib jilmaydi, yigitning yorishib turgan yuziga boqib, dedi:

- Xuddi kutganimdek!
- Sen ham xuddi shundaysan! — bebahो boyligi bo‘lmish qizni suvdan ko‘tarib olarkan javob yo‘lladi Grey. — Mana, nihoyat, men keldim. Meni tani dingmi?

Qiz yigitning yelkasiga qo‘l qo‘yarkan, boshi bilan uni ma’qullab, javob qaytardi. Shu kez uni avvallari o‘zi his qilmagan, tamoman yangi bir hissiyat qamrab olganini sezdi, barmoqlari titrab, ko‘zlarida hayo uchqunlari porladi. U yana ko‘zlarini chirt yumib oldi. Baxt uning ichida go‘yo paxmoq mushukchaday jimgina o‘tirardi. Assol nihoyat ko‘zini ochishga qaror qildi. U hali-hanuz bularning barini tushida ko‘rayotgandek edi. Barini boy berish hissi uni tark etmayotgandi. Kemaga kelib urilayotgan qudratli to‘lqinlar zarbidan chayqalayotgan shlyupkalarning tovushi tushdagiga o‘xshamasdi. U qanday qilib palubaga ko‘tarilganini ham eslolmadi. Chunki u shu choqqacha Greyning kuchli, zabardas qo‘llariga topshirgandi o‘zini. Chi-



royli gilamlar to'shalgan paluba, paruslarda bayroqdek hilpirayotgan alvon ipak matolar — bularning barchasi tushga o'xshardi. Ko'zini ochib Assol o'zini kayutada ko'rdi, oddiy, odmi, ammo har qanday hasham va dabdabdan ustun edi unga bu xona.

Grey uning qo'lidan tutib, o'ziga qaratgan payt u otasini o'ylay boshlagandi.

— Mening Longrenim uchun ham bu kemadan joy topiladimi? — savolining javobini avvaldan bilsa-da, so'radi Assol.

Grey Assolni mahkam quchib, unga bo'sa hadya qildi. Bu «ha» degan qat'iy javobining tasdig'i bo'ldi. Qizning mamnun chehrasi quvonchdan yanada yash-nab ketdi.

Shu o'rinda biz bir-biriga talpinib turgan baxtiyor juftlikdan uzoqlashamiz. Ma'lum, hozir ular o'zlarini yolg'iz qolish istagida. Zero, dunyoda turfa tillarda, turli talaffuzlarda ifoda etiladigan so'zlar ko'p, tu-shunchalar mavjud. Ammo ularning barisi bugun bu ikki yosh bir-biriga aytadigan so'zlarni yetkazishga, uning bor tarovati yoki haroratini ifoda etishga ojizlik qiladi.

Bu orda palubada, haybatli machta ostida ostki qismini chuvalchanglar g'ajib tashlagan, yuz yillik sharoq saqlangan bochka atrofida, butun jamoa to'planib, to'yni to'ydek nishonlash uchun kapitanning ishorasini kutib turardi. Unda Atvud qomatini tik tutib turar,



Panten esa hozirgina tug‘ilgan chaqaloq kabi beg‘ubor chehrasidan nur taratib o‘tirardi.

Grey ularning oldiga chiqib, orkestrga bir daqiqalik tanaffus e’lon qildi. So‘ng bosh kiyimini yechib, qadimiy sharobdan birinchi bo‘lib jomini to‘ldirib oldi-da, o‘zi uchun qadrdon bo‘lib qolgan jamoaga yuzlanib, dedi:

— Va nihoyat, orzular ushaldi, bashorat ro‘yobga chiqdi. Asrlar osha yashab qoladigan afsonaga asos solindi, — deya u sharobdan ho‘plab, jomni palubaga urib chil-chil qildi. So‘ng: — Endi miriqib dam olinglar! Yaxshilik uchun, ishonch uchun, muhabbat va sadoqat uchun qadah ko‘taringlar! — deb hayqirdi. — Biling, bugun quvonmagan odam — mening dushmanim!

Bu so‘zlarni takrorlashiga hojat qolmadi. Kema to‘la quvvatda olg‘a siljib, dahshat ichida mung‘ayib qolgan Kapernadan uzoqlasharkan, bochkaning atrofida shodiyona avj oldi.

— Sharob senga ma’qul keldimi? — Grey Letikani savolga tutdi.

— Kapitan! — deya bir muddat munosib javob uchun so‘z axtarib qoldi Letika. So‘ng: — Men unga ma’qulmanmi, yo‘qmi bilmadim-u, ammo mening munosabatimni biroz o‘ylab ko‘rish kerak, — dedi.

— Nima?!

— Aytmoqchimanki, og‘zim band edi. Bo‘sabit oldim haytovur. Endi gapirsam bo‘ladi. Kapitan,



baxtli bo'ling! «Sekret»ning eng katta yutug'i, eng munosib yuki — Assolga ham baxt tilayman!

Ertasi kuni, tong yorishib, olam oqlikka belangan chog' kema Kapernadan ancha uzoqlashgandi. Jamoa deyarli uyquda, bazmi jamshidda bor quvvatini sarflab qo'ygani bois orom olardi. Palubada kechagi bazmning tasdig'i sifatida hamma narsa ostin-ustin, oshxona jihozlari har tomonda sochilib yotardi; sanloqli kishilargina: rulda o'tirgan navbatchi va qorovul oyoqda hushyor turardi. Shuningdek, violenchenli quchgancha Simmer ham hushyor edi. U yorqin o'ylar og'ushida kamonchasi bilan sozining torlarini mayin tebratib, hazin bir kuyni ijro etar, baxt haqida o'y surardi...



## **MUNDARIJA**

BASHORAT .....	3
GREY .....	36
TONG .....	56
ARAFA .....	73
JANGOVAR TAYYORGARLIK.....	87
YOLG'IZLIKDA QOLGAN ASSOL .....	106
ALVON YELKANLAR.....	111

Мазкур китобни нашр этиш ҳуқуқи нашриёт ва  
муаллиф ўртасидаги шартномага асосан тўлалигича  
«Янги аср авлоди»га тегишили.  
Муаллифлик ҳуқуқи бузилган тақдирда ҳуқуқбузар  
Ўзбекистон Республикаси Конунчилиги доирасида жавобгарликка  
тортилади.

---

*Adabiy-badiiy nashr*

ALEKSANDR GRIN

## ALVON YELKANLAR

Muharrir Zebiniso HAYITOVA  
Badiiy muharrir Dilfuza SALIXODJAYEVA  
Kompyuterda sahifalovchi Dildora JO'RABEKKOVA  
Texnik muharrir Surayyo AHMEDOVA

Litsenziya raqami: AI № 252, 2014-yil 2-oktabrda berilgan.  
Bosishga 26.07.2021-yilda ruxsat etildi.

Bichimi 84x108 1/32.  
Bosma tabog'i 4,0. Sharqli bosma tabog'i 6,72.  
Garnitura «Academic UZ». Ofset qog'ozি.  
Adadi 2000 nusxa. Buyurtma № 127.  
Bahosi kelishilgan narxda.

«Yangi asr avlodi» NMMda tayyorlandi.  
«Yoshlar matbuoti» MCHJda chop etildi.  
100113. Toshkent, Chilonzor-8, Qatortol ko'chasi, 60.

### *Murojaat uchun telefonlar*

Nashr bo'limi — (78) 147-00-14, (78) 129-09-72.  
Marketing bo'limi — (98) 128-78-43; 397-10-87;  
faks — (71) 273-00-14;  
e-mail: yangiasravlod@mail.ru



4

Aleksandr GRIN

# ALVON YELKANLAR

Keksa dengizchi qizalog'ining hayajonli hikoyasini xayolot mahsuli degan o'yda e'tiborsiz qoldirmoqchi bo'ldi-yu, biroq bir narsa yodiga tushib, taqa-taq to'xtadi. Aytishlaricha, bolalarning hayotida ulkan o'zgarishlar yuz berishi kattalarning har bir narsaga jiddiy e'tibor qaratib, ularga ishonch bildirishi bilan bog'liq ekan.

20 79



[www.book.uz](http://www.book.uz)

ISBN 978-9943-20-830-8

9 789943 208308